

# MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI



- ❖ **O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi**
- ❖ **“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” yo‘nalishi**
- ❖ **Dotsent Rustamov Vahobjon**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan  
tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” kafedrasida dotsenti  
Rustamov Vahobjon

**Taqrizchilar:** O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” kafedrasida mudiri,  
dotsent v.b. Shodiyev Xamza

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnoma)

## MUNDARIJA

<b>I.</b>	<b>ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II.</b>	<b>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>13</b>
<b>III.</b>	<b>NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>17</b>
<b>IV.</b>	<b>AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>69</b>
<b>V.</b>	<b>KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>110</b>
<b>VI.</b>	<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>115</b>
<b>VII.</b>	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>123</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

**“Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy metodikasi”** moduli hozirgi kunda ta’limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan. Ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, shuningdek an’anaviy va zamonaviy dirijyorlik asarlaridan o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o’tkazish, ijrochilik malakalarini shakllantirish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo’llash nazarda tutiladi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**“Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy metodikasi” modulining maqsadi:**

Madaniy-ommaviy tadbirlarning tashkil etishning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va roli, tadbirlarni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, tadbirlar dramaturgiyasini yaratish, xujjatli va mahalliy manbalarni badiiylashtirish, tadbirlarni tashkil etishning avvalgi va zamonaviy holatini solishtirish orqali uning hozirgi kunda qay darajada ta’lim tizimida o‘rganilayotganligi misolida yangi zamonaviy shakl va uslublarni amaliyotga tatbiq etish va boshqalarni qo’llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat.

**“Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy metodikasi” modulining vazifalari:**

- mamlakatimizda tashkil etilayotgan madaniy tadbirlarning dunyoda barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi o‘rnini ko‘rsatish;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik aspektlari, yoshlar tarbiyasiga ta’siri haqidagi ma’lumotlarni berish;
- O‘zbekiston hududida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ularning turlari, tashkil etish kskllari, sahnalashtirish jarayonlari bilan tanishish;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish bilan bog‘liq xalqaro va milliy qonunchilik, huquqiy-normativ hujjatlarni o‘rganish;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ta’lim muassasalarida o‘rganilishi va oliy ta’lim tizimida ularni o‘tkazish uchun pedagog kadrlarni tayyorlashni ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**“Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy metodikasi”** modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xosligi, mazmun, mohiyatini;

- tadbirlarni tashkil etishning xorij va O'zbekistonda qabul qilingan qonun hujjatlari va huquqiy-normativ hujjatlarni;
- madaniy-ommaviy tadbirlar turlarini, sahnaga ko'chirish usullarini;
- madaniy-ommaviy tadbirlarda qo'llaniladigan usul, vositalar hamda tashkil etish uslubiyotini;
- tadbirlarni tashkil etishning ta'lim muassasalarida o'rganilishiga qaratilgan maqsad va vazifalarni **bilishi** lozim.
- madaniy-ommaviy tadbirlarni dramaturgiyasini yaratish;
- xorij mamlakatlari va O'zbekistonda o'tkazilayotgan madaniy-ommaviy tadbirlarni qiyosiy tahlil qila olishi;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni o'tkazishda san'at turlaridan foydalanish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlardan ta'lim jarayonida talabalarni xabardor qilish;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni maqsadli tashkil etish, talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etish orqali jamiyatning faol insoniga aylantirish, uni ta'lim tizimiga tatbiq etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.
- madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishda an'anaviy uslub va tajribalarni qo'llash hamda pedagogik faoliyatga tatbiq etish;
- madaniyat va san'at sohasini boshqarish, madaniy tadbirlarni tashkil etish va shunga tegishli sohalarni o'zlashtirishda zarur bo'lgan uslubiy va o'quv qo'llanmalarini yaratishda unumli foydalanish;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish borasidagi ilg'or tajribalarni o'rgangan holda o'z pedagogik faoliyatiga tatbiq eta bilish;
- tadbirlarni tashkil etishda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;
- xorijiy davlatlarda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ta'lim tizimida o'zlashtirilishi bo'yicha amalga oshirilgan tajribalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish;

- ta'lim muassasalarida va ta'lim jarayonida tadbirlarni tashkil etish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.
- madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning mohiyatini tushungan holda uni tasniflay olish;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'zlashtirishdagi an'anaviy uslublarni ta'lim tizimiga tatbiq etish;
- tadbirlarni tashkil etish uslublarini talabalarga singdirish;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ta'lim tizimida o'rganilishi borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“**Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy metodikasi**” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Madaniyat va san'at sohasida kreativ tadbirkorlik”, “Art menejment” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim muassasalarida madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo'llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	nazariy	amaliy	ko'chma
1.	Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati.	2	2		
2.	Ilg'or xorijiy davlatlarning turdosh oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan madaniy – ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotini ta'lim tizimiga tadbiq etish.	2	2		
3.	Madaniy dam olish tadbirlarini tashkil etishning o'ziga xosligi. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchilik qobiliyatining shakllantirish tamoyillari.	2		2	
4.	Madaniy-ommaviy tadbirlar – insonlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga qaratilgan faoliyat	4		2	2
5.	Pedagogik aspekt tushunchasi. Tarbiyaviy tadbirlar. Tarbiyaviy jarayonlar	2	2		
6.	Madaniy-ommaviy tadbirlar - tarbiya vositasi sifatida. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar.	4		2	2
7.	Tadbirlarda sahna ko'rinishlarini tayyorlash usullari. Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni. Maydonlarda tadbirlarni o'tkazish metodikasi.	4	2	2	
<b>Jami:</b>		<b>20</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>4</b>



## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati (2 soat)**

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tasnifi. Respublikamizda o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar tahlili.

### **2-mavzu: Ilg‘or xorijiy davlatlarning turdosh oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan madaniy – ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotini ta’lim tizimiga tadbiq etish (2 soat)**

Ilg‘or xorijiy davlatlarning turdosh oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan madaniy – ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotini ta’lim tizimiga tadbiq etish. Ilg‘or xorijiy tajribalar. O‘zbekiston Respublikasi Milliy madaniyat konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining madaniyat, san’at, ma’naviyat sohalariga oid Qaror, farmon va boshqa meyoriy xujjatlari.

### **3-mavzu: Pedagogik aspekt tushunchasi. Tarbiyaviy tadbirlar. Tarbiyaviy jarayonlar (2 soat)**

Pedagogik aspekt tushunchasi. Tarbiyaviy tadbirlar. Tarbiyaviy jarayonlar. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik tamoyillarning qo‘llanishi. Tadbirlar turlari. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish xususiyatlari. Ommaviy-madaniy tadbirlarda tarbiyaviy mavzular talqini.

### **4-mavzu: Tadbirlarda sahna ko‘rinishlarini tayyorlash usullari. Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni. Maydonlarda tadbirlarni o‘tkazish metodikasi (2 soat)**

Tadbirlarda sahna ko‘rinishlarini tayyorlash usullari. Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni. Maydonlarda tadbirlarni o‘tkazish metodikasi Sahna ko‘rinishlarini tayyorlash usullari. Tadbirlar dramaturgiyasini yaratish. Ssenariy tushunchasi. Inssenirovka. Madaniy ommaviy tadbirlarda rejissura san’ati va aktyorlik mahorati.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Ma’ruzadan so‘ng rejalashtirilgan mavzular madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishni ijodiy va tashkiliy jarayonlarini qamrab oladi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda, shuningdek pedagog tomonidan taklif etilgan yo‘nalish bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriq yozma, savol-javob tarzida yoki amaliy ijro yoki boshqa shaklda bajarilishi mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlar auditoriyada tinglovchilarga mashqlar, treninglar, og‘zaki yoki yozma shaklda tashkil etilishi mumkin. On-layn shaklda tashkil etilgan darslarda ZOOM ilovasi orqali turli topshiriqlarni bajarish orqali bajariladi. Amaliy mashg‘ulotlardagi rejalashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo‘shimcha vositalar, shuningdek aniq bir mavzu bo‘yicha tinglovchilar ishtirokida ijodiy ish tayyorlash asnosida ham tashkil etilishi mumkin.

### **1-amaliy mashg‘ulot: Madaniy dam olish tadbirlarini tashkil etishning o‘ziga xosligi. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchilik qobiliyatining shakllantirish tamoyillari. (2 soat)**

Madaniy dam olish tadbirlarini tashkil etishning o‘ziga xosligi. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchilik qobiliyatining shakllantirish tamoyillari. Mazkur mavzu yuzasidan tadbirlarni tashkil etishning o‘ziga xosligi, manbalardan to‘g‘ri foydalanish. Ijodiy va tashkiliy ishlar uyg‘unligiga erishish. Professional jamoalardan o‘xshash va farq qiladigan jihatlarni aniqlash. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishga oid aniq mashqlar, treninglar o‘tkazish.

### **2- amaliy mashg‘ulot: Madaniy-ommaviy tadbirlar – insonlar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan faoliyat (2 soat)**

Madaniy-ommaviy tadbirlar – insonlar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan faoliyat. Tinglovchilarga madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish asoslari, bo‘sh vaqt tushunchasi haqida tushuntiriladi. Madaniy tadbirlar insonlarning ma’naviy, estetik ehtiyojlarini qondirishga, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan faoliyat ekanligi haqida so‘z boradi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishga qaratilgan tadbirlar ssenariysini yaratib, reja tuzadilar, repititsiyalarni tashkil etadilar. Mamlakatimiz taraqqiyotida dolzarb muammolar yechimini topishda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish orqali erishish yo‘llari izlanadi.

**3-amaliy mashg‘ulot: Madaniy-ommaviy tadbirlar - tarbiya vositasi sifatida. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. (2 soat)**

Madaniy-ommaviy tadbirlar - tarbiya vositasi sifatida. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Avvaldan rejalashtirilgan holda pedagog tomonidan har bir tinglovchiga madaniy-ommaviy tadbirlar rejasi, dasturi va ssenariysi tuziladi va tahlil qilinadi. Tinglovchilar o‘zlari tanlagan yoki pedagog tomonidan berilgan mavzuga oid manbalardan foydalanishni o‘rganadilar. Berilgan mavzu bo‘yicha taqdimotlar tayyorlaydilar. Guruhli ijodiy ishlarni ham tashkil etish mumkin.

**4-amaliy mashg‘ulot: Tadbirlarda sahna ko‘rinishlarini tayyorlash usullari. Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni. Maydonlarda tadbirlarni o‘tkazish metodikasi (2 soat).**

Tadbirlarda sahna ko‘rinishlarini tayyorlash usullari. Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni. Maydonlarda tadbirlarni o‘tkazish metodikasi. Tinglovchilar pedagog tomonidan berilgan mavzular bo‘yicha sahna ko‘rinishini tayyorlashda ishtirok etadilar. Ssenariy yaratish bo‘yicha barcha jarayonlar, ya’ni manbalarni to‘plash, badiylashtirish, badiiy bezash, taklifnoma va dasturlar tayyorlash va h.k), inssenirovka qilish usullari o‘rganiladi. Tayyor bo‘lgan materialni sahnaga ko‘chirish usullari (rejissurasi) ustida ish olib boriladi. Tinglovchilar maydon tomoshalarining o‘ziga xosligi, dramaturgiyasi, kompozitsion tuzilishi haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar, tashkillashtirish qonuniyatlarini o‘rganadilar.

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-ko‘chma mashg‘ulot: Madaniy-ommaviy tadbirlar – insonlar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan faoliyat.**

Madaniy-ommaviy tadbirlar – insonlar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan faoliyat. Madaniy-ommaviy tadbirlar - tarbiya vositasi sifatida. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Toshkent teatrlari, madaniyat markazlari hamda oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Bunda tinglovchilar tashrif buyurgan muassasa, u yerlarda mavjud havaskorlik jamoalari faoliyati bilan tanishadilar,

o‘tkazilgan tadbirlar tahlil qilinadi, hamkorlikda ijodiy jarayonlarda ishtirok etadilar.

**2-ko‘chma mashg‘ulot: Madaniy-ommaviy tadbirlar - tarbiya vositasi sifatida. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar.**

Madaniy-ommaviy tadbirlar - tarbiya vositasi sifatida. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar. Toshkent teatrlari, madaniyat markazlari hamda oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Bunda tinglovchilar tashrif buyurgan muassasa, u yerlarda mavjud havaskorlik jamoalari faoliyati bilan tanishadilar, o‘tkazilgan tadbirlar tahlil qilinadi, hamkorlikda ijodiy jarayonlarda ishtirok etadilar.

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko‘chma mashg‘ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

**Aqliy hujum (breynstorming – miyalar bo‘roni)** – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Metodning maqsadi: aqliy hujum vaqtida tinglovchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta‘minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlariga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.

**Namuna:** Guruhga muammoli vaziyat beriladi, misol uchun orkestrni tashkil etuvchi kollektivdagi psixologik vaziyat yomonlashib, konflikt chiqadigan darajaga yetib kelgan. Muammoni hal qilish bo‘yicha jamoali aqliy hujum, iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishi tashkillashtiriladi.

Bu fikrlar tanqid qilinmasdan, ular orasidan eng samaralisi, maqbuli, ya‘ni vaziyatni normallashtirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“FSMU” metodi**

F	• Fikringizni bayon eting
S	• Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	• Ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• Fikringizni umumlashtiring

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

## BLITS O'YIN METODI

**Metodning maqsadi: tinglovchilarda** tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yoki biror bir kartina yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonitirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib

chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.



### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-MAVZU

#### **Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati (2 soat).**

#### REJA

1.1. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati.

1.2. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tasnifi.

1.3. Respublikamizda o'tkazilayotgan madaniy- ma'rifiy tadbirlar tahlili.

**Tayanch iboralari va so'zlar:** Madaniyat, san'at, madaniy tadbirlar, ijtimoiy – iqtisodiy islohatlar, madaniyat markazlari, ommaviy tomosholar, bayramlar, teatr va kino san'ati, rejissyorlik, aktyorlik faoliyatlari, ssenariye, reja.

#### ***1.1. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati.***

Mamlakatimizda insonlarning ma'naviy kamoloti masalalariga davlat darajasida e'tibor qaratilishi – jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sifatida namoyon bo'lganligida o'z aksini topmoqda. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdan boshlaboq, olib borilayotgan barcha iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning asosida ham ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy va tarbiyaviy ishlarning hamohangligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, madaniyat va san'atga aloqador bo'lgan sohalarda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, komil inson kabi tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san'at sohasi vakillari zimmasiga katta ma'suliyat yuklanadi. Aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy bilimlarini oshirish, ularni pok va halol yashashga chaqirish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'zi yashab turgan zamin uchun fidoyi bo'lish kabi xususiyatlarni shakllantirishda madaniy tadbirlar tashkilotchilariga alohida bilim, ko'nikma, mahorat va mehnat talab qilinadi.

Madaniy tadbirlarni murakkab ijtimoiy voqelik sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy voqelik sifatida madaniy tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi. Shaxsga individual ta'sir qilish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiylashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni

tashkil etish va bu orqali yoshlarni tarbiyalash –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlatimiz siyosatida ham ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga alohida o‘rin ajratilganligi quvonchli holdir.

Davlatimiz rahbari qaysi viloyat, tuman va shaharlarga borishlaridan qat’i nazar, birinchi galda albatta madaniyat va san’at muassasalariga tashrifini kuzatish mumkin.

Inson tarbiyasida, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularga ma’naviy bilim berish, axborotlar doirasi, dunyoqarashlarini kengaytirish, ma’naviy va estetik ehtiyojlarini qondirishda madaniy tadbirlarni tashkil etishga ehtiyoj seziladi. Buning uchun madaniyat va san’at sohasi xodimlari, tadbir tashkilotchilaridan tadbirlarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini puxta bilishi talab etiladi.

Mazkur fan tinglovchilarga madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rgatish bilan bir qatorda, ularga har xil mavzudagi tadbirlar uchun ssenariy yoza olish, sahnalashtirish qonuniyatlarini va tadbirlarni maqsadli tashkil eta olish qobiliyatini shakllantirib, ijod sari yo‘llaydi. Buning uchun tinglovchilarda tadbirlar dramaturgiyasini yaratish tamoyillarini o‘rganish, ya’ni ssenariy yozish, uni sahnalashtirishni bilishi, rejissura sohasini o‘zlashtirishni asosiy maqsad qilib qo‘ymoq maqsadga muvofiqdir. Chunki, madaniy-ommaviy tadbirlarda shaxs o‘z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o‘stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Undan tashqari, madaniy tadbirlar milliy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar asosida vujudga kelgan bo‘lib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli bo‘lishiga da’vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg‘otadi, xalqlarning madaniyatlarini o‘zaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qat’iy nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxsning ma’naviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi.

“Insonlar ongida ma’naviy-ma’rifiy, ahloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalarini kengaytirish, jamiyatning faol a’zosiga aylanish, Vatanni sevish, tinchlik, mustaqillikning qadriga yetish kabi qadriyatlar - madaniy – ommaviy tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, “ma’naviyatni yuksaltirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri. Kelajak poydevori bo‘lmish yoshlar qalbi va ongiga boy ma’naviy merosni singdirish asosida barkamol avlodni shakllantirish esa undan ham dolzarbroqdir”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish. Toshkent,2016, 49b

Chunki Vatanimiz kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish, avvalo yoshlarimizga, ularning har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishga bog‘liqdir”.<sup>2</sup> Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, komil inson tarbiyasidagi ma‘naviy-ma‘rifiy, ahloqiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga erishishda mazkur modul katta yordam berishi mumkin.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha tashkilotlarda u yoki bu shakllarda madaniy-ommaviy tadbirlar o‘tkaziladi. Madaniy-ommaviy tadbirlar faqatgina madaniyat va san‘at maskanlarida emas, balki bir necha yillardan buyon faoliyat ko‘rsatayotgan moddiy yoki nomoddiy ishlab chiqarishda, turli korxonalar, zavod va fabrika, mahallalar, bir so‘z bilan aytganda, insonlar mehnat qilayotgan turli tashkilotlarda ham tashkil etiladi. Tadbirning qanday tashkil etganligi darajasidan qat‘i nazar, bunda insonlar uyushqoqlik bilan birlashadilar, hamfikir bo‘ladilar, turli san‘at namunalaridan bahramand bo‘ladilar, bir-birlarini hurmat qilib, qadrlaydilar, dam oladilar. Tadbirda ishtirok etganlar esa ertangi kuniga, kelajakka ishonadilar, muvaffaqiyatlar sari intiladilar.

Davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan madaniyat, san‘at, ta‘lim, tarbiya masalalariga oid qaror, farmon va boshqa xujjatlarni targ‘ib qilish, mazmun-mohiyatini anglash, jamoani e‘tiboriga havola etish, ularning ongiga ta‘sir qilishda ko‘proq madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazishga ehtiyoj seziladi. Ba‘zi insonlarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan, hukumatimiz xalqimizning yaxshi yashashlari, davlatdan rozi bo‘lishlari, ularning farovonligi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berayotganligidan bexabar ekanligi yoki noshukurligi, har bir shu yurtda yashayotgan fuqarolarning yurtimiz taraqqiyotiga hissasi borligi, tinchlikning qadriga yetish, jannatmakon yurtda yashab, ishlash, ijod qilish “rohat” ekanligini anglatish – targ‘ibot, tushuntirish ishlarini samarali olib borishni taqozo etadi. Bunday ishlarni albatta madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

### ***1.2. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tasnifi.***

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish –ushbu faoliyatni tez taraqqiy etishiga ta‘sir ko‘rstadi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda ma‘naviyatni yuksaltirishga katta e‘tibor berilishi bejiz emas. Chunki, iqtisodiy rivojlantirish, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni jahon siyosati

<sup>2</sup> To‘plam. “Ma‘naviyat –jamiyat taraqqiyotining bosh mezon”. T., 2011, 342-bet.

sahnasiga olib chiqish kabi vazifalarni ma'naviyatni yuksaltirmay turib amalga oshirish mumkin emas. Zero, barkamol avlodni tarbiyasi ham bunday ulug' maqsadlarga erishishning asosi hisoblanadi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat'iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish barcha pedagoglar va madaniy-ma'rifiy ishlar mutassadilarining asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan ham barkamol avlod tarbiyasida madaniy tadbirlarning tashkil etishni maqbul usullaridan foydalanish, madaniy tadbirlarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalar va usullarni mahorat bilan qo'llay olish, insonlar ongiga ta'sir qilish, bir so'z bilan aytganda, komil inson tarbiyasiga qaratilgan barcha jarayonlardan maksimal foydalanish – ushbu fanning mazmunini belgilaydi. Tadbirlarni tashkil etish, uning dramatik asosi bo'lmish ssenariysini yaratish, sahnalashtirish, tomoshabinga tatbiq etish va tarbiyaviy asoslarga yo'naltirish, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalarni qo'llay olish, odob, ahloq, jamiyat taraqqiyoti masalalariga ongli yondoshish, ularni bilimli, ilmi qilish, ma'naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar- madaniy-ommaviy tadbirlarni mahorat bilan tashkil etilishiga asos bo'la oladi.

“Fuqarolarni ma'naviy kamol toptirish, kishilarning bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazish, ma'naviy boyitish, aholini madaniy, ma'rifiy, ijodiy, hordiqiy faoliyatlari uchun shart-sharoitlar, imkoniyat va qulayliklar yaratish, joylarda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish va rivojlantirish kabi maqsad va vazifalarni o'zida qamrab oladigan madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish masalalari”<sup>3</sup> mazkur fanni o'qitishda asosiy e'tibor qaratish lozim bo'lgan vazifalardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi”ning ustivor yo'nalishlarida ham aynan insonlarning manfaatlari uchun xizmat qilish, ularning ehtiyojlarini qondirish muhim strategik masala sifatida qaratilganligi bu sohalarda hali qilinishi lozim bo'lgan ishlarning ko'pligidan dalolat berib turibdi. Undan tashqari “Madaniyat va sport tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi” Qarorda ham aynan manashu sohalarda qilinishi lozim bo'lgan ishlar haqida so'z boradi.

Tadbirlarni tashkil etish asosan madaniyat markazlarida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, madaniyat markazlari aslida xalqni, mahallani bir-biriga jipslashtiruvchi maskan sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim. Aynan shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil

<sup>3</sup> V.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati”. Toshkent, 2017,6b

etish chora-tadbirlari to'g'risida" 178-son qarori - madaniyat va aholi dam olish markazlarini faoliyatini yanada yaxshilash, markazlarning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, joylarda maqsadli, tarbiyaga yo'naltirilgan madaniy tadbirlarni tashkil etishga qaratilganligi lozim edi. Ammo, bu xujjatlarda belgilangan vazifalar oxiriga yetkazilmaganligi bois, bu xujjat o'z kuchini yo'qotdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017 yil 31 maydagi PQ-3022 sonli Qarorida: "Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnika bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish imkonini bermayapti"<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, mazkur xujjatda qayd etilganidek, madaniyat va san'at muassasalarining faoliyatida o'ziga xos kamchiliklarni bartaraf etish – ushbu soha bo'yicha ilmiy izlanishlar, yangicha yondoshuv, amaliy tajribalar, ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, innovatsiyalar qilishni taqozo etadi. Mazkur xujjat "mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rnini va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona-yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida"<sup>5</sup> tayyorlangan bo'lib, madaniyat va san'at sohasi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida qayd etganimizdek, mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasiga oid 40 ga yaqin Qaror xujjatlari ishlab chiqilgan bo'lsa, ularning 30 dan ortig'i so'nggi ikki yilga to'g'ri keladi. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki,

---

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017 yil 31 maydagi PQ-3022 sonli Qaroridan.

<sup>5</sup>O'sha manba.

ushbu soha xodimlarining oldida hali juda keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish, soha bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ta‘lim-tarbiya, madaniyat, san‘at sohasining inson tafakkurini yaxshilik tomonga yo‘naltirishda hali oldinda qilinishi lozim bo‘lgan ishlarning ko‘pligidan dalolat beradi.

Mazkur modul orqali tinglovchilarning madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish, o‘tkazish, ularning bu soha bo‘yicha dunyoqarashlarini kengaytirish, sahnaviy didini o‘stirish, tafakkurini rivojlantirish, mustaqil ravishda tadbirlarni tashkil eta olish, sahnalashtirish qobiliyatiga ega bo‘lish, rejissyorlik qobiliyatini namoyon qilish, sahna qonuniyatlarini bilishni nazarda tutiladi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishning amaliy jihatlari, uning tarbiya vositasi sifatidagi vazifalari, bilimlarining mukammallashib borishida va uning keyingi kasbiy faoliyatida tutgan o‘rni - ushbu fanning naqadar muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Komil inson, barkamol avlod tarbiyasida madaniy-ommaviy tadbirlarning roli benihoyadir. Madaniy tadbirlar haqida umumiy tushunchalar, uni tashkil etish, sahnalashtirish ishlari, unga ijodiy yoki pedagogik nuqtai nazardan yondoshish, uning inson tarbiyasida tutgan roli va boshqa masalalar juda ko‘p tadqiqotchilarni o‘ziga tortgan. Ammo, bir narsani eslatib o‘tish joizki, sobiq ittifoq davrida yozilgan bir qancha manbalardan boshqa bu soha, ya‘ni madaniy tadbirlarga oid bo‘lgan o‘zbek tilidagi manbalar juda kam. Professor U.Qoraboyevning “Madaniy tadbirlar”, “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobida bu mavzularga oid ma‘lumotlarni topish mumkin. Madaniy tadbirlarning asl mohiyatini, tadbirlarning genezisi haqidagi ma‘lumotlarni B.Sayfullayev tomonidan yaratilgan “Tomosha san‘ati tarixi va nazariyasi (T., 2014), M.Umarovning “ Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi” (T.,“Yangi asr avlodi”,2009), tadbirlar dramaturgiyasi bo‘yicha H. Muhammadning “Ssenariynavislik asoslari” (T., Fan va texnologiya, 2008), sahnalashtirishga oid manbalarni esa B.Sayfullayev hamda J. Mamatqosimovlar hammuallifligida yaratilgan “Aktyorlik mahorati”(T. Fan va texnologiya, 2012) kabi qo‘llanmalardan topish mumkin. Undan tashqari, bu mavzularga oid B.Sayfullayev va V.Rustamovlar hammuallifligida yaratilgan “Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati”, V.Rustamovning “Ssenariynavislik mahorati” kabi manbalarda ham bu sohalar bo‘yicha yetarlicha manbalar berilgan.

Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarga tayangan holda talabalarda ijodiy va tashkilotchilik dunyoqarashini shakllantirish, boyitish, ularning tadbirlarni tashkil etish va g‘oyaviy yo‘naltirish bo‘yicha tafakkurini rivojlantirish, tadbirlarni tashkil etishni tarkibiy qismlari sohasi bo‘yicha bilimlar berib, tadbirlar dramaturgiyasini yaratish va sahnalashtirish mahoratini o‘rganishda uning mazmunini ochishga yordam berish mazkur modulning mazmunida o‘z aksini topadi.

Mamlakatimizda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 5 ta tashabbus, yangi qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan vazifalarni amaliy ijrosini ta’minlashda madaniy-ommaviy tadbirlarning ham roli benihoyadir.

Qolaversa, IX-XII asrlardagi buyuk Uyg‘onish - **birinchi Renessansning** yuzaga kelishi natijasida butun jahon ilm-fani taraqqiyotiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shgan, butun dunyo tan olgan alloma-bobokalonlarimiz, “Islom madaniyatining oltin asri” hisoblangan bu davrda butun dunyo islom olamining faxri va g‘ururiga aylangan ulomalarimizning meroslari, XV asrga kelib Buyuk Amir Temur bobmizning ilm-fan va madaniyatni qo‘llab quvvatlashi natijasida yuzaga kelgan ikkinchi uyg‘onish davri-**Ikkinchi Renessansning boshlanishi**, bu davrda ilm-fan va madaniyatning dunyo sahnasiga chiqqan buyuk tarixchi olimlar, shoirlar, musavvir, musiqashunos, sozanda kabi o‘nlab ijodkorlar faoliyati haqidagi ma’lumotlar ham muhimdir. Bugungi kunda buyuk ajdodlarimizning munosib avlodi bo‘lish, Uyg‘onish davri - **Uchinchi Renessans** poydevorini yaratilayotganligi, bunda shu zaminda yashayotgan barcha insonlarning qo‘shayotgan hissasi muhimdir.

Hozirgi kunda Respublikamizda mamalaktimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga xalqimiz e’tiboriga yetkazish, ularni shu faoliyatlarda faol ishtirok etishini ta’minlash, ayniqsa bu ishlarda yoshlarning faolligini oshirish, Prezidentimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi eng asosiy omillardan biri maktab ekanligi, o‘qituvchilarimizning jamiyatdagi mavqeini oshirish, yoshlarimizni ilm-fanga yo‘naltirish, unga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bir qancha vazifalarni belgilab berganliklari hamda Uyg‘onish davri-Uchinchi Renessansning poydevorini qurish umummilliy g‘oya darajasiga ko‘tarilishi haqidagi fikrlarini targ‘iboti aynan turli madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish asnosida o‘tkazilmoqda.

Bunga misol tariqasida madaniy-ma’rifiy tadbir doirasida Davlatimizda rivojlanib borayotgan iqtisodiy hududlar, sanoat korxonalari, madaniy turmush tarzi haqidagi videorolik hamda shoir E.Vohidov qalamiga mansub “Inson qasidasi” nomli she’rining o‘ndan ortiq davlatning el suygan san’atkorlari tomonidan o‘z milliy tilida kuylangan qo‘shig‘i namoyish etilishi ham mamlakatimizning nufuzini belgilaydi.

### ***1.3. Respublikamizda o‘tkazilayotgan madaniy- ma’rifiy tadbirlar tahlili.***

Madaniy-ma’rifiy faoliyat nazariyasini o‘zlashtirishda ularning mohiyati va ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rnini bilish muhim bo‘lganidek, madaniyat va



san'at sohasi faoliyatini rejalashtirishda sohaning ishlash tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini ilmiy asosda o'rganish ham katta ahamiyatga egadir.

Mustakillik respublikamiz madaniy-ma'rifiy muassasalari zimmasiga bo'sh vaqt sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyatning mohiyatini ifodalaydigan va uning yo'nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan eng umumiy qoidalarni – madaniy-ma'rifiy faoliyat tamoyillarini shakllantirish imkonini ham berdi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning o'ziga xos tamoyillari ularni tashkil qilishda yo'l-yo'riqlar ko'rsatadigan asosiy manba hisoblanib, ular quyidagilardan iboratdir:

- hayotiylik;
- ommaviylik;
- ixtiyoriylik;
- ilmiylik.

**Hayot bilan, mustaqil davlatimizni rivojlantirish amaliyoti bilan hamohanglik, buning uchun kishilar oldida turgan vazifalarning mohiyatini tushuntirish, ularni mustaqillikni mustahkamlash va kelajagi buyuk davlat yaratishdagi tarixiy rolini anglash ruhida tarbiyalash madaniy-ma'rifiy faoliyatning hayotiyligidan darak beradi.**

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning hayotiylik tamoyili aniqlik va maqsadga yo'naltirilganlik xususiyatlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu shuni anglatadiki, madaniyat muassasasidagi har bir tadbir muayyan xususiyatga ega bo'lishi va mustaqillik davri talablari bilan bog'lik holda aniq ifodalangan maqsadga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, u o'zining butun tabiati va mazmuni bilan har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni rag'batlantiradi, insonga o'z qobiliyati va talantini namoyon qilish, rivojlantirish uchun keng imkoniyat beradi, inson hayotiga rang-baranglik kiritadi. Tabiat bilan muloqotda bo'lishiga yordamlashadi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning ommaviylik tamoyili bir qator ijtimoiy jihatdan ahamiyatli vazifalarni bajaradi, ya'ni ommaning ijtimoiy-madaniy ijodiyotini hamda ijtimoiy faolligini rivojlantiradi, ommaviy muloqotda bo'lishni tashkil etadi va shular asosida jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Shaxsga ta'sir etish nuqtai nazaridan ommaviylik tamoyilining o'ziga xos jihati shundan iboratki, har bir kishi madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faqat tomoshabin yoki kuzatuvchi sifatida emas, balki ro'y berayotgan hodisalarning faol qatnashchisi, o'z qarashlarini isbot qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga ommaviylik tamoyili insonga ijtimoiy jihatdan o'z-o'zini namoyon qilish imkonini ham yaratadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar insonni ixtiyoriy asoslarda, unga doimiy hurmat va ishonch ruhida ijtimoiy-ijodiy faoliyatga tortadi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat hamma vaqt to'la ixtiyoriylik tamoyillari asosida quriladi. Agar mehnat jamoalarida insonning faoliyati ba'zan sof moddiy sabablarga ko'ra belgilansa,

madaniy-ma'rifiy faoliyatda, birinchi navbatda, faoliyatning mazmuniga qiziqish asosida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, madaniy-ma'rifiy muassasa jamoasi shaxsning ma'naviy-ijodiy qobiliyatini namoyon qilish va rivojlantirish uchun erkinlik beradi. Bu tamoyilning ahamiyati madaniy-ma'rifiy muassasaga qatnashning ixtiyoriyligi, u yoki bu madaniy-ma'rifiy uyushmalarda ishtirok etishni tan olish bilan cheklanib qolmaydi. Ixtiyoriylik madaniy-ma'rifiy muassasalar tomonidan taklif qilinadigan ko'plab faoliyat turlaridan birini erkin tanlab olish imkoniyatini aks ettiradi va shaxsning bo'sh vaqt sharoitida o'z ijtimoiy-madaniy faoliyatining mazmunini o'zi tomonidan belgilab olishini ifodalaydi.

Hozirgi zamon madaniy-ma'rifiy ishlari ko'lamining muttasil oshib borishi va murakkablashuvi undan turli sohalarning o'zaro aloqasini, ilmiy asosda markazlashgan, rejali boshqaruvni talab etadi. Ilmiylik tamoyili madaniy-ma'rifiy faoliyatning ko'zga ko'ringan tamoyillaridan biri hisoblanadi. U madaniy-ma'rifiy faoliyatda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, shakli va uslublarini qo'llashni, bir-biriga yaqin fanlar – pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik, estetika, iqtisodiyot va boshqaruv nazariyasining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi.

Ilmiylik tamoyili bir qator belgilarda namoyon bo'ladi. Ular orasida obyektivlik belgisiga birinchi o'rinni ajratish mumkin. Madaniy-ma'rifiy ishlar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi kerak bo'lgan obyektning haqiqiy holati va bunday ta'sir ko'rsatishning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda, umuman jamiyat va alohida shaxs rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini bilib olish va ulardan oqilona foydalanish asosida qurilishi lozim va shunday bo'lishi kerak.

Ilmiylik voqealar, faktlar va ularning mohiyatini ochishni, ijtimoiy hayotning real manzarasini va uning rivojlanish jarayonlarini, ijtimoiy taraqqiyotning borishini belgilab beradigan kuchlarni aniqlash imkonini beradi. Voqelikni qabul qilishning tasodifiy ta'sirlarining oldini olish va bizni o'rab turgan dunyo xaqida chinakam ilmiy tasavvurni paydo qilish madaniy-ma'rifiy faoliyatning muhim vazifasi hisoblanib, ilmiylik tamoyili shaxs dunyoqarashini shakllanishini kuchaytirishga katta hissa qo'shadi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning tamoyillari bir-biridan alohida holda mavjud bulmaydi, ular yaxlit tizimni tashkil etadi va ularning har biri bo'sh vaqt sharoitida ommaning ijtimoiy-madaniy faoliyatida yagona jarayonning ajralmas qismini ifodalaydi. Madaniy-ma'rifiy faoliyatning tamoyillari ijtimoiy-madaniy faoliyatning mavjud qonuniyatlarini aks ettiradi va barchasi birgalikda madaniy-ma'rifiy ishlarning xarakteri, mazmuni va shakllarini belgilaydi. Bu tamoyillardan birining bo'lmasligi umumiy bir butunlikni, ya'ni rejalashtirishning buzulishiga olib keladi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat aholining dam olishini tashkil qilish, ommaga axborot va bilim berish, ommani havaskorlik ijodiyotiga jalb qilish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Demak, madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlashda madaniy-ma'rifiy faoliyatning o'ziga xos tashkiliy xususiyatlariga murojaat etish muhim o'rin tutadi. Chunki har xil madaniy-ma'rifiy faoliyat shaklini tashkil qilishda bu vazifalardan birdek foydalanilmaydi. Ba'zi shakllarda ko'prok axborot beriladi, ba'zilari, asosan, dam olish uchun xizmat qiladi, boshqalari ko'proq madaniy-ijodiy jarayonga qatnashtirishga yordam beradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatini bilish shu sohaga oid bilimlarni konkretlashtiradi, ularni egallashga aniqlik kiritadi tadbirlar mohiyati va xususiyatini to'larok yoritib berishga yordam beradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatdagi tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri u bir marta tashkil qilinib, asosan, bir marta namoyish qilinadi. Agar spektakllar, kinofilmlar tayyorlanganidan so'ng yuzlab marta namoyish qilinsa, madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tadbirlar, asosan, takroran qo'yilmaydi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat tadbirlarining deyarli hammasi xuddi shu xususiyatga ega. Faqat badiiy targ'ibot-tashviqot jamoalari, ba'zi mavzuli konsert dasturlari bir marta tayyorlanib, har xil joylarda bir necha marta namoyish etilishi mumkin. Ular ma'lum vaqt mobaynida (masalan, ma'lum mavsumda, ish jarayonida, ya'ni paxta, g'alla yig'im-terimida) bir necha marta namoyish qilinishi mumkin. Lekin ma'lum muddatdan so'ng, albatta boshqa yangi dastur tuzishga tayyorgarlik ko'riladi.

Agar teatrda qo'yilgan pyesani yana bir necha yildan keyin qaytadan sahnalashtirish mumkin bo'lsa, madaniy-ma'rifiy muassasa tadbirlarida bu holat takrorlanmaydi. Biror tadbir ssenariysi sxemasini ikkinchisiga qo'llash mumkin emas. Har qanday yangi ssenariy yangi tuzilishni, yangi mehnatni talab qiladi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning yana bir xususiyati ular, asosan, mahalliy aholi uchun, ularning real hayotidan olingan materiallar asosida tuziladi. Tadbirlarning bosh qahramoni sifatida muayyan joyda mehnat qilib, mahalliy aholi orasida namuna bo'layotgan kishilar namoyon bo'ladi. Masalan, «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan bayramni olaylik. Bunda mahalliy joyda yashaydigan urush qatnashchilari, mehnat faxriylarining ko'rsatgan jasoratlariga asosiy urg'u berilishi kerak. Urush qahramonlarining o'z so'zlarini eshitish tadbirini jonlantiradi va ta'sirchanligini oshiradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning navbatdagi xususiyati shundan iboratki, ularda juda keng ko'lamda ta'sirchan vositalar birlashtiriladi. Tadbirlar real hayotning o'zini tashkil qilishi bilan birga, undagi muhim voqealarni o'z mazmuniga singdiradi. Ularning mohiyatini ochish va ahamiyatini yoritish uchun ta'sirchan vositalarga murojaat qilinadi. Tadbirda mazmun ma'lum bir kompazitsion tuzilish holatiga kelishi uchun undagi barcha bayon qilish va ta'sirchan vositalar ham bir-birlari bilan birlashtiriladi, uyg'unlashtiriladi. Aks holda tadbirning mazmuni puch, shakli esa samarasiz bo'lib qolishi mumkin.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda uyushtiriladigan tadbirlarni ommaviy deb atashning boisi shundaki, u omma uchun uyushtiriladi va ommaning ishtirokida o'tadi. Agar teatr, kino xamda televizorda asar qatnashchilari va tomoshabinlar o'rtasida ko'rinmas «devor» mavjud bo'lib, omma faqat tomoshabin rolini bajaradigan bo'lsa, madaniy-ma'rifiy muassasa tadbirlarida esa ommaning aktiv ishtiroki ko'zda tutiladi. Albatta, tadbirlarda hammani birday faol qatnashtirish qiyin. Uning asosiy qatnashchilari oldindan belgilab qo'yilgan badiiy havaskorlik jamoalarining a'zolari hamda so'zga chiqadigan kishilardir. Lekin tadbir tashkilotchisi bu asosiy qatnashchilar bilan kifoyalanib qolmasdan, balki ommani ham faollashtirish, tadbir ishtirokchisiga aylantirish yo'llaridan foydalanmog'i lozim. Buning uchun tadbir ishtirokchilari o'rtasida ommaviy o'yinlar, qo'shiqlar, savol-javoblar kabi maxsus tadbirlar uyushtirish maqsadga muvofiq. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, madaniyat va san'at sohasi faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishda sohaning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat topshiriilari**

1. Ta'lim va tarbiya jarayonida tadbirlar rolini ko'rsating.
2. Ijtimoiy – iqtisodiy islohatlarda madaniy tadbirlarning o'rni haqida so'zlab bering.
3. Marosim tadbirlari nima?

**2-MAVZU: Ilg‘or xorijiy davlatlarning turdosh oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshirilayotgan madaniy – ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotini ta‘lim tizimiga tadbiq etish (2 soat).**

**Reja**

2.1. Madaniy – ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy nazariyasi va xorijiy tajribalar.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining madaniyat konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Qarori, madaniyat, san‘at, ma‘naviyat sohalariga oid Qaror, farmon va boshqa meyoriy xujjatlari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Madaniy – ommaviy tadbirlar, ssenariy, xorijiy tajribalar, san‘at va madaniyat, zamonaviy nazariya, madaniyat markazlari, teatr va kino san‘ati.

***2.1. Madaniy- ommaviy tadbirlarning tashkil etishni xorijiy tajribalari.***

Madaniy tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha xorijiy tajribalar haqida so‘z borganda, O‘zbekistonda olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar davlat darajasida tashkil etilayotganligi haqida yuqorida qayd etib o‘tgan edik. Qiyoslash nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan va o‘tkazilayotgan tadbirlarning asosiy maqsadi, tarbiya, ma‘naviyat rivojiga, davlatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishga qaratilganligidir.

Ushbu mavzu doirasida manbalar tanlash, ma‘ruza tayyorlash jarayonida quyida nomlari keltirilgan manbalardan foydalanishda shu narsaga amin bo‘ldikki, juda ko‘p shu sohaga oid adabiyotlarda **xorijiy tajribalarini** o‘rganish masalalariga katta e‘tibor berilganligi e‘tiborimizni qaratdi.

Hattoki, alohida olingan mamlakatlarning madaniy sohalarini tahlil qilish bo‘yicha ham adabiyotlar mavjud ekan. Masalan, “Kanadskaya kultura v globalnom mire”(Kultura v sovremennom mire: opit, problemi, resheniya: Nauch.-inf. sb. Vip.5.-M.,2002), Dalla Bernardinaning “Otdix molodeji i provedeniye letnix prazdnikov v Velikobritanii, Fransii i Italii” (La nature sauvage et ses consommateurs: Le Game Fair // Ethnologie francaise. 2001) kabi adabiyotlar shular jumlasidandir.

Haqiqatdan ham juda ko‘p manbalarda rivojlangan davlatlarning tajribasini o‘rganish, ulardagi eng maqbul tomonlarini olish va amalda qo‘llash masalalariga juda katta e‘tibor berilganligi O‘zbekistondagi har bir sohani o‘qitishga jiddiy yondoshish kerakligini anglatmoqda.

Xorijda madaniy tadbirlarni tashkil etishda 2 ta asosiy tushuncha qo'llaniladi. Birinchisi, “*xordiq*” (dosug) va ikkinchisi “*rekreatsiya*” tushunchalaridir. Bunga uchinchi fikrni ham bog'lash mumkin, ya'ni daromad topish.

Ko'p holatlarda bu ikkita tushuncha bir xil ma'noda ishlatiladi. Aslida, xordiqiy jarayonlar ko'proq tijorat –ko'ngilochar maqsadlarga, umumiy ma'noda olib qaraladigan bo'lsa, “chet ellarda madaniy tadbirlarni asosan xordiqiy-rekreasion maqsadlarga qaratilganligi, “rekreatsiya” esa tijorat maqsadida emas, balki ijtimoiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi”<sup>6</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin:

Birinchidan, xorij tajribasini o'rganish uchun avvalo chet tilini o'rganish;

Ikkinchidan, shu soha bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lish va uni taqqoslay olish qobiliyatiga ega bo'lish;

Uchinchidan, yuksak salohiyatga, katta tajribaga ega bo'lgan, tan olingan davlatlarning maktablarni tanlay olish;

To'rtinchidan, xorij tajribasini zo'rma-zo'raki tiqishtirish emas, uning afzalliklarini isbotlagan holda, qo'llash uchun asoslash asnosida yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyovning 2020 yil 16 apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorida “nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda salmoqli ilmiy nashrlar e'lon qilish, «ustoz-shogird» an'analari asosida iqtidorli talabalar, magistrantlar, doktorantlar yoki yosh professor-o'qituvchilar bilan hammualliflikda yuqori impakt-faktorli xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish, professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish tizimini joriy etish kabi masalalarning ko'rib chiqilishi shu soha taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining sayi-harakatlari, tashabbuslari bilan yurtimiz hayotida misli ko'rilmagan darajadagi taraqqiyotning pog'onalarini ko'rib guvohi bo'lib turibmiz. Insonlarning tinch-hotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro'yini ko'tarish, Prezidentimizning ta'birlari bilan aytganda, “xalqni rozi qilish” yo'lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan beshta ustivor yo'nalishlari mazmunida ham shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma'naviy

<sup>6</sup> Е.Г.Доронкина. «Организация досуга за рубежом». Культурно-досуговая деятельность; Учебник / Под ред. А.Д. Жаркова и В.М.Чижикова. - М: МГУК, 1998. -С.430-454)

ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon turmush tarzini yaxshilash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro‘yini oshirish va boshqa masalalar turibdi.

Bunday ulug‘ ishlarni amalga oshirishda oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat muhim o‘rin tutadi.

Xo‘sh, shunday ekan, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat deganda nimani tushunamiz?

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat – bu insonlarning ma’naviy, ma’rifiy, ahloqiy qarashlariga oid tushunchalarni qamrab oladigan jarayonlardan hisoblanib, aniq reja asosida o‘tkaziladigan tadbirlar asnosida amalga oshiriladigan ishlar majmuasidir.

Xorij mamlakatlarida amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasini qiyoslaydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga juda katta strategik masala sifatida qaralib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning deyarli ko‘pchiligi Respublikamizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning orzu-istaklariga monand ta’lim tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to‘g‘ri hal etishga qaratilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Barkamol avlod, komil inson, yosh avlod tarbiyasi kabi vazifalar aynan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etish orqali amalga oshiriladigan jarayonlardir. Bu jarayonlarning barchasining markazida “INSON”ning turishi, bu faoliyatni yanada faollashtirish, jadallashtirish va e’tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida bu faoliyatning muhimligini unutmasligimiz lozim. Zero, yurtboshimiz aytib o‘tganlaridek, “barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish”<sup>7</sup> kabi masalalar ma’naviy-ma’rifiy soha xodimlari oldidagi katta ma’suliyat yuklaydi. Xorij, ayniqsa G‘arbda bu faoliyatga ko‘ngil ochish, bo‘sh vaqtlardan unumli foydalanish, katta daromadga ega bo‘lish, kabi maqsadlarni oldiga qo‘ygan holatlarda namoyon bo‘ladi.

Yosh avlodni tarbiyalash, ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish, jamiyatning faol a’zosiga aylantirish barcha ta’lim muassasalari xodimlari, professor-o‘qituvchilarining, tarbiyachilarning zimmasiga yuklatilgan. Oliy ta’lim tizimida talaba yoshlar o‘rtasida olib boriladigan foydalanish, ularni qiziqtirgan muammo, takliflar, loyihalar ustida ishlashlarida to‘g‘ri yo‘llanmalar berish muhimdir.

Ma’naviyat bevosita ma’rifat tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki, bilish orqali juda ko‘p muammolarni bartaraf qilish mumkin. Manbalarda “marifat” tushunchasi bilish, bilim, ma’lumot, tanish, tanishish manolarini bildiradi, deb

<sup>7</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14.08.2018 yildagi PQ-3907-sonli Qaroridan

berilgan. Darhaqiqat, uning manosi bilimdir. Atama sifatida esa u ta'biat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifat degani bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, degani bo'lib, insonparvarlik ma'naviyati zaminidagina o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Kishilarning bilimini, madaniyati oshirishga qaratilgan ta'lim –tarbiyaga ham ma'rifat deb ham qaraladi. Bu so'z ilm-u urfon ma'nolarida ham ishlatiladi.

Ma'rifat tushunchasi kengroq ma'noda qo'llanilib, bilim va ma'naviyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o'zida mujassam qilgan.

Bu ikki sermazmun tushunchalarning birga qo'llanishi esa bu ta'lim-tarbiya masalalarining barcha jihatlarini, odob, ahloq, tarbiya, o'qish, bilim olish, o'rganish, mutolaa qilish, ilmi bo'lish, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lish va h.k. kabi qarashlar, fikrlarni o'zida qamrab oladi.

Shu bois ham, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatorida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ham alohida o'rin berilgan. Nafaqat ta'lim muassasalarida, balki, mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha tashkilot va muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mutassadilar o'z faoliyatlarini bajarib kelmoqdalar.

Xorij tajribalarining afzal tomonlarini hayotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Davlatimiz rahbarining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli qarorida “yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish”<sup>8</sup> masalalariga alohida e'tibor berib, bu boradi qilishimiz lozim bo'lgan ishlar haqida yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar berib o'tdilar.

Mazkur xujjatning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 14.08.2018 yildagit PQ-3907-sonli Qarori ham aynan ushbu faoliyatni taraqqiy ettirishga katta turtki bo'ldi. Mazkur Qarorda ushbu faoliyatni sifat bosqichiga ko'tarish borasida juda keng tahliliy ma'lumotlar, topshiriq va vazifalar belgilangan. Bunda yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, “Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya

<sup>8</sup> “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli qaroridan.



va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish<sup>9</sup>, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeini oshirish kabi muhim masalalar ko'rib chiqilgan bo'lib, uni amalga oshirish mexanizmlari ko'rsatib berilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni shunday tashkil etish kerakki, talabalar o'zlari qiziqib, o'zlarining tashabbuslari bilan, hohlab tadbirlarga kirsinlar. Talabalarning tadbirlarga qatnashishni hohlamasliklarini quyidagi sabablarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Berilayotgan ma'lumotlarning yangi emasligi;
2. Aksariyat tadbirlar mazmuni, undagi ishtirokchilarini bir xilliklari;
3. Tadbirlar ssenariysining mukammal emasligi;
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilarida badiiy did, sahna madaniyati hamda sahna qonun-qoidalarini bilmasliklari, tashkilotchilik qobiliyatining yo'qligi;
5. Tadbirda tashkiliy va ijodiy ishlar uyg'unligi yo'qligi;
6. Qiziqarli mavzular tanlanmaganliklari;
7. Ma'ruzachining (agar davra suhbat bo'lsa) auditoriyani boshqara olmasligi;
8. Tadbirlarga kerakli kontingentlarni jalb qilinmaganliklari;
9. Tadbir o'tadigan paytni (vaqtni) noto'g'ri belgilaganliklari va shunga o'xshash bir qancha muammolar mavjudligi ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz samaradorligiga erishishga halaqit beradi.

Rejalashtirilgan va o'tkazilishi kerak bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy vazifasi – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash hisoblanadi. Zotan, xalqlarning o'ziga hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda talaba o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

<sup>9</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14.08.2018 yildagi PQ-3907-sonli Qaroridan

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, masalan, Rossiya Federatsiyasida amalga oshiriladigan juda ko'p ma'naviy-ma'rifiy (madaniy) tadbirlar reaktiv xarakterga ega, ya'ni charchoqni chiqarishga qaratilgan. Shu bois ham madaniyat va san'at institutlarida "madaniy-hordiqiy faoliyat", ya'ni (dosugovaya deyatelnost" tushunchasi ko'proq ishlatiladi. Shu bois bo'lsa kerak, RF juda ko'p manbalarda ma'naviy-ma'rifiy emas, aynan madaniy-hordiqiy faoliyat (kulturno-dosugovoye deyatelnost) deb berilgan. Madaniy hordiq – bu - insonlarning intellektual va ma'naviy darajasini oshirishga qaratilgan faoliyat, sayohatga chiqish, dam olish, muzey yoki teatr borish, bo'sh vaqtda dam olish, bog'da sayr etish, konsert yoki film tomosha qilish, restoranlarda, ko'ngil ochar bazmlarda qatnashish va boshqalarni tushunish mumkin.

Madaniy hordiq – insonlarning madaniy, ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir, desak xato qilmagan bo'lamiz. Odamning o'ziga yoqqan ishni qilishi, o'ziga ma'qul bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishi va o'zi hohlagan dam olishi ham hordiqiy ehtiyojlarini qondirish tushunchasi bilan hamohangdir. Madaniy dam olish insonning bo'sh vaqtdan oqilona foydalangan holda keng dunyoqarashga ega bo'lishda ma'naviy - estetik jihatdan kamol topishida, jismoniy sog'lom bo'lishida muhim omillardan hisoblanadi.

Juda ko'p hollarda, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat haqida so'z borganda, uni juda tor ma'noda qo'llab kelinadi. Madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog'larida yoki biron-bir tashkilotda o'tkazilgan tadbirlarni xronologik ma'lumot sifatida juda ko'p marotaba eshitamiz. Aniq fanlar, masalan, matematika, fizika yoki texnikaga oid bilimlar aniq hisob-kitob, raqamlar yoki ishlab chiqarilgan buyum (predmet)lar bilan belgilanadi. Ammo, ma'naviy-ma'rifiy soha insonlarning "yuragi, qalbi, ongi" bilan ishlaydigan sohadir, desak hato qilmagan bo'lamiz. Shu jihatdan olib qaraladigan bo'lsak, hukumatimiz talablaridan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga tor emas, keng ma'noda qarash maqsadga muvofiqdir. Bitta tadbirni o'tkazgan bilan inson o'zgarib yoki tarbiyalanib qolmaydi. Buning uchun tizimli ishlarni amalga oshirish zarur.

Davlatimiz rahbarining mazkur yilning 14 avgust kuni imzolagan "Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №3907-sonli Qarori aynan ushbu masalalarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan muhim xujjatlardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur xujjatda ushbu sohadagi kamchiliklar ro'yi-rost ko'rsatilib, unda yoshlarda yot g'oya va salbiy qarashlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayotganligi, davlat organlari va jamoat tashkilotlarining bu jarayonlardagi funksiyalarini sust darajada bajarilayotganliklari, joylarda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga qaratilgan shart-

sharoitlarning hanuzgacha yaratilmaganliklari, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeini pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasining pastligi va boshqa muammolar haqida batafsil to'xtalib, uning yechimlari haqida aniq vazifalar belgilab berilganligi ushbu soha rivojiga turtki bo'lishi tabiiy.

Sho'rolar davrida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlar (u davrlarda madaniy-oqartuv ishlari deyilgan) degan tushuncha qo'llanilgan. Ammo bu tushunchalar mazmunan boshqa maqsadlar uchun xizmat qilganligi hammamizga ayon. O'rta Osiyoning moddiy va madaniy boyliklari o'sha davrlardagi SHO'rolarning asl maqsadi bo'lib, o'zbek xalqini savodsiz qilib, ulardan faqat mehnatidan (ishchi, malay sifatida) foydalanishni maqsad qilishganligi manbalardan ayon. Bilimli, ma'rifatparvar, olimlarimizni esa birin-ketin qatag'on qilib, jamiyatni "tozalashgan". Bunday tozalanishlar o'zbek xalqiga juda qimmatga tushgan. Bunda aynan ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz ham kimlarning mafkurasiga xizmat qilganligi, kimlarni ulug'laganligida namoyon bo'lganligini aytib o'tish oson emas. Totalitar tuzum sharoitida inson ma'naviyati, ruhiy olami, milliy-axloqiy qadriyatlar to'g'risida fikr yuritish mutlaqo mumkin emas edi. Mustaqillikdan keyin biz barcha milliylikimizga xos bo'lgan qadriyatlarni tiklash barobarida milliy ma'naviyatimiz, milliy o'zligimizni ham qayta tiklashga erishdik. Shunday bo'lsa-da, istiqlolning ilk yillarida iqtisod parokanda bo'lgan, xalqning turmushi benihoya og'irlashgan bir paytda insonlarning ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy, informatsion xurujlarni o'z maqsadlarini amalga oshirishga kirishdi. Turli tarafdin yot oqimlarning xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongiga va dunyoqarashiga tajovuz qilish holatlari ro'y berdi. Bu, o'z-o'zidan ma'lumki, yurtimizning tinchligi va osoyishtaligiga putur yetishiga, qanchadan-qancha begunoh insonlarning hayoti izdan chiqishiga olib keldi.

Mustaqillik sharofati bilan bunday noma'qulchiliklarga barham berildi. Ma'naviyat va ma'rifat tushunchasi hayotimizga birlamchi masalalardan biri sifatida namoyon bo'la boshladi. Bugun istiqloлга erishganimizdan buyon chorak asr ichida barcha ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalar qatorida ma'naviy sohada ham ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, Prezidentimiz SH. Mirziyoyev tomonidan ma'naviyatga yuksak e'tibor qaratilayotganligi, qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar ma'naviyatni, kasb ma'naviyatini birinchi o'ringa qo'yilayotganligi e'tiborga molik.

O'zbekistonda ta'lim sohasi taraqqiyotida ham xorij tajribasidan unumli foydalanib kelayotganligi hech kimga sir emas. Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga

erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbqiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan. Maalan, V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi. Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

Xorijiy mamalakatlarining ta'lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarini shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metod va strategiyalar qo'llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talabalarni o'quv materiallari yuzasidan chuqur o'ylashga majbur qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, bugun jamiyatimizdagi biror bir sohani ma'naviyat va ma'rifatdan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, jamiyat taraqqiyoti va uning istiqbolini faqat qalbi go'zal, ruhan pok va ma'naviyati yetuk insonlarga buniyod etishga qodir bo'ladi.

## ***2.2. O'zbekiston Respublikasi hukumatining madaniyat konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori, madaniyat, san'at, ma'naviyat sohalariga oid Qaror, farmon va boshqa meyoriy xujjatlari.***

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli buniyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Bunday ezgu jarayonni madaniyat va san'at rivojiga, ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rish mumkin. So'nggi ikki yilda mazkur sohaga taalluqli 20ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular ijrosi yuzasidan say-harakatlar olib borilyapti. Prezidentimizning joriy yil 28 noyabrdagi

“O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ushbu jabhadagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

Konsepsiya besh bobdan iborat. Unda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagi muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san’at muassasalari moddiy-texnik imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to‘liq tatbiq etish, xalqaro festival va ko‘rik-tanlovlarda chinakam iste’dod egalari ishtirokini ta’minlash, sohaga doir xorijiy tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan.

Qaror asosida 2019-2020 yillar O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar dasturi, 2019-2022 yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta’mir lanadigan va to‘liq jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro‘yxati ham tasdiqlandi.

Albatta, bularning bari milliy madaniyatimizni yanada rivojlantirish Konsepsiyasi mamlakatimiz madaniy hayotida naqadar katta ahamiyat kasb etishini ifodalab turibdi. Zero, u sohada to‘planib qolgan jiddiy muammolarni bartaraf etishda ham dasturilamal bo‘ladi. Misol uchun, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan 1777 ta madaniyat uyi va klub muassasalari negizida 2013 yilda tashkil etilgan 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlariga aylantirildi. Bundan tashqari, Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturida Madaniyat vazirligi va “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati mutaxassisleri hamkorlikda tayyorlagan, madaniyat markazlari mavjud bo‘lmagan chekka va olis tog‘li hududlarda istiqomat qilayotgan aholiga madaniy xizmatlar ko‘rsatishga mo‘ljallangan, maxsus musiqiy va texnik uskunalar bilan jihozlangan ixtisoslashtirilgan “Avtoklub” transport vositasi 2019 yilda Navoiy va Andijon viloyatlariga davlat byudjeti hisobidan olib berilishi rejalashtirilgan. Kelgusida esa respublikamizning barcha hududi shunday avtoklublar bilan ta’minlanadi.

Madaniy xizmatning bunday zamonaviy usuli xalqimiz ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishda o‘z ijobiy natijasini berishi, shubhasiz. Chunki avtoklublar konsert-tomosha faoliyati bilan cheklanib qolmay, chekka hududlar

aholisiga kitoblar, gazeta-jurnallar yetkazish, taniqli yozuvchilar, shoirlar, teatr arboblari, siyosiy sharhlovchilar bilan muloqotlar, ijodiy kechalar tashkil etadi. Yana bir masala: shu paytgacha yurtimizda mavjud 894 ta sobiq madaniyat va aholi dam olish markazlarining 252 tasi naridan-beri ta'mirlanib, nomigagina faoliyat olib boryapti. Qolgan 642 tasida esa ta'mirlash ishlari deyarli to'xtab qolgandi. Musiqiy cholg'ular, ovoz kuchaytirish vositalari va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash masalalari ham achinarli holatda. Qarorda ana shu muhim va o'ta dolzarb masalalar yechimi ham o'z ifodasini topgan.

Konsepsiyaga binoan, 2019-2022 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 26 ta madaniyat markazi yangidan quriladi, 45 tasi rekonstruksiya qilinadi va 76 tasi kapital ta'mirlanadi. Shunday qilib, uch yil ichida 147 ta madaniyat markazi zarur vositalar bilan to'liq ta'minlangan o'z zamonaviy binosiga ega bo'ladi. Qolganlari ham bosqichma-bosqich yangilanadi, ta'mirlanadi va jihozlanadi. Shu bilan birga, qarorda Madaniyat vazirligi tomonidan an'anaviy ravishda "Xalq cholg'ulari ijrochilari", Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Milliy raqs ijrochilari" va Yunus Rajabiy nomidagi "Yosh maqom ijrochilari" respublika ko'rik-tanlovlarini o'tkazish, har yili 21-27 mart kunlari "Teatr tomoshalari haftaligi"ni aholi uchun bepul tashkil etish, YUNESKONing Butunjahon madaniy merosi obyektlari ro'yxatidan Buyuk Ipak yo'lining mamlakatimizdan o'tgan qismini "Ipak yo'li: Zarafshon daryosi vohasi" va "Ipak yo'li: Farg'ona – Sirdaryo havzasi" nomi hamda o'zbek xalqining ko'hna va betakror san'ati namunasi bo'lgan Xorazm "Lazgi"sini "Xorazm raqsi – Lazgi" nomi ostida YUNESKONing Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritish kabi qator vazifalar ham belgilab qo'yilgan.

Yurtimizda xalqimiz madaniyatini yuksaltirish, san'atni yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab, adog'iga yetib bo'lmaydi. Bularni dildan his qilib, teran idrok etishimiz joiz. Zotan, asrlarga tatigulik bunday ibratli ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Bizdan talab etiladigani esa milliy madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona mehnat qilishdir. Chunki milliy madaniyati yuksak xalq jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodini yanada rivojlantirishni ta'minlash, aholining keng qatlami o'rtasida ma'nan va axloqan komil inson bo'lishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga intilishini rag'batlantirish kabi ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan.

Xususan, Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi, “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi va “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi negizida Madaniyat vazirligi huzurida «O‘zbekkonsert» davlat muassasasi tashkil etildi.

Soha mutaxassislarining fikriga ko‘ra, mazkur farmon madaniyat va sport sohasida davlat siyosati amalga oshirilishini yangi sifat darajasiga ko‘tarish, jamiyatda yuqori ma‘naviy va axloqiy muhitni ta‘minlash, xalqimizning jismoniy va ijodiy faolligini oshirish, yosh avlodni ma‘nan yetuk inson qilib tarbiyalash, O‘zbekistonimizni san‘at va sport dunyosida yuksak natijalarga erishishga qodir iste‘dodli aholi yashaydigan va yuqori darajada rivojlangan madaniyatga ega mamlakat sifatida nufuzini mustahkamlash uchun katta imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida vujudga kelgan qiyinchiliklarga qaramasdan madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish, ushbu sohadagi strategik masalalarni hal etish, ayniqsa, boshqaruv tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va shu orqali mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ijodiy birlashmalarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ijodiy xodimlarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash, ularni rag‘batlantirish, uy-joy bilan ta‘minlash, ishtimoiy himoya qilishga qaratilgan farmon va qarorlar tez muddatlarda qabul qilinib, ijrosi ta‘minlanmoqda.

So‘ngi uch yil maboynida sohaga doir 30 ga yaqin farmon va qarorlar imzolanib, milliy madaniyatimiz tarixida olamshumul islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, “O‘zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi kabi qarorlar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini oshirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4730-sonli qarori qabul qilinganligi madaniyat va san'at sohasi uchun dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur muhim hujjatlar viloyat madaniyat boshqarmasi xodimlari hamda viloyatdagi barcha madaniyat va san'at sohasi vakillari, ijod ahli tomonidan juda katta taassurotlar bilan qarshi olindi. Ushbu xujjatlarda belgilangan vazifalar Madaniyat va san'at sohasining barcha yo'nalishlarini to'liq qamrab olgan.

Shuningdek 2020 – 2025 yillar davomida mamlakatimizning har bir tuman va shahrida O'lkashunoslik muzeylari tashkil qilinishi belgilandi.

Mazkur ezgu ishlardan asosiy maqsad xalqimiz ongi va qalbiga madaniyat va ma'naviyat kiritishdir. San'atni sevgan yuksak ma'naviyatli inson esa buyuk ishlarni qilishga qodirdir. Ushbu farmon ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

#### Nazorat topshiriqlari

1. Madaniy – ommaviy tadbirlarga oid ilg'or xorijiy tajribalarni ko'rsating.

2. Ma'naviy – milliy qadriyatlarni madaniy – ommaviy tadbirlar bilan uyg'unligi haqida gapiring.

3. Madaniy – ommaviy tadbirlarning zamonaviy nazariyasi va amaliyoti haqida so'zlang.

urno-poznavatelniye programmi dlya detey i podrostkov v parkax SSHA.

8. Richon S., Lombard M. Le luxe dans tous ses etats / Pref. de Godet. - M.-Paris: Economica, 1999. Kachestvo jizni, otdix i razvlecheniya v yevropeyskix stranax.



### **3- mavzu. Pedagogik aspekt tushunchasi. Tarbiyaviy tadbirlar. Tarbiyaviy jarayonlar (2 soat).**

#### **Reja:**

- 3.1. Pedagogik aspekt tushunchasi
- 3.2. Tadbirlar turlari, tarbiyaviy tadbirlar va tarbiyaviy jarayonlar.  
Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish jarayonlari
- 3.3. Ommaviy-madaniy tadbirlarda pedagogik tamoyillarning qo'llanishi.

#### **Tayanch so'z va iboralar**

Innovatsiya, tadbir tashkilotchilari, madaniy – ommaviy tadbirlar, pedagogik texnologiyalar, ta'lim – tarbiya, tarbiyaviy tadbirlar, tomoshabin, teatr, sahna ko'rinishi.

#### ***3.1. Pedagogik aspekt tushunchasi***

Har bir tadbir o'zining xususiyati jihatidan pedagogik asosga ega. Chunki pedagogika ham asosan tarbiyaviy jarayonlarni boshqaradi. Insonlarga ta'sir qilish, bola tarbiyasi, ibrat, ma'naviy ozuqa, bilimli – ilmi bo'lish, ustozlarga, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va boshqa barcha shu kabi tushunchalarni pedagogika sohasida yanada chuqur o'rganiladi. Madaniy tadbirlarda esa pedagogik mahoratni qo'llash katta samaralarga erishishga yo'l olchadi. Mashhur rejissyorlardan Nemirovich –Danchenko rejissyorni uchta fazilati, ya'ni, rejissyor – oyna, rejissyor- pedagog, rejissyor –tashkilotchi” ekanligi to'g'risida yozib o'tgan. Aynan manashu fazilatlarini madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonlarida qo'llash ham tadbirning salmog'ini oshirishga xizmat qiladi. Tadbir tashkilotchisining ta'lim bilan tarbiya uyg'unligiga erishishda uning pedagogik mahorati ham katta rol o'ynaydi. Rejissyorning pedagoglik faoliyati haqidagi uning aytgan fikrlaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, rejissyor –tushuntiruvchi, u boshqaruvchi hamda tashkilotchi hamdir. Madaniyat xodimi ham aynan shu fazilatlarini o'zida jo qilishi lozim.

Mazkur fan o'qitish doirasida shuni hisobga olish zarurki, teatrlarda professional aktyorlar, ijodkorlar faoliyat yuritsalar, joylarda o'tkazilgan tadbirlar samarasi xalq orasidan chiqqan iqtidorlarning mehnati natijasida ko'rinadi. Buning uchun to'garaklar ishini to'g'ri tashkil etish, san'atni sevadigan, iqtidorlarni qo'llash, rag'batlantirish, to'g'ri yo'llanma berish kabi ishlar madaniyat va sohasi vakillari zimmasiga katta ma'suliyat yuklabgina qo'ymasdan, uni amalga oshirish yo'lida katta mehnat qilishiga to'g'ri keladi. Tadbir tashkilotchisi tashkilotchilik,

boshqaruvdagi mahorati, ijodiy jarayonlardagi faolligi, pedagogik qobiliyati, muomala madaniyati bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

**Aspekt** (lot. aspectus – tur) – hodisa, tushuncha, istiqbol qarab chiqiladigan muayyan nuqtai nazar, ma’noni anglatadi. [A](#), [nuqtai nazar](#), [jih](#), [tomon](#); masalan, masalani turli aspektlarda (turli nuqtai nazarlardan, tomondan) qarab chiqish yoki boshqa aspektda; boshqa nuqtai nazardan (jihaddan, tomondan) qarash kabi mazmunlarda qo‘llaniladi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishning pedagogik aspektlari deganda tadbirni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari, tashkilotchining nuqtai nazari nazarda tutilishi mumkin.

Tadbir tashkilotchilarining pedagogik fazilatlariga ega bo‘lishi juda ko‘p masalalarni hal qila oladi. Chunki, birinchidan, to‘garakka kelgan har bir yigit-qiz shu yerda o‘zining o‘rnini sezishi kerak. Ikkinchidan, to‘garak rahbari o‘zining muomala madaniyati, bilimi bilan yangi kelgan ishtirokchining didiga mos kelishi kerak. Uchinchidan, madaniyat va san’at sohasi xodimi bilan ishtirokchi (to‘garak qatnashchisi) o‘rtasida yaxshi, jiddiy va do‘stona munosabat o‘rnatilishi kerak. To‘rtinchidan, to‘garakka kelgan ishtirokchi har gal kelganda yangi ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Beshinchisi, tadbir tashkilotchisi, to‘garak rahbari bu qatnashchilarni o‘tkaziladigan tadbirning faol ishtirokchilariga, tashkilotchilaridan biriga aylantirishga muvaffaq bo‘lishlariga erishish lozim.

Jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati, ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yangi qabul qilinayotgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ham aynan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishga katta e’tibor qaratilganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanishi tinglovchilarda an’anaviy usullardan farqli o‘laroq, bilim berishning yangicha yondoshuvini anglatadi. Pedagogik texnologiyalarni rivojlanishi va ularning o‘quv – tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi - talabada o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini ko‘chaytirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talabaning dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o‘quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon

pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars jarayonida qo'llanilishi, talabalarni fanlarga qiziqitirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishni hozirgi kun nuqtai nazardan olib qaraladigan bo'lsak, talablarni kuchaytirish, mavzu bo'yicha auditoriyada hamda mustaqil tayyorgarlik ko'rishga majbur qiladigan yo'llarni izlash har bir pedagogning oldida turgan muhim vazifalaridandir. An'anaviy shaklda o'tilgan mashg'ulotdan so'ng talaba oddiy o'qituvchi aytib bergan yoki yozdirgan mavzusi bo'yicha tayyorlanib keladi. Internetdan qo'shimcha manbalar, boshqa tadbirlar bilan taqqoslash, tahlil qilish kabi ishlarni bajarmaydi. Uning tayyorgarlik darajasi shu qog'ozda yozilgan bir-ikki betlik o'qituvchi "yozdirgan" mavzu qobig'ida qoladi. Bugungi kunda esa ta'lim tizimida -o'qish hamda o'qitishga talab juda jiddiy qo'yilganligi bilan ajralib turadi. Talaba-yoshlarning bilimliligi jamiyatning salohiyatini belgilashga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim borasida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, AKT, chet tillarini o'zlashtirish, meyoriy xujjatlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan ishlash (yoki o'qitish) butun dunyoda keng yoyilgan. Bu o'qitish uslubi talabani (o'qituvchini ham) izlanishga, darsni faollashtirishga, fikrlashga va tafakkurini oshirishga, tadbirlarni tashkil etish asoslarini yaxshi o'zlashtirish bo'yicha bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish, mavzu va vazifani chuqur o'zlashtirishga undaydi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga ko'chayib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Tadbirda qo'llanilayotgan har bir janr ma'lum bir g'oyani ilgari surib, insonlar ongiga ta'sir qilishi lozim. Bunda g'oyaviy talqin masalasiga jiddiy e'tibor berish kerak bo'ladi. Chunki, sahnaga chiqib aytilgan har bir so'z tomoshabinga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va natijada u xulosalar chiqara boshlaydi. Bunda tanlangan asar tarbiyaviy ahamiyati bilan tomoshabinni o'yantirishi kerak. Tomoshabin e'tiboriga havola etilayotgan voqelikdan u to'g'ri xulosalar chiqarishini ta'minlash – bu bizning zimmamizdagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Tomoshabinda "nima bo'пти" degan savolga o'rin qoldirmaslik kerak. G'oyaviy talqinga nisbatan to'g'ri yondoshish, qo'yilayotgan, sahnalashtirilayotgan asarning qimmatini oshiradi.

Har qanday sohada tarbiyaviy faoliyat, tarbiyaviy-jarayon sezilib turishi lozim. Chunki, tarbiyalangan har qanday jamoaning mehnatlari natijalari samarali bo'ladi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida tarbiya haqida shunday yozilgan:

“Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga karatilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chor-tadbirlar yigindisi. Tarbiya -insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki, odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak”.

Demak, bundan xulosa shuki, tarbiyaga faqatgina shaxsga qaratilgan, uning ma'naviy, ahloqiy, estetik jihatdan yetuklik darajasinigina emas, balki uni keng ma'noda ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi sifatida ham qaralishini taqozo etadi.

Tarbiya jarayoni –shaxsni shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o'zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi –har tomonlama va uyg'un kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdir.

### ***3.2. Tadbirlar turlari, tarbiyaviy tadbirlar va tarbiyaviy jarayonlar. Tarbiyaviy tarbirlarni tashkil etish jarayonlari***

O'zbekiston Respublikasi xuquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'-lagan, o'sib kelayotgan avlod va bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy shakllanishiga aloxida e'tibor qaratmoqda.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi ta'lim muassasalarining oldiga yangi

demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ydi. Tabiiyki, xozirgi ta‘lim isloxotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da: “Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intel-lektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta‘lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs- fuqaroni takomillashtirishini nazarda tutadi” deb ta‘kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Qonunlarida bayon qilingan ta‘lim tizimining isloxi, shuningdek, Respublika Prezidentining Oliy Majlis IX sessiyasidagi “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” nutqi barcha sohadagi tarbiyaviy faoliyatni tubdan o‘zgartirish, talabalar bilan o‘tkaziladigan tarbiyaviy ishlar uslubiyoti, shakl va mazmuniga pedagogik texnologiyalarni kiritish hamda talaba-yoshlarga izchil tarbiya berishning samarali yo‘llarini yaratishga qaratilgan.

Ta‘lim muassasalarining gurux murabbiylari odatda talabalar bilan o‘tkaziladigan tarbiyaviy soat, axborot soatlari, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar, ota-onalar yig‘ilishlarini tashkil etish va o‘tkazishda ancha qiyinchiliklarga duch keladilar, buning sabablari xilma-xildir.

Yuqorida sanab o‘tilgan ishlarni hamma vaqt bir xil tartibda, bir xil ko‘rinishda bo‘lishi yoki rang-baranglikni bo‘lmasligi, ularda ijodiylikning pastligi yoki o‘zlarida zarur tashkilotchilik qobiliyatlarining yetishmasligi, ish uslubiyotidan yetarlicha xabardor emasliklaridan dalolat berishi mumkin. Har xil tarbiyaviy ishning maqsadi kutiladigan natijani berishi, gurux murabbiylaridan juda katta pedagogik va aktyorlik maxoratini, tarbiyaviy ishlar uslubiyotini chuqur bilishlarini, o‘z ustlarida tinmay mehnat qilishlari va boy tajribaga ega bo‘lishlarini talab etadi.

Ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan tadbirlarga qo‘yiladigan o‘ziga xos talablar mavjud. Gurux murabbiylari tomonidan talabalarning darsdan bo‘sh vaqtlarini foydali, qiziqarli tashkil etishlari bo‘yicha faoliyatlarini kuzata turib, ular o‘tkazayotgan tarbiyaviy ishlar, tadbirlar, raqs kechalari, ommaviy raqslar, o‘yinlar imkoni va uning xilma-xilligi chegaralanganligini ko‘rish mumkin. Bunday tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish vaqtida ba‘zi talabalar ko‘pincha zerikib qoladilar va shu sababli, bekorchi bo‘lib qolib, tadbirlar davomida o‘zlari xoxlaganlaricha yuradilar. Bunday xolatlarda gurux murabbiylarining eskirgan tadbirlar, o‘yinlar va raqslardan foydalanishlari, ularning bajarishga qo‘yilgan talab va usullarni bilmasliklari, o‘z ustlarida doimiy ravishda ishlamaganliklari, o‘zlarining shu sohadagi bilim va malakalari yetarli emasligi, shu munosabat bilan ular tomonidan yangi qiziqarli, quvnoq o‘yinlarni, ijodiy harakatlarni izlamasliklari

hamda talabalarning qiziqishlarni hisobga olmasliklari sabab bo'lishi mumkin. Talabalarni darsdan bo'sh vaqtlarini tashkil etishga yo'naltirilgan tadbirlarni tayyorlash va o'tqazishga qo'yiladigan o'ziga yarasha umumiy talablar mavjud.

Har qanday tarbiyaviy tadbir tashkil qilishning asosiy tamoyillaridan biri – kattalarning raxbarligi va talabalarning ijodkorlik, xavaskorligining birligidir. Tarbiyachi va tashkilotchilarining tadbirda ishtiroki turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, Gurux murabbiysi tadbirda shaxsan ishtirok etmaydilar, o'zlari hech qanday rol ijro etmasalar-da, tadbirni tashkil etishadi va raxbarlik qiladilar; tadbirda qatnashmasalarda, tashabbus guruxi va tashkilotchilar orqali raxbarlik qiladilar yoki xay'at a'zosi sifatida ishtirok etadilar. Har bir tarbiyaviy tadbir boshlanishidan oldin, uning maqsadini, mazmunini aniqlab olish va mashg'ulot mazmunini aniqlab olish zarur va mashg'ulot maqsadinibarcha talabalar bilishi maqsadga muvofiq.

Tashkilotchi – raxbarning vazifasi- vazifalarni, rollarni to'g'ri taqsimlashi va uning taqsimlanishini va uning almashinuvini kuzatishdir. Vazifa va rollarni taqsimlashda talabalarning xususiyatini hisobga olish lozim. Qaysidir talabaga berilgan vazifa yoki rol o'z obro'sini mustaxkamlashga, o'zini ko'rsatishga yordam bersa, boshqasiga tengdoshlari bilan yaqinlashishga, do'stlashishga yordam beradi, yana boshqa talabalarni esa, uyushqoq bo'lishga o'rgatadi. Tadbir talabalardan aniq kuch va g'ayrat talab qiladi. Agar tadbirning borishiga, uning natijasiga talabalar osongina erishsalar, tadbirga qiziqish yo'qoladi va talabalar bunday tadbirlarga ishtirok etmay qo'yadilar.

Tadbirlarni tez- tez almashtirish, xilma -xillashtirib turish kerak va ularning natijalarini talabalar bilan muxokama qilish lozim. Bunda talabalarning o'zaro munosabatiga aloxida e'tibor berilishimaqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan tarbiyaviy tadbirlarning maxorat bilan tashkil etilishi, o'tkazilishi va tahlil qilinishi bo'lajak mutaxassislarni jamiyatning sodiq fuqarosi bo'lishi bilan bir qatorda:

- mustaqil fikr yuritishiga o'z faoliyatini tahlil qilish;
- vatanga, har bir narsani qadrlashga, o'quv dargoxiga bo'lgan munosabatini o'rganish;
- kasb kelajagi va uning jamiyatdagi ahamiyatini anglash;
- davlat siyosati, dunyo voqealarini to'g'ri tushunish va talqin etishga o'rganish;
- milliy qadriyatlarimizni chuqur anglash;
- ochiq muloqotlarda o'z fikrini aniq bayon etishni o'rganish, ya'ni og'zaki nutqni shakllantirish;
- milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazariga ega bo'lish kabi sifatlarga ega bo'lishga yordam beradi.

Madaniy tadbirlar ham –tarbiya jarayonining muhim bo‘laklaridan hisoblanib, asosiy maqsad qilib, barkamol avlod tarbiyasini birinchi navbatga qo‘yishi lozim. Yuqorida qayd etib o‘tganidek, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, ahloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir yoki boshqacha qilib aytganda insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lidagi chora-tadbirlar yig‘indisi, desak ham bo‘ladi.

“Tarbiya” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniye, matbuot va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi.

Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta’lim va ma’lumot olish tor ma’nodagi tarbiya ichiga kirmaydi, biroq har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ahloqiy-ma’naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Shuning uchun ham “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa, ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasi”dir.<sup>10</sup> Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim”, – deb uqtiradi davlat rahbari Islom Karimov.

Demak, tarbiya - shaxsni shakllantirishga maqsadli yo‘naltirilgan, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o‘zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi – har tamonlama va uyg‘un kamol topgan yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishdir. Tarbiya jarayoni – tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat.

*Tarbiyaviy tadbirlar* –turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy

<sup>10</sup> И.Каримов. Юксак маънавият –енгилмас куч. Т., Маънавият., 2008.386.

ta'sir majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar – tarbiya jarayonining bir bo'lagidir.

Tarbiya mavzusi katta, keng qamrovli mavzu. Bu mavzu alohida o'rganishga molik. Uning tarbiyaviy ishlar, tarbiyaviy ishlarning manbalari, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish uslublari, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, ularni tashkil qilishning asosiy qoidalari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni boshqarish, pedagogik ta'sir etish usullari, pedagogik texnologiyalarni qo'llash va boshqalarni o'rganish, chuqur bilish, amalda qo'llash juda muhimdir.

Turli mavzuda tashkil etiladigan tadbirlar, masalan, “Ichkilik va giyohvandlikka qarshi kurash”, “Jinoyatchilikka qarshi kurash”, “Diniy eksterimizm” mavzulariga bag'ishlangan, gigiena yoki reproduktiv salomatlik bo'yicha davra suhbatlari, TTJda va ijarada yashovchilar bilan ishlash kabi mavzu va rejalar madaniy tadbirlar tashkilotchilarining asosiy ishlaridan hisoblanib, yoshlar tarbiyasi, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, mehr-oqibat kabi tushunchalarni kengaytirishga xizmat qilishi lozim.

### ***3.3. Ommaviy-madaniy tadbirlarda pedagogik tamoyillarning qo'llanishi.***

Pedagogik faoliyatda “texnologiya” atamasining qo'llana boshlanganligi pedagogik amaliyot, uning nazariy jihatlari hamda ular haqidagi bildirilayotgan mulohazalar bir muncha yuqori ilmiy darajaga ko'tarilmoqda. Pedagogik texnologiya – hozirgi zamondagi didaktika va pedagogika taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo'lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yo'lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba, interfaol metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya\_ ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini, pedagogik mahorat esa–bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi. Pedagogik mahorat – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkurdir.

“Texnologiya” – grekcha (tehne) so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va “logos” – tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatadi. Texnologiya samarali vositalar yordamida ta'lim sifatining o'zgarishiga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.



Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borilgan darslar samarali natija berib, o'quvchilarni bevosita o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Xuddi shu maqsadlardan kelib chiqib, talabalarni mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, CD, video, proyektor, tarqatma materiallar, elektron materiallar hamda kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Yakka darslarda ham talabalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

“Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning zamonaviy metodikasi” fanida nazariy va amaliy mashg'ulotlar paytida pedagogik texnologiyalarning juda ko'p metod va vositalaridan unumli foydalanish darsni o'zlashtirishga katta samara beradi. Mashg'ulotlarni o'zlashtirish jarayonida “Aqliy hujum”, “Baliq suyagi”, “Klaster”, “Men kimman”, “Venn diagramma”, “SWOT tahlil” va boshqa pedagogik texnologiyalar talabalarda qisqa vaqt mobaynida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lish, eng asosiysi mavzuni yaxshi eslab qolish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur fanni o'qitish doirasida eng ko'p qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalardan biri - “Keys –stadii”dir. Bu texnologiya fanni o'zlashtirishda ham vosita, ham metod vazifasida qo'llanilib keladi. Bu texnologiya sahnalashtirish san'atida juda ko'p ishlatiladigan “Agar-da”, “Berilgan shart-sharoitda”, “Sahnaviy diqqat”, munosabat, aktyorlik mahorati, rejissyorlik sohasining elementlarini, tashkilotchilik, sahnalashtirishga oid tushunchalarini to'ldirishga, kengaytirishga hamda undan maqsadli foydalanish imkonlarini beradi.

“Innovatsiya”- inglizcha, innovation (yangilik kiritish, yangilik yaratish, novatorlik) so'zidan olingan. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonlar, o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni zamirida yangi pedagogik, axborot kommunikatsion, texnologik jarayonlar va boshqa metodlardan maqsadli foydalanish yotadi. Innovatsiyalar fanni o'zlashtirish mobaynida talabalarni fikrlashga, psixo-fizik holatlarini topishlarida, o'zlariga berilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirishda, mashqlarni amaliy jihatdan bajarishlarida, bir so'z bilan aytganda nazariy va amaliy ish uyg'unligiga erishishda yordamga keladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish katta samaralarga erishishni kafolatlaydi. Chunki, tinglovchilarda an'anaviy, o'zi bilgan ma'lumotlardan tashqari, yangiliklar, yangi ma'lumotlar olish imkoniyatlari kengayadi, mavzularni eslab qolishga asos bo'ladi. Talabalarning faolligiga erishish har qanday soha bo'yicha mashg'ulot olib boruvchilarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Bu pedagogik hamkorlik jarayonini qo‘llashdan maqsad: tinglovchilarning bilim saviyasini, natijaga erishishda to‘g‘ri pedagogik texnologiyalar tanlashdir. Hozirgi kunda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni to‘laligicha amaliyotga tadbiq etila olmagan achinarli holat, bunga sabab, ayrim oliy ta‘lim muassasalarini elektron vositalar, kompyuterlar bilan to‘liq ta‘minlanmagani, internet va boshqa axborot tarmoqlariga yetarlicha ulanmaganligi, o‘qituvchi va talabalarni zamonaviy kompyuter texnikasidan foydalanish malakasi yetishmasligi, rahbariyatni shu sohaga jiddiy e‘tibor bermasligidadir. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun yangi innovatsion texnologiyalarni o‘qituvchi, talabalarga mukammal o‘rgatish, o‘qituvchilarga multimediyaga o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishda ko‘mak berish, o‘qituvchi - talabalar bilan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida ko‘proq ilmiy tanishtiruv ishlarini olib borish katta samara beradi. Bugungi kunda zamonaviy ta‘limni rivojlantirish talablariga jismoniy, ruhiy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish, talabalarga nazariy bilimlarni, yangi pedagogik metodlar orqali yetkazib, ularda ko‘nikma, malakalarni hosil qilish, egallagan bilimlarini nazorat qilish, baholash - o‘qituvchidan yuksak pedagogik maxorat va ta‘lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik metodlardan biri bo‘lgan interfaol metodi – tinglovchilarning ta‘lim berish jarayonida talabalar bilan hamkorlikda ishlash, darsning samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlashni, munosabat bildirishni o‘rgatishga qaratilgandir.

Dars o‘tish jarayonida o‘qituvchi o‘qitishning ilg‘or zamonaviy usullaridan, yangi informatsion–pedagogik texnologiyalardan foydalanishi kelajakda yuksak natijalarga erishishni ta‘minlaydi. Bu borada o‘qituvchi o‘z shogirdini zamonaviy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishi, xorijning ilg‘or tajribalarini o‘rganishi va ta‘lim amaliyotiga tadbiq etishi, amaliy va nazariy maslahatlari juda muhimdir.

Rejissura o‘z ixtisosliklariga ega bo‘lgani (qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi, televideniye va radio rejissyorligi, kino rejissyorligi, ommaviy bayramlar rejissyorligi) kabi madaniy tadbirlarni ham turlari jihatdan xilma-xildir. Ularni tashkil etish ham o‘ziga xos bo‘lgan yondoshuvni talab etadi. Masalan, davra suhbatini olaylik. Davra suhbatini o‘tkazish uchun maxsus rejissyor taklif qilish shart emas. Uni tezlikda va birpasta repetitsiyalarsiz tashkil etish mumkin. Asosan tashkiliy ishlarga e‘tibor qaratiladi va o‘tkaziladi. Ammo davra suhbatlarini ham ma‘lum bir ssenariy asosida, turli teatrlashtirish usullarini qo‘llagan holda, sahnaviy ko‘rinishlar, kuy-qo‘shiqlar va boshqa boshqa badiiy chiqishlar asnosida ham tashkil etish katta samara beradi.

Talabalarni mazkur fanni o‘zlashtirishlari kelajakda tadbir ishtirokchilariga tadbirning mazmun-mohiyatini ochib berishda, tashkilotchilik va ijodiy hamda

boshqaruvchilik qobiliyatlarini shakllantirishda asqotadi. Mazkur fan doirasida bitta mashq misolida oladigan bo'lsak, bu mashq talabaning, ya'ni bo'lajak tadbir tashkilotchisining tadbirni o'tkazmoqchi bo'lgan noprofessional ijrochilarga tadbirning mazmun-mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati, tadbirning maqsadi va boshqalarni tushuntirishida juda katta samara beradi. Bu "Fikrni bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirishga oid mashqlar" bo'limida ishlab chiqilgan bo'lib, talabalaning har qanday holatlarda ham mavzu bo'yicha fikrlashga undaydi.

Guruhlarga ajratish, innovatsion-pedagogik texnologiyalarni qo'llash, talabalarni qiziqtirishga oid takliflarni ishlab chiqish, mavzuni yoritishning yangicha usullarini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borish -har bir pedagogning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda interfaol va noan'anaviy pedagogik texnologiyalar juda qo'l kelishini tadqiqotchilar tomonidan turli ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan ko'pgina pedagogik tajribalarining natijalari tasdiqlanmoqda. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor – o'qituvchilar o'z sohalari bo'yicha olib borayotgan mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llashni bilishlari o'ta zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish - har tomonlama kamol topayotgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Unga pedagogik, texnologik va innovatsion nuqtai nazardan yondoshish esa tadbirning g'oyaviy, badiiy, intellektual salohiyatini belgilaydi.

### **Nazorat topshiriqlari**

1. Pedagogik aspekt tushunchasini yoriting.
2. Tarbiyaviy tadbirlarga izoh bering.
3. Madaniy – ommaviy tadbirlarda tarbiyaviy jarayonlarni aks etilishini ko'rsating.

**4- mavzu. Tadbirlarda sahna ko‘rinishlarini tayyorlash usullari.  
Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni.  
Maydonlarda tadbirlarni o‘tkazish metodikasi (2 soat).**

**REJA:**

4.1. Tadbirlar uchun sahna ko‘rinishlarini tayyorlash, madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni.

4.2. Tadbirlar dramaturgiyasini yaratish. Ssenariy tushunchasi. Inssenirovka.

4.3. Madaniy ommaviy tadbirlarda rejissura san’ati va aktyorlik mahorati.

**Tayanch so‘z va iboralar**

Madaniy – ommaviy tadbirlar, sahna ko‘rinishlari, ssenariy, ijodiy jarayon, sahnalashtirish, estrada, rejissyorlik faoliyati, aktyor, pesa, buyurtmachi, sahna.

***4. 1. Tadbirlar uchun sahna ko‘rinishlarini tayyorlash, madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni.***

Har qanday tadbirni o‘tkazish yoki tashkil etishda ssenariy yaratish eng asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Bayram, tomosha, tadbirlarni tashkil etishda ssenariylarni yaratish mobaynida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, barkamol avlod tarbiyasiga hissa qo‘shadigan, insonlarga har tomonlama ta’sir qiladigan materiallarni topish tadbir tashkilotchisidan katta mahorat va bilim talab etadi. Madaniy tadbirlarni asosi ssenariy hisoblanib, mamlakatimizda yangicha munosabatlarning taraqqiyoti, tadbirlar dramaturgiyasining turli usul va ko‘rinishlari, tashkil etilayotgan madaniy tadbirlarning inson tafakkuriga ta’siri va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdagi ahamiyatini tahlil etish maqsad qilib qo‘yilsa, tadbirlar tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Madaniy tadbirlar dramaturgiyasining asosiy komponentlarini, tadbirda qo‘llaniladigan ta’sirchan vositalar, xujjatlar va faktlar bilan ishlashning o‘ziga xosligi, tadbirlarda qo‘llaniladigan inssenirovkalar, obrazlilik, bir so‘z bilan aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi birinchi qadam bo‘lmish ssenariynining amaldagi ijrosi (sahnalashtirish, ijodiy va tashkiliy ishlar) masalalarini tahlil etish jarayonlaridagi muammalarni hal qilish orqali yondoshuv tadbirning tarbiyaviy salmog‘ini yanada oshiradi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega manbalarni manashu, ya’ni uning dramaturgiyasini yaratish jarayonidan boshlab izlash, topish kerak, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, insonlarning ma’naviyatini oshirish, ularga ma’naviy ozuqa berish, yaxshi, farovon turmush sharoitlarini yaxshilash, o‘z yurti, oilasi, kasbini sevish, ularni ilimli, bilimli, ma’rifatli, komil inson qilish va boshqa ezgu maqsadlarga qaratilgan juda ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan qator-qator dasturlarning asosiy mohiyati ham anashunday ulkan maqsadlarga yo'naltirilgan. O'z navbatida, madaniyat va san'at maskanlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar xodimlarining ham bu boradagi amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalari ko'pdir. Turli mavzulardagi tadbirlarni tashkil etish, ularni xalq ommasiga yetkazguncha tadbir tashkilotchilari ish jarayonlarini bir necha bosqichda olib boradilar. Eng birinchisi, yuqori tashkilotlardan qaysidir tadbirni o'tkazish vazifasini oladi. So'ng manashu tadbirni o'tkazish uchun ishchi guruhlar tuziladi. Ishchi guruhlar esa vazifalarni aniq taqsimlab oladilar va ma'sullar bilan birga ish boshlaydilar. Ijodiy va tashkiliy ishlarni bir paytning o'zida boshlagan ma'qul. Chunki, tashkiliy jarayonlar ham o'ziga xos bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi muuxmkin. Ijodiy ishlarni esa hecham kechiktirmasdan bajarish lozim. Chunki ijodiy ish qanchalik ko'p ishlansa, shunchalik uning turli qirralari kashf etilaveradi.

Ssenariyni sahnaga ko'chirish haqida so'z borganda, u ham teatr rejissurasi kabi to'liq sahnalashtirish qonuniyatlariga asoslanishni talab etadi. Spektaklni sahnaga olib chiqishda stol atrofida o'qish, ilk bor sahnaga chiqish, mizanssenalar ustida ishlash, obrazlar, xarakter, badiiy bezak va boshqa jihatlar ustida ishlar olib borilsa, madaniy-ommaviy tadbirlarda o'ziga xos murakkabligi bilan ajralib turadi. Buning birinchi murakkabligi shundaki, teatr spektakl sahnalashtirish uchun tayyor dramatik manba, pyesa bor. Madaniy-ommaviy tadbirda esa tayyor joy, dramatik manba va ijrochilari yo'q.

Shuning uchun mavzuga mos manbalarni to'plash, ssenariy yaratishning o'zi alohida katta mahorat, bilim talab qiladigan jarayondir.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda uning dramatik asosini badiiy jihatdan mukammal qilib tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi. Spektaklning dramatik manbai - pyesa bo'lsa, madaniy tadbirlarda esa ssenariy yoziladi. Har qanday sahnaviy asar tomoshabin e'tiboriga havola etilgunga qadar 3ta asosiy jarayonni boshidan kechiradi, ya'ni:

1. Sahnalashtirish uchun asosiy manbani tanlash (pyesa, ssenariy, inssenirovka kabi);

2. Sahnalashtirish (barcha ijodiy jihatlar, ya'ni aktyorlarni tanlash, stol atrofida o'qish (chitka), mizanssenalar, obraz va rol ustida, rejissyorlik g'oyalari va topilmalari ustida ishlash va boshqa ijodiy ishlar);

3. Tashkiliy ishlar (professional teatrlarda va respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda tashkiliy ishlarning deyarli ko'pchiligini ma'muriy bo'limlar bajaradilar, ammo joylarda tashkil etilgan havaskorlik teatr kollektivlarida, madaniy tadbirlarni tashkil etishda bu vazifani ijodiy guruh rahbarlari o'zlari bajaradilar).

Sahnalashtirish uchun material quyidagi jihatlariga qarab tanlanadi:

1. Asar mavzusining dolzarbligi (ijtimoiy ahamiyati, zamon talablariga mos kelishi);
2. Asarning tarbiyaviy ahamiyati (har qanday ijodiy jarayonlar asosida tarbiyaviy masalalar yotishi zarur);
3. Asar qahramonlarining faol xatti-harakatlari (insonlarning har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishlari va o‘z maqsadlariga erishishlarini badiiy vositalarda yetkazish);
4. Aktyor-talabalarni kasb nuqtai nazardan tarbiyalash jihatlari (madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati, aktyorlik mahorati va rejissyorlik maktabini o‘rganayotgan talabalarning fanni o‘zlashtirishiga asos bo‘ladigan jihatlari qarang);
5. Buyurtma asosida (ko‘pgina holatlarda asarlar buyurtma asosida sahna yuzini ko‘radilar)

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, spektaklning dramatik asosi pyesadir. Pyesa (fr. “riese”) - butun yoki ulush so‘zidan olingan bo‘lib, xilma-xil sahna asarlarining umumiy nomidir. Ko‘pgina teatr san‘ati haqida yaratilgan adabiyotlarda dramatik manba (pyesa, inssenirovka), aktyor va rejissyor teatr san‘atining asosini tashkil etadi, deb aytilgan. Bir jihatdan olib qaralganda, bu fikrga qo‘shilish mumkin. Ammo bitta spektaklni sahnalashtirish uchun bir qancha san‘at turlaridan foydalaniladi, undan tashqari texnik, ma‘muriy xodimlar, badiiy rahbariyat, ijodiy xodimlar (masalan, birgina Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek Davlat Akademik katta teatri jamoasining umumiy soni 500 kishidan ortiq) va boshqalarning ham hissalarini haqida gapirsak, unda boshqacha fikr yuritishimizga to‘g‘ri keladi. Ammo ikkala holatda ham spektakl yaratish mumkin.

Dramaturgiyaning barcha qonun-qoidalariga rioya qilingan holda yaratilgan asarlar to‘laqonli asarlardan hisoblanadi. Pyesa tanlangach, ijodiy guruh bilan tahlil qilinadi va sahnalashtirish ishlari amalga oshiriladi. Madaniy tadbirlarda asosiy manba ssenariy hisoblanib, u tadbirni tashkil qilishdagi ilk jarayondir.

“Ssenariy” so‘zi, U.Qoraboev o‘zining “Badiiy-ommaviy tadbirlar” kitobida yozishicha, italyancha so‘zdan olingan bo‘lib, "asarning plani, sxemasi"ni anglatadi<sup>11</sup>. Lug‘atlarda esa ssenariy:

- 1) kinossenariy;
- 2) teatrdagi qo‘yiladigan dramatik asarning rejisi, syujet chizig‘i, operadagi dramatik harakatning tasviri, baletda – syujetning barcha raqs va mimikalarini o‘z ichiga olgan mukammal bayoni;
- 3) pyesada ishtirok etuvchilarning sahnaga chiqish payti va tartib ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqdir, deb izoh etilgan.

---

Qoraboev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. T., “O‘qituvchi”, 1986. 36 b.

Yana boshqa manbalarda - “Ssenariy” (italyancha “Scenario” - adabiy-dramatik asar degan ma’noni anglatadi), tadbir mazmunini adabiy ta’svirlash bo‘lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo‘lmish mavzu va g‘oya, bir bo‘lakdan ikkinchisiga o‘tish, bloklar, bezaklar, matnlar to‘liq ko‘rsatiladi, deb yozilgan. Ammo har qanday holatda ham “ssenariy - o‘tkaziladigan tadbirning to‘liq yozma bayonidir”<sup>12</sup>, deb ta’riflash maqsadga muvofiqdir.

Ssenariy yozilishida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- tadbir o‘tkaziladigan joy o‘rganiladi;
- mahalliy sharoitdan mavzu, tadbir g‘oyasidan kelib chiqqan holda manbalar izlanadi;
- hujjatli materiallar badiiylashtiriladi;
- sahnaviy usullardan, foydalanish yo‘llari izlanadi, ta’sirchan vositalar tanlanadi.

#### ***4.2. Madaniy-ommaviy tadbirlar dramaturgiyasi***

Rejissuraning ixtisosliklari ko‘p bo‘lganidek, (masalan, teatr rejissurasi, televidenie rejissurasi, radio rejissurasi, qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va h.k. kabi) ssenariy ham turli ixtisosliklari va tabiati bo‘yicha bir qancha turlarga bo‘linadi. Masalan:

1. Kino ssenariy –(badiiy filmlar ssenariysi, hujjatli filmlar ssenariysi, ilmiy-ommabop filmlar ssenariysi, qo‘g‘irchoq va multifilmlar ssenariysi).
2. Televizion ssenariylar – (adabiy-badiiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, publitsistik – axborot ko‘rsatuvlar ssenariysi, ma’naviy- ma’rifiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, ijtimoiy-siyosiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, o‘yin-ko‘ngil ochar ko‘rsatuvlar ssenariysi, televizion filmlar ssenariysi, musiqiy ko‘rsatuvlar ssenariysi va h.k.)
3. Radioeshittirishlar ssenariysi – (ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar ssenariysi, adabiy - badiiy eshittirishlar ssenariysi, publitsistik-axborot eshittirishlari ssenariysi, musiqiy eshittirishlar ssenariysi, ma’naviy – ma’rifiy eshittirishlar ssenariysi, o‘yin-ko‘ngil ochar eshittirishlar ssenariysi va h.k.)
4. Sirk tomoshalari ssenariysi – (Turli sport tomoshalari, akrobatlar, hayvonlarning chiqishlari, masxaraboz va yakka nomerlar, dorboz va h.k. nomerlarining ketma-ketligidan iborat bo‘ladi).
5. Madaniy tadbirlar ssenariysi (bu tushuncha ko‘proq ommaviy bayram va tomoshalarga mos keladi) –(klublar, madaniyat uylari, maydonlarda o‘tkaziladigan ommaviy teatrlashtirilgan tomosha, teatrlashtirilgan konsert, adabiy-badiiy, adabiy musiqali kompozitsiyalar, marosim tomoshalari, ommaviy sport tomoshalari, suvda,

<sup>12</sup> V.K.Rustamov. Ssenariynvislik mahorati”. Toshkent, 2017.77b.

muzda o‘tkaziladigan tomoshalar, karnaval, xalq tomoshalari, badiiy-publitsistik kompozitsiyalar va h.k.lar ssenariylari kiradi).

Ssenariychilik mahorati asosan uchta tamoyilga tayanadi, ya’ni ijodiy kuzatishning shakllanishi (ssenariychi uchun juda ham kerak bo‘lgan hayotiy materiallarni topib, ajrata olish), dramatik fikr qilishni rivojlantirish – (ssenariy ustida ishlashda zarur bo‘lgan dramaning umumiy nazariyasiga rioya qilgan holda syujetlar ketma-ketligi va tadbirning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri belgilash), ijodiy tasavvur va obrazli xal etish.

Tadbirlarni tashkil etish muhim ijodiy jarayonlardan hisoblanadi. Ssenariyning yaratilishi va uni ma’lum kompozitsiya shakliga keltirish va sahnalashtirish, (tadbir tashkilotchisi rahbarligida) rejissyor va ssenaristning shu tadbir yoki tomoshani tashkil etishdagi qarashlarning mehnatlarini natijasi sifatida qaralmog‘i lozim. Birinchidan, bu ikki ijodning mohiyatini bir-biridan ajratish mumkin emas. Alohida yozilgan tayyor ssenariylar uchun ham sahnalashtirish ishlarini amalga oshirish mumkin, lekin rejissyor bilan ssenaristning birga yaratgan ijod mahsuli samaraliroqdir. Chunki rejissyor tadbir, bayram, teatr tomoshaning g‘oyasini, uning ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ahamiyatini, oliy maqsadini uqtirsa, ssenarist esa badiiy estetik matnning jozibali, ifodaviy qarashlari orqali rejissyor fikrini boyitib to‘ldiradi, natijada to‘laqonli tadbir amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, madaniy tadbirlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tadbir tayyor jihozlangan binoda emas, balki ochiq havoda, maydonlarda, bog‘(park)larda, xullas, bir so‘z bilan aytganda noan’anaviy sahnaviy sharoitlarda o‘tkazilishini hisobga olish zarur. Sahnaviy imkoniyatlarning yo‘qligi (sahna, jihozlar, aktyorlar, chiroq, dekoratsiya va h.k.) rejissyor va ssenaristdan ishni “nol”dan boshlashiga to‘g‘ri keladi. Undan tashqari, doimiy repetitsiyalar o‘tkazish imkoniyati kamligi, tadbirning bir martagina o‘tishini, xatolarni to‘g‘rilashning deyarli imkoni yo‘qligini hisobga olib tashkilotchi, rejissyor va ssenarist har bir chiqishlarida xatoga yo‘l qo‘ymasliklarini hisobga olgan holda yondashishi zarur.

Uchinchidan, ssenariy yaratilishida, rejissyor o‘zining obrazli – sahnalashtirish yechimini belgilovchi rejissyorlik g‘oyalari, bo‘lajak tadbirning yo‘nalishi, ya’ni yetakchi xatti-harakat, tadbir shakli, muhit va stilni aniqlab olishi lozim. Bunday rejissyorlik g‘oyalarining vujudga kelishiga - o‘tkaziladigan tadbirning aniq berilgan shart-sharoiti, ya’ni uning mavzusi, g‘oyasi va oliy maqsadi, o‘tkaziladigan joy, ijodiy guruhlarining mavjudligi, tashkil etishdagi moddiy jihatlar, hujjatlar, afsonalar va boshqalar asos bo‘la oladi.

To‘rtinchidan, ssenariy yaratilishida hujjatli, mahalliy materiallarga tayanish - tadbirning effektli, ta’sirchan chiqishini ta’minlaydi. Bunda minoralar, toshlar, daraxtlar, devor va boshqalar majoziy ma’noda badiiy obraz shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Real dalillar, raqamlar, buyumlar, fotorasmlar, hujjatli



kinofilmlardan foydalanish, shu tadbirga aloqador qahramonlarning o'zlarining bevosita ishtiroklari va boshqa original topilmalar tadbirning ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, urf-odat, an'ana, marosim va qadriyatlarni tadbir o'tkazilayotgan hudud muhitiga moslashtirish, ulardan unumli va to'g'ri foydalanish va buni tadbir g'oyasiga singdirish orqali yoshlarni qadriyatlarimizni asrash va ulug'lash ruhida tarbiyalash ssenariy yaratishdagi eng e'tibor qaratish zarur bo'lgan qismlardan biridir.

Oltinchidan, o'tkaziladigan tadbir faqat so'z, she'r, matndan iborat bo'lib qolsa u juda zerikarli o'tadi. Shuning uchun rejissyor va ssenarist so'zning o'rniga uning tomoshaviy ekvivalentini<sup>13</sup> (masalan, musiqali, plastik va h.k.), plastik obraz yaratish orqali, bir so'z bilan aytganda, "so'z" o'rniga "harakat" bilan ifodalash vositasini topsa ko'zlagan natijalarga erishishi mumkin. Masalan, statistik ma'lumotlarni deklomatsiya sifatida namoyish etgandan ko'ra, u plastik yechim, ya'ni harakat orqali namoyon etilsa, tomoshabin uchun qiziqarli bo'ladi.

Yettinchidan, ssenariy yaratish jarayonida bir epizodni ikkinchi epizodga bog'lashda "g'oyaviy ko'prik"ni to'g'ri tanlash muhimdir. Ba'zan bu vazifani "boshlovchilar" amalga oshiradilar. Lekin bu oddiy, sodda variantdir. Nomerlarni, epizodlarni bir-biriga sahna ortidan e'lon qilish, boshlovchilar, masxarabozlar, qo'g'irchoqlar, turli asarlar qahramonlari va boshqa obraz va vositalar orqali ham bog'lash mumkin.

Keyingi paytlarda keng miqyosda nishonlanayotgan tadbirlarda fonogrammalarni montaj qilish asosida bir-biriga bog'lashga harakat qilinyapti. Nomerlar yoki epizodlarni bog'lash vositasi bo'lmish "g'oyaviy ko'prik"ni to'g'ri belgilash - tadbirdagi ortiqcha pauzalarning oldini oladi, o'rnini to'ldiradi, shuning bilan birga sahna jihozlarini almashtirish yoki keyingi nomerga tayyorlanib olish imkoniyatini beradi, eng asosiysi tomoshabinni tadbir g'oyasidan fikrini "uzilib" qolishidan saqlaydi. Shuning uchun ham "yaxshi, puxta va mukammal yozilgan ssenariy – tadbirning yarim muvaffaqiyatidan dalolat beradi"<sup>14</sup>.

Yuqorida qayd etganimizdek, spektakl yaratilishida asosiy manba pyesa hisoblanadi yoki boshqacha qilib aytganda, spektaklning dramatik asosi pyesadir. Rejissyor spektaklni sahnalashtirishda tayyor manba – pyesaga murojaat qiladi va sahnalashtirish jarayonlarini boshlaydi. Bu bilan spektakl sahnalashtirish juda oson ekan, degan fikrdan yiroqdamiz, zero spektaklni sahnalashtirishning o'ziga xos murakkab jihatlari bor. Madaniy tadbirni masalan, ommaviy bayram va

<sup>13</sup> А.Д.Силин. Специфика работы режиссёра при постановка масс. Театрализованных представлений под открытым небом и на нетрадиционных сценических площадках. М. 1986 г. 82 стр.

<sup>14</sup> Rustamov V. Q. Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari. T., 2008.

tomoshalarni sahnalashtirishda esa tayyor dramatik manba yo‘q, o‘tkaziladigan joy an’anaviy emas, unda chiroqlar, dekoratsiyalar, xullas, hech qanday sahna jihozlari-yu, anjomlari yo‘q. Faqat madaniy tadbirlar tashkilotchisining yuqori tashkilotlardan yoki rahbarlardan shu tadbirni o‘tkazish to‘g‘risidagi «zakazi», ya’ni buyurtmasi bor, xolos.

### ***4.3. Maydon tomoshalarini tashkil etishning o‘ziga xosligi***

Madaniy tadbir tashkilotchisining birinchi galdagi vazifasi –shu tadbirga rejissyor topish va vazifani tushuntirishi kerak bo‘ladi. Rejissyor esa bu «buyurtma»ni san’at darajasiga ko‘tarib, yaxlit bir «spektakl» shakliga keltirishi zarur. Nega endi spektakl shaklida, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Chunki, spektaklday bo‘lishi uchun uning mavzusi, g‘oyasi, janri, qarama-qarshiliklar, voqealar qatori, kompozitsion tuzilishi (prolog, tugun, qarama-qarshilik, yechim), oliy maqsadi, xullas, dramaturgiyaning barcha komponentlari ishtirokini ta’minlash lozim.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda ham xuddi shu shartlarga e’tibor berish zarur. Tadbirning rejissurasidagi eng qiyin jarayon tadbirni yagona mavzu chizig‘iga yo‘naltirishdir. Shu mavzuga mos manbalar izlash, sahna, ya’ni, tadbir o‘tadigan joyni jihozlash, ishtirokchilarni to‘plash, vazifalarni tushuntirish va repetitsiyani boshlashdan oldin ssenariy rejissyorning qo‘lida bo‘lishi shart.

Ssenariyni yozishda tadbir uchun o‘tkaziladigan joyni aniqlash va uni o‘rganish muhimdir. Sababi, ssenariyga kiritilayotgan barcha jihatlar shu sahna sharoitiga moslashtiriladi. Undan tashqari, tadbirda qo‘llaniladigan hujjatli ma’lumotlar, harakat joyini tanlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mahalliy ma’lumot, odatdagidek, tomoshabinga yaqin, tushunarli bo‘lib, ularga his - hayajonli ta’sir etishi shart. Shuning uchun ham seneriy yozishdan oldin seneriy muallifi yoki sahnalashtiruvchi rejissyor mahalliy ma’lumotlar yig‘ishi, mavjud arxiv va o‘lkashunoslik muzeylari bilan, u yerdagi ma’lumotlar bilan atroflicha tanishish lozim. Undan tashqari kerakli adabiyotlar o‘qiydi, mahalliy aholi bilan suhbatlar quradi. Tanishuv va suhbat jarayonidagi ma’lumotlar tadbirning asosiy mag‘zini belgilaydi. Ish jarayonida seneriy bir necha maratoba o‘zgarishi ham mumkin. Ertangi topiladigan yangi ma’lumot, bugungi rejani tubdan o‘zgartirib yuborishi xollari ham amaliyotda bir necha marotaba o‘z tasdig‘ini topgan. Shuning uchun ham ijodiy ish jarayonidagi eng qiyin vazifa - ma’lumotlarni sinchiklab tanlashdir.<sup>15</sup>

“Qiziqarli ma’lumotlar ummoni ro‘parasida hovliqish va unga shaydo bo‘lmaslik zarur. Bu, albatta, qiyin narsa, ya’ni tayyor ma’lumotlar dengizida cho‘kib ketmaslik uchun seneriy yozuvchi bo‘lajak tadbirning “qovurg‘asini” ko‘z oldida saqlashi, har doim uning oliy maqsadini esda tutishi zarur”<sup>16</sup>. Kerakli mahalliy hujjatlar yig‘ib bo‘linsa, ma’lumotlarni seneriy uchun montaj bosqichi boshlanadi. Yana shuni unutmaslik kerakki, seneriy muallifi mahalliy ma’lumotlarni, ya’ni voqea-hodisalarni o‘zgartirmasdan, tarixda bo‘lmagan voqealarni kiritishi, hujjatdagi dalillarni o‘zgartirishi mumkin emas. Faqat sinchiklab tanlash va montaj jarayonida uning aniq fuqarolik nuqtai nazari katta rol o‘ynaydi. Ayrim holatlarda umumiy xulosa aniqlikdan - tipiklikka, noqonuniylikdan - qonuniylikka o‘tishi, bu - hujjatlar montajidagi prinsipial zaruratdir. Bu ijodkorning amaliy ishida dalildan obraz tomonga yo‘ldir, ya’ni hujjatni badiiy ishlab chiqish, uni badiiy tasvirlashdir.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, muvaffaqiyatli saralangan, aniq montaj qilingan va mohirlik bilan shoirona tus berilgan hujjat seneriyda va ommaviy teatrlashtirilgan tadbirda eng harakatchan, eng kuchli taassurot tug‘diradigan vositaga aylanadi.

Ssenariyni 3 xil toifaga ajratish mumkin, ya’ni oddiy ssenariy (mavjud materiallarni ketma- ketligi belgilanib, boshqaruvchi bog‘lovchi sifatida ishtirok etadi), yig‘ma ssenariy (turli xil ssenariylardan ishlatilgan materiallardan foydalangan holda yoziladi) va original ssenariy (tomoshabin ko‘z oldida o‘zi kutmagan turli burilishlarga, to‘qnashuvlarga, hissiyotlarga duch keladi va natijada u zerikmaydi, tadbirdan estetik zavq oladi). Barcha joylarda tadbirlar turli shakllarda o‘tkaziladi. Tomoshabinning ko‘z o‘ngida o‘zi orzu qilgan shart-sharoitlarni yaratish, tasavvuridagi ruhiyatga erishish ssenaristning yelkasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Original ssenariy yaratish barcha ssenaristlarning qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun ssenaristning dunyoqarashi keng, saviyasi o‘ta kuchli va yuqori darajada bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun ham sahnalashtirish, ya’ni rejissyorlik faoliyatda ssenarist bilan ishlash jarayoni eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi, uning originalligiga erishish – tadbirning yuqori saviyada o‘tishiga kafolatdir. Rejissyor va ssenaristning izlanuvchanligi tadbirning tempo-ritmini saqlab turishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning asosiy muvaffaqiyatlari - badiiy jihatdan mukammal ssenariy yaratish va sahnalashtirish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etilishidadir.

<sup>1</sup> J.Mamatqosimov. “Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati”. T.: “Fan va texnologiya”. 2009.

<sup>16</sup> Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi T.2002 .

## **Tadbirlar uchun sahna ko‘rinishlarini tayyorlash, madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni**

Ommaviy tadbirlarni tashkil etishga bo‘lgan ehtiyojning pedagogik aspekti shundaki, bu ehtiyoj, qiziqishni ssenariy rejissyorlik va tashkilotchilik faoliyatini amaliy qurollar yordamida qondirishga erishishdir. Tadbirlarni nazariy hamda amaliy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bayram oddiy madaniy-ma‘rifiy tadbir bo‘libgina yolg‘in, balki yuyori ijtimoiy, insoniyatning chuqur ildizli hayot faoliyatining kompleks shaklidir. Bu shaklni tatbiq etish borasida Genkin D., Kanovich A., Rudenskiy YE., Lapteva L., Mazayev A., {oraboyev U., Sayfullayev B., Ahmedov F. kabi olimlar izlanishlar olib bordilar.

Sahnaga qancha ko‘p odam chiqarilsa, omma shuncha ko‘payadi, degan noto‘g‘ri tushuncha mavjud. Odatda, taqlidchi rejissyor, shu kunga qadar spektaklda bir necha kishi ishtirok etib kelgandi, mana endi odam ko‘payishi bilan spektaklning rang-barangligi oshadi, deb o‘ylaydi. Spektaklning birinchi namoyish-premyerasi vaqtida odam ko‘p bo‘lib, haqiqatan ham sahnani to‘ldirib, tomoshabinni chalg‘itishi, sahnada go‘yo hayot qaynaganday bo‘lib tuyulishi mumkin. Ammo spektakl bir necha bor o‘ynalishi bilan bu omma sahnada hech bir taassurot qoldirmaydigan olomonga aylanishi turgan gap. Xuddi shu yerdan spektaklning parchalanishi boshlanadi. Umuman, ommaviy sahnalar o‘ta nozik bo‘lib, umri qisqa, ishtirok etuvchi aktyorlar aksariyat hollarda e‘tibordan chetda qoladi. Shuning uchun, omma bilan bog‘liq sahnalarni boshidanoq bir qolipga solib olish kerak. YA’ni, ommaviy sahnada ishtirok etadigan har bir qatnashchi uchun alohida sahna, o‘yin maydoni va makonni puxta o‘ylab chiqilgan reja asosida qat’iyan belgilab qo‘yish zarur. Bunday sahnalarga har safar yangi ishtirokchi kiritilganida, rejissyorning shahsan o‘zi ular bilan shug‘ullanishi lozim. Ommaviy sahnaga yangi ishtirokchilarni qo‘shish kerak emas. Agar zaruriyat yuzasidan shunday vaziyat tug‘ilsa, yangi qo‘shilgan har bir ishtirokchining o‘rni, bajaradigan vazifasi aniq ko‘rsatilishi zarur. Ommaviy sahnaga chiqishi kerak bo‘lgan aktyor sahnaga "kunim o‘tsin" uchun chiqmasligi, aksincha, shu spektaklning ishtirokchisi, uning badiiy qiymatiga o‘z ulushini qo‘shuvchi ijodkorga aylanishi talab etiladi. U ham boshqalar kabi asarning vaqtiy birligini his etishi zarur. Ammo bu ish rejissyordan juda ko‘p mehnat talab qiladi. Kompozitorchi? Uning mehnati kammi? Har bir kichik parchani sozlarga bo‘lib, har birining ovoz imkoniyatlarini hisobga olishi, vaqt birligidagi tovushining uzunqisqaligini yozib chiqish oson ish emas. Shuning uchun spektakldagi ixtirochilikni yoqtirmaydigan ish, ommaviy sahnalar hisoblanadi.

Bu yerda qat'iy belgilab qo'yilgan chegaradan chetga chiqish mumkin emas. Misol tariqasida Nemirovichdanchenkonning "Yuliy Sezar" spektaklidagi ommaviy sahnalarga bag'ishlangan rejissyorlik planini ko'zdan kechirib ko'raylik.

Rejissyor bu sahnada beshta maydonchani yigirma olti nuqtaga bo'lib chiqadi:

a) forumga ko'tariladigan ko'cha (ommaviy yig'in o'tadigan joy), b) palatinga eltuvchi ko'cha (palata),

v) kapitoliy,

g) palatin.

d)ko'chaning chap tomonida keng yo'lak, o'ng tarafdagi tor yo'lak .

1. Turli buyum va kitoblar sotiladigan do'kon.

2. Temir buyumlariga ishlov beradigan ustaxona (dubulg'a, sovut, qilich).

3. Meva sotadigan do'kon (olma, uzum, ichimlik, quruq meva).

4. Sartaroshxona.

Bunday sahnalarda ifoda vositalaridan juda tejamkorlik bilan foydalanish zarur. Pala-partishlik, har kim o'z bilganini qilishi, harakatlarni haddan ziyod ko'pligi, shovqin-suron, musiqa ovozi bosh og'rig'idan boshqa narsa emas. Hamisha insonning qabul qila olish imkoniyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Ommaviy sahnalarda ham xuddi orkestr kabi har bir soz o'z o'rnida, o'ziga berilgan kuyni ijro etsagina ma'no-mazmun paydo bo'ladi. Ommaviy sahnalar zimmasidagi mas'uliyat spektakl qiymatiga qanchalar ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushungan rejissyor, bunday sahnalarda odamlarni ko'paytirishi kerakmi yoki yo'qmi o'ylab qoladi. Xalqda "Ishq boshqa, havas boshqa", degan naql bor. Agar bu maqolni rejissyorlik kasbiga mengzaydigan bo'lsak, rejissyor spektakl sahnalashtirishga tushishdan oldin ishtiyoqi kuchli bo'ladi. Ammo hayot va imkoniyat hamisha ham biz o'ylaganchalik bo'lavermaydi.

Umuman ommaviy sahnalarda qarama-qarshi kuchlarning harakati asar matnlarida u qadar ko'zga tashlanmasada, sahnada qarshi kuchlar maqsadinianiqlab, ularni harakatga keltirish juda ham muhim. Bu o'rinda badiiy ehtiros bilan sport musobaqalari vaqtidagi ehtirosni nazardan qochirmaslik zarur. Omma ishtirokida sahnada ro'y berayotgan olishuv va tortishuvlar vaqtida tomoshabin ehtirosini qo'zg'ata olish juda-juda muhim. Shuningdek, yana bir narsani yodda tutish kerak. Qarama-qarshi tomonlarning kuchi (qahramonlar bilan omma o'rtasidagi kuch) teng bo'lishi lozim. Aks holda, voqealarni qanday yakunlanishi tomoshabin uchun oldindan ma'lum bo'lib qoladi va qiziqish yo'qoladi. Shuning uchun goh bir tomonning qo'li baland kelsa, goh ikkinchi tomonning qo'li baland kelib, tomoshabin ehtirosini yana ham faollashtiradi.

Agar rejissyor ommaviy sahnada ishtirok etuvchilarning har biriga alohidaalohida vazifa berib, alohida maqsad sari harakat qilishi kerakligini tushuntirsa, bunday sahna boshdan oyoq aralash-quralash bo'lib ketadi. Shuning

uchun ommaviy sahna ishtirokchilarini alohida-alohida guruhlarga bo'lib, har bir guruhning vazifa va maqsadi, harakat qilishi kerak bo'lgan maydon chegarasi, ularning oldinma-ketinligini uqtirishi kerak. Har bir guruh orasidan yetakchi artistlarni belgilab qo'yilishi, so'ngra ularning plastik harakatlari nimalardan iboratligini tushuntirish zarur.

Agar ommaviy sahna ishtirokchilari aniq bir jismoniy ish bilan mashg'ul bo'lishlari joiz bo'lsa, har bir guruhning orasidan o'z rejissyorini tanlab, maqsadni, maydon va makonni ko'rsatish, guruhning har bir ishtirokchisi aniq bir ish bilan mashg'ul bo'lishligini ko'rsatib berish lozim. Bu guruhlar harakatga kelganidan keyin sahnalashtiruvchi rejissoyor har bir guruhning sahnadagi o'rni, harakatlar hamohangligini, spektaklning umumiy g'oyasiga bo'ysundirilganligini aniqlaydi. Ayrim o'rinlarni va ishlarni almashtirishi ham mumkin.

Ommaviy sahna ishtirokchilari sonini ko'paytirish uchun ularni bir necha guruhga bo'lib, sahnadan o'tkazish kerak. Avvaliga uch, so'ngra besh, undan keyin o'n kishi. Har bir guruh sahnadagi harakati bilan boshqa guruhga o'xshamasligi kerak. Turgan gap, ko'pincha ommaviy sahna ishtirokchilari yetishmaydi. Bunday kezlarda guruhlarni navbatma-navbat sahnaga chiqarish va har safar boshqacha kiyim-bosh, boshqa mashg'ulot bilan band bo'lishlari kerak. YA'ni bir necha artistni bir necha bor sahnaga chiqarish va har safar boshqa-boshqa kiyimlar kiydirish mumkin.

Shu o'rinda K. S. Stanislavskiy "Ottelo" spektaklidagi ommaviy sahnalarni qanday yechimini topganligi bilan tanishib chiqsak foydadan xoli bo'lmas.

"Xaloyiq ko'prik tomon uzluksiz oqib bormoqda. Ko'prik ustidagi odamlar ikki tomonga qarab harakat qiladi. Birinchilari pastga tushib, kiyimlaridan ko'zga yaqqol tashlanadiganlarini bir-birlari bilan almashtirib, yana sahnaga chiqib keladilar. Shu zayl ko'prikdagi odamlarning oqimi uzilmaydi."

Albatta, biz keltirgan misol hozircha nazariyadir. Amaliyotda esa uning imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin. Bir spektaklni o'zida biz sanab o'tgan misollarning bir nechtasidan bir spektaklda foydalanish mumkin. Ommaviy sahnalarni badiiy izga solish, ularni amalga oshirish qiziqarli bo'lishi bilan birga xavfli hamdir. Kichik spektakllarni sahnalashtirish uchun chuqur o'ylangan fikr zarur bo'lsa, ommaviy sahnalar bilan bog'liq spektakllarning ko'lami ham, harakat maydoni ham kengdir. Uch-to'rtta aktyor bilan ishlash uchun o'ta sezgirlik va qat'iyat kerak.

Shuning uchun ommaviy sahnalar bilan ishlashda rejissyorning qattiqqo'lligi zarur. Bunday damlarda birdanbir to'g'ri yo'l avvaliga temir intizom zarurligini tushuntirish, so'ngra kat'iy talabga o'tish kerak. Ish jarayonida aktyorlarning faqat qo'l-oyog'i va gavdasigina emas, qalbi ham ishlashi, umumiy ishga naf keltirishi lozim. Ommaviy sahnani harakatga keltirayotgan rejissyor har bir ishtirokchini

ko'rib turishi shart. Shuningdek, ommaviy sahnalar bilan ishlayotgan vaqtda makon va maydon yuzasida bo'sh joyning o'zi bo'lmasligi lozim.

Yaponlar gullab turgan birgina butoqcha orqali bahor fayzini, fazilatini, kayfiyatini aks ettiradilar. Bizning rassomlar aksariyat holda gullab turgan butun bir bog' tasvirini chizishsa ham o'sha gullagan butoqchalik taassurot uyg'otmaydi. Bugungi kunda dekoratsiya va buyumlar bilan haddan tashqari to'ldirib tashlangan sahna tomoshabinni o'zidan qochirishini hisobga olish kerak.

Ozgina narsa bilan ko'p ma'noni bildira olish muhim xislatdir. Kattakon suv havzasi qirg'og'iga to'g'on qurilib, suv taqsimlanmasa, hammayoqni vayron qilishi mumkin. Xuddi shuningdek, rejissyor tasavvurining cheki-chegarasi yo'q.

Agar uning tasavvuri chegaralanmasa, ular turli mayda-chuyda, kerak-kerakmas harakat va buyumlar sahnaga chiqib qolishi mumkin. Kichik bir sahnani obdon ishlab, qiyomiga yetkazmay turib, yangi-yangi o'yinlarni aktyorga taklif qilish ijodkor tafakkurini bo'g'ib qo'yadi. Yaratib berilgan sharoit, tug'dirilgan imkoniyat doirasidan chetga chiqmaslik eng oqilona ishdir. Imkoniyatlar darajasidan tashqaridagi narsalardan ish boshlanmasdanoq kechish kerak. Misol uchun, sahnalashtirilayotgan spektaklni kichik sahnaga mo'ljallash kerakmi yoki va'da qilingan katta sahnagami? Va'da qilingan sahnani so'nggi soatlarda bermasliklari ham mumkin. Shuning uchun "Minnatli oshdan beminat tosh yaxshi", degan maqolga amal qilib, yaxshisi kichik sahnaga mo'ljallab spektakl sahnalashtirgan maqul ish. Texnik qurilmalari mukammal bo'lgan sahnaning hajmiga ta'sir ko'rsatish osonroq. Shuning uchun rejissyor rassom bilan bo'lg'uvsi spektaklning dekoratsiyasi ustida ishlar ekan, voqea o'tishi kerak bo'lgan xona hajmini kengaytirishi, toraytirishi mumkin. Buning chun yon pardalar (kulis),

padugalar (tepadagi pardalar)ni tushirish, ko'tarish orqali istalgan sharoit muhayyo qilinadi. Lekin spektaklni gastrolda, qishloq klublarida o'ynashga to'g'ri kelib qolgan taqdirda qanday yo'l tutish kerak? Spektaklning barcha dekoratsiyasini sahnaga kiritilsa, aktyor harakati uchun joy qolmaydi. Bunday sharoitda birdan-bir to'g'ri yo'l dekoratsiyalarning ayrim qismidan foydalanishdir. Yaxshi rassom kichik bir bo'lakcha orqali bir butun inshootning taassurotini vujudga keltirishi mumkin. Kinochilarning asosiy mezoni bitta kadrda kichik bir voqelikni singdirish orqali, butun bir hayotning ramziy ifodasini tomoshabinga yetkaza bilishlikdan iboratdir. Ko'p sonli suvoriylar safini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Endi xuddi shu manzarani deraza orqali, ma'lum masofadan tomosha qilaylik. Yoki qator turgan uylar oralig'idan ko'raylik. Garchand, suvoriylarning hammasini ko'rmasakda, ularning ma'lum qismlarini ko'rish orqali butun bir qo'shin ko'z oldimizga keladi. Xuddi shunday qishloq klubida ko'rsatiladigan spektaklda ham dekoratsiyalarning ma'lum qisminigina ko'rsatish orqali yaxlitlikka erishish mumkin ekan.

### **Nazorat topshiriqlari**

1. Sahna ko‘rinishi turlari.
2. Tadbirlar dramaturgiyasi nima?
3. Maydon tomoshalariga nimalar kiradi va ularning o‘ziga xosligi



## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-mavzu:

#### **Madaniy dam olish tadbirlarini tashkil etishning o‘ziga xosligi. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchilik qobiliyatining shakllantirish tamoyillari (amaliy, 2 soat)**

O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan targ‘ibot-tashqiqot ishlarining asosiy shakli bo‘lgan madaniy tadbirlar jamiyat a’zolarining madaniy dam olishini tashkil etibgina qolmay, balki, xalqni muayyan bunyodkor g‘oyalar, xususan, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurishdek ezgu maqsadlar sari yetaklaydi va ulkan bunyodkorlik ishlariga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Madaniyat va ma’rifatni shakllantirishning eng samarali va ta’sirli vositasi bu aholi o‘rtasida o‘tkaziladigan madaniy ma’rifiy tadbirlar bo‘lib, ularning tashkil etish va zamon talablari darajasiga olib chiqish bugungi kuna ijod ahli oldida turgan asosiy muammo bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish borasidagi **besh muhim tashabbusida** ta’kidlangan yoshlarning san’atning turlariga jalb etish masalasi madaniyat sohasini isloh qilish, xususan, tizimni rivojlantirish uchun malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb masaladir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ-3160 sonli, 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038 sonli qarorlarining qabul qilinishi bu boradagi faoliyatning yangi bosqichini boshlab berdi.

Undan tashqari, O‘zbekistonda kuchli fuqorolik jamiyati qurishda milliy madaniyatimizning asl mohiyatini madaniy ma’rifiy tadbirlarda aks ettirilishi, xususan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida jamiyat a’zolarini ma’naviy tarbiyalash vositasi sifatida bir qator madaniy tadbirlarni o‘tkazish zarurati ko‘rsatilgan. Bugungi mustaqil O‘zbekistonda milliy an’ana va qadriyatlarni shakllantirishga keng yo‘l ochib berilishi natijasida bir qator milliy bayramlarimizning mamlakat miqiyosida keng nishonlanishi va ularning mamlakatimiz aholisining tinchlik va hotirjamlik shukuhini singdirayotgani ham ommaviy bayramlarni nishonlash ilmiy asosda tashkil qilishni talab etadi. Madaniy-ma’rifiy tadbirlarning takrorlanmaslik xususiyati va globalashuv sharoitlarida aholini axborot tahdidlaridan himoyalash, milliy g‘urur va sog‘lom dunyoqarashini

shakllantirish omili sifatida e'tirof etilib va u yoshlarda vatanga muhabbat, yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Madaniy tadbirlar kishilarning ishdan bo'sh vaqtida ularga kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun yordam beradi. Bu tadbirlar, asosan, og'zaki jurnal, klub kechalari, badiiy kompozitsiyalar, ma'naviy targ'ibot va tashviqot ishlari, teatrlashtirilgan kontsert va tomoshalar, xalq an'analari, ommaviy bayramlar va sayillar kabi shakllardan tashkil topadi. Badiiy-ommaviy tadbirlar o'z ichiga madaniy-ma'rifiy muassasalarning asosiy faoliyatini qamrab oladi.

Madaniy tadbirlarning eng afzallik tomoni shundaki, ular o'zida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini ko'proq namoyon bo'ladi. Jumladan, ularda targ'ibot va tashviqot ishi, havaskorlik ijodi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qilish kabi faoliyatlar birlashib ketadi. Badiiy-ommaviy tadbirlarning har bir shakli (ommaviy bayramlar, an'anaviy marosimlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, har xil kechalar, namoyishlar)ga murojaat etsak, ularda targ'ibot va tashviqot xarakteridagi mazmunni, havaskorlik ijodining natijalarini, badiiy-estetik zavqlanish va hordiq chiqarish uchun yaratilgan qulayliklarni yaqqol sezish mumkin. Shu sababli, badiiy-ommaviy tadbir madaniy-ma'rifiy muassasalardagi barcha faoliyatning umumlashtirilgan ko'zgusidir.

Madaniy tadbirlarni amaliy tashkil qilish nazariya va metodika asosida konkret ish shakllarini ijodiy uyushtirishdir. Amaliy ishga kirishish – bu uchinchi jarayondir.

Badiiy-ommaviy tadbirlarni tashkil qilishga erishish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

Nazariy va ilmiy asoslarni (jumladan, ish tajribani ham) o'rganish.

Umumiy va spetsifik metodikani (jumladan, ilg'or ish tajribani ham) o'zlashtirish.

Ishga ijodiy yondashish, amaliy tashkil qilish malakasiga ega bo'lish.

Bir-birini vujudga keltiradigan va o'zaro bog'liq bo'lgan bu jarayonlar va ularga oid masalalar mazkur o'quv qo'llanmaning obyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, badiiy-ommaviy tadbirlar nazariyasi, metodikasi va amaliy tajribasini aks ettirishni ko'zda tutgan.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy jarayon bo'lganligi sababli, u hayotning deyarli barcha sohalari bilan bog'liq. Avvalo, u kishilarning mehnat faoliyati va bo'sh vaqti bilan aloqadordir. Madaniy-ma'rifiy ishlar kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, mazmunli dam olishini ta'minlash va ishlab chiqarishda yaxshi natijalarga erishishlari uchun yordam beradi. Mehnatda qo'lga kiritilgan g'alabalarini nishonlaydi, ilg'or ish tajribalarini omma orasida targ'ib qiladi.

Ikkinchidan, u xalq madaniyatining tarkibiy qismidir. Madaniy-ma'rifiy ishlar insoniyat yaratgan eng yaxshi progressiv xalq an'analarini saqlaydi, rivojlantiradi, targ'ib qiladi. U ommani faqat madaniyat namunalaridan bahramand bo'lishiga sharoit yaratibgina qolmay, uning madaniy hayot quruvchisiga aylanishiga ham ko'maklashadi, madaniy qiyofasi – xulq-atvori, odobi va axloqining shakllanishida qulayliklar yaratadi.

Uchinchidan, u san'at bilan bog'liqdir. Madaniy-ma'rifiy ishlar xalq san'atini targ'ib qilish bilan birga, ommani rang-barang badiiy havaskorlik faoliyatiga jalb etadi, ularning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

To'rtinchidan, u turmush tarzi va mahalliy hayot bilan bog'liqdir. Madaniy-ma'rifiy ishlar muayyan muassasa, jamoa, oila va shaxs hayotini real aks ettiradi. Ularning oldida turgan muammolarni echishga yordam beradi. Mahalliy hayotni ma'naviy mazmun bilan boyitadi, badiiy jihatdan bezaydi.

Madaniy-ma'rifiy ishlar faqatgina ijtimoiy-madaniy hayotning barcha tomonlari bilan aloqador bo'libgina qolmay, balki u ko'pgina fanlar bilan ham bevosita bog'liqdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z tadbirlarini, asosan, buyuk sanalarga, xalqaro va ittifoq miqyosidagi masalalarga bag'ishlab o'tkazadi! Demak, tadbirlarning mazmunida, asosan, muhim voqealar aks etishi kerak emasmi? degan savol tug'ilishi mumkin. Albatta, bunday bo'lishi qonuniy, lekin madaniy-ma'rifiy muassasalar tadbirlarida muhim sanalarga bag'ishlangan materiallar mahalliy hayot sharoiti prizmasi orqali beriladi. Masalan, 9 may — G'alaba kuniga bag'ishlangan bayramni olaylik. Madaniy-ma'rifiy muassasalarning bu bayram tadbirida sovet xalqining fashizm ustidan qozongan g'alabasini yoritish bilan muayyan mehnat jamoalarida bu buyuk tarixiy voqeda qanday rol' o'ynaganligi, mahalliy joyda yashaydigan urush qatnashchilarining ko'rsatgan jasoratlariga asosiy urg'u berilishi kerak. Urush qahramonlarining hayoti haqida ularning o'z so'zlarini eshitish tadbirini jonlantiradi va ta'sirchanligini oshiradi. Faqat shunday yo'llar bilangina badiiy-ommaviy tadbirlarning muhim xususiyati vujudga keladi. Bu xususiyatning eng afzallik tomoni shundaki, u umumiy tadbir mavzusini mahalliy aholi hayotiga yaqinlashtiradi.

Madaniy--ommaviy tadbirlarning barchasi mahalliy sharoit masalalarini bir xil darajada yoki bir tekisda yoritmaydi: ba'zilar (masalan, ma'naviy targ'ibot dasturlari, mavzuli kechalar) butunlay mahalliy materiallar asosida tuziladi, boshqalari (teatrlashtirilgan tomoshalar, ko'ngilochar tadbirlar) ijtimoiy masalalarni mahalliy hayot bilan bog'lagan holda uyushtiriladi va yana boshqalari (badiiy kompozitsiyalar, tarixiy kechalari) ko'proq umumiy mavzularga bag'ishlanib uyushtiriladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarning to'rtinchi xususiyati shundan iboratki,

ularda juda keng ko‘lamda ta’sirchan vositalar sintezlashtiriladi. Tadbirlar real hayotning o‘zini tashkil qilishi bilan birga, undagi muhim voqealarni o‘z mazmuniga singdiradi. Ularning mohiyatini ochish va ahamiyatini yoritish uchun ta’sirchan vositalarga murojaat qiladi. Tadbirda mazmun ma’lum bir kompozitsion tuzilish holatiga keltirilishi uchun undagi barcha bayon qilish va ta’sirchan vositalar ham bir-birlari bilan birlashtiriladi, uyg‘unlashtiriladi. Aks holda, tadbirning mazmuni puch, shakli esa samarasiz bo‘lib qolishi mumkin. Ma’lumki, tadbirlar targ‘ibot-tashviqot hamda axborot xarakteriga egadir. Tadbirlarda targ‘ibot-tashviqot va axborot materiallari «quruq» va zerikarli bo‘lib qolmasligi, ya’ni yuqoridagi xarakterli xususiyatning yo‘qolmasligi uchun ularni mantiq talab qilgan ta’sirchan vositalar bilan badiiy boyitish lozim. Notiqning og‘zaki nutqini yoki tadbirdagi hujjatli informatsion materiallarni badiiy vositalar bilan birlashtirish - bu tadbirning ta’sirchanligini va samaradorligini oshirib borish demakdir. Xuddi shunday yo‘l bilan vositalarning sintezlashishi natijasida ta’sirchanligi kuchli bo‘lgan badiiy targ‘ibot va tashviqot vujudga keladi.

### **Quyidagi xujjatlarni o‘rganish, mazmun mlohiyati tahlili borasida amalga oshiriladigan amaliy ishlar:**

1. Respublikamiz Prezidentining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish borasidagi besh muhim tashabbusi va uni joylarda qay darajada amalga oshirilayotganlik holati tahlili ( tinglovchilar istiqomat qilayotgan yoki dars berayotgan ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlar xususida);

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ-3160 sonli qarori mazmun mohiyatini o‘rganish;

3. Prezidentimizning 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038 sonli qarorlarining mazmun- mohiyatini o‘rganish, tahlil qilish va bu boradagi yutuq va kamchiliklar xususida amaliy suhbat.

Har bir tinglovchi mustaqil ravishda ushbu mavzular bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar, amalga tatbiq etish, mazmun-mohiyatini talbalarga yetkazish, faoliyatni yaxshilash borasida izlanadilar.

Tinglovchilarning tashkilotchilik qobiliyatini o‘rganish bo‘yicha berilgan mavzular orqali tashkiliy va ijodiy ishlarni amalga oshirish borasida qiladigan ishlari ketma-ketligini aniqlab, yozadilar (yoki og‘zaki aytishlari ham) mumkin.

Har bir tinglovchiga quyidagi mavzular asosida madaniy-ommaviy tadbirning rejasi, ijodiy va tashkiliy jarayonlar ketma-ketligini aniqlab berish vazifasi beriladi:

1. Odam savdosiga qarshi kurash mavzusi

2. Buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-meroslarini o'rganish, ular faoliyatini o'rganishga qaratilgan (masalan, Hazrat Mir Alisher Navoiyning tavallud topgan kuni munosabati bilan "She'riyat mulkingning sultoni" mavzusida tadbir);

3. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi kuni munosabati bilan tadbir;

4. 9-May – Xotira va qadralash (G'alaba) kuni mavzusi;

5. Giyohvanlikka qarshi kurash mavzusi

6. Navro'z bayrami

7. Mustaqillik bayrami

8. Erkin mavzuda yuqorida berilgan mavzular asosida ish olib borish mumkin.

Bunda tinglovchilarning pedagog tomonidan fikrni bayon eta olish qobiliyati o'rganiladi, tinglovchilar esa madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Yangi davr, yangi mazmun va yangi shakl an'alarining paydo bo'lishi, mustaqil xalqning quvonchli daqiqalarini tantana qilishga imkon beradigan yangi tadbirlar yaratishni taqazo etadi. Jumladan, istiqlolni sharaflaydigan "Mustaqillik bayrami" tadbiri hayotimizning bosh qonunini targ'ib etadigan "Konstitusiya" kuni rasmiy tadbir sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Endilikda kelajak avlodni tarbiyalashda alohida ro'l o'ynayotgan sharaflig kasb egalari mehnatini ulug'laydigan "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", o'tgan ajdodlar yodini esga olishga bag'ishlangan "Xotirlash va qadrlash kuni" tadbirlari mamlakatimizda keng nishonlanmoqda.

Seminarlarni tashkil etish ham ma'rifiy tadbirlardan hisoblanadi. U ilmiy, amaliy, o'quv jarayonlari –insonlarga ilm berish, bilimlarni mustahkamlash maqsadida tashkil etiladi. Seminar-bu ma'lum mavzuga bag'ishlangan axborotni tegishli soha mutaxassislariga yetkazish vositasidir.

Seminar turlari:

- ish tajribasini ommalashtirish;
- kasbiy malaka va maxoratni oshirishga oid ma'lumotlarni yetkazish;
- tashkilot yoki jamoa faoliyatiga oid ma'lumotlarni berish;
- aniq bir muammoga e'tiborni qaratish yuzasidan statistik ma'lumotlar tahlilini berish;

Seminarlarni tashkil etish tartibi:

- mavzuga oid materiallarni to'plash;
- tegishli mutaxassislarni jalb etish;
- seminar dasturi va taklifnomasini ishlab chiqish;
- qatnashchilar royxatini tuzish;
- seminar o'tish joyini mavzuga oid ko'rgazmali qurollar bilan jihozlash;

- texnik vositalar bilan ta'minlash (ekran, proyektor, video-audio magnitofon, mikrofon).

Seminarlarni tashkil etish davomida qo'llanilishi tavsiya etiladigan samarali usullar:

- an'anaviy ma'ruza;
- ilgarilangan ma'ruza;
- taqdimot.

Seminarlar tashkil etishning namunaviy mavzulari:

- «Shoir, yozuvchilar ijodi bilan tanishuv»;
- «Yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qaror, buyruq, farmoyish, tavsiyalar bilan tanishuv»;
- «Ilg'or ish tajriba minbari»;
- «Tashkilot, korxonalar yoki ta'lim muassasalarining erishgan yutuq-dari»;
- «Meyoriy hujjatlar bilan tanishuv»;
- «Tadbirlarni tashkil etishga oid masalalar» va hokazo.

Yoki davra suhbatini olaylik. Davra suhbatini – g'oyalar yoki ma'lum bir muammo yechimini hamkorlikda topishning samarali shaklidir. Davra suhbatida ishtirokchilar biror bir mavzu bo'yicha o'z bilimlarini chuqurlashtiradi, mavjud bilimlarini qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi va jamoada ishlashni o'rganish orqali taklif etilgan fikrlar orasidan oqilonasini tanlab olish asosida, yagona fikrga kelish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Davra suhbatlari turlari:

- g'oyani rivojlantirishga bag'ishlangan;
- muammoning yechimini topishga qaratilgan;
- global muammolarga jamoatchilik e'tiborini qaratishga mo'ljallangan;
- yoshlarning ijod namunalarini namoyish etishga bag'ishlangan.

Davra suhbatlarini tashkil etish tartibi.

1. Tayyorgarlik davri:

- davra suhbatini mavzusini va ko'riladigan masalalarni aniqlash uchun so'rovnomalar o'tkazish;
- qatnashchilarga oldindan davra suhbatini mavzusini e'lon qilish;
- mavzuga oid materiallarni to'plash.

2. Tashkiliy davr:

- qatnashchilardan guruhlarni shakllantirish;
- davrani olib boruvchini tayinlash;
- olimlar, san'at ustalari, tajribali mutaxassislarini jalb etish;
- mavzuga oid metodik qo'llanma, adabiyot, maqolalar, statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- davra suhbatini o'tkazish tartibi (senariysi)ni ishlab chiqish.

Davra suhbatlarini tashkil etish davomida qo'llanilishi tavsiya etiladigan samarali usullar:

- aqliy hujum;
- brifing;
- yozma va og'zaki davra suhbatlari;
- insert.

Davra suhbatlarini tashkil etishning namunaviy mavzulari:

- «Yozuvchi, shoir, olimlar ijodi bilan yaqindan tanishish»;
- «Muammolarni o'rganish, taxlil etish asosida ularning samarali yechim variantlarini izlab topish»;
- «Ilg'or ish tajribasini o'rganish»;
- «O'z kasbining mohir, ijodkor ustalari bilan bevosita muloqot o'tkazish»;
- «Yosh mutaxassislar bilan ishlash»;
- «Meyoriy hujjatlar bilan tanishtirish»;
- «Tadbirlarni tashkil etishga oid masalalar» va hokazo.

Mavzuviy uchrashuvlar (tematik kechalar) - ma'lum bir tantanali sanaga, qiziqarli mavzuga yoki biror-bir ijtimoiy ahamiyatli hodisaga bag'ishlangan sohaning yetuk namoyondalari bilan o'tkaziladigan tadbirdir.

Mavzuviy uchrashuv turlari:

- ijtimoiy ahamiyatli hodisalarni o'rganish;
- san'at va madaniyat sohasi bilan tanishish;
- fan arboblari, fahriylar, ustozlar ish tajribasini o'rganish;
- huquq-tartibot organlari vakillari bilan muloqot;
- mudofaa va davlat idoralari vakillari bilan muloqot;
- tibbiyot muassasalari vakillari bilan muloqot.

Mavzuviy uchrashuvlarni tashkil etish tartibi:

- uchrashuv dasturini ishlab chiqish va taklifnomalarni tayyorlash;
- olimlar, san'at ustalari va tajribali mutaxassislarni taklif etish;
- mavzuga oid ko'rgazmali qurollar bilan zalni jihozlash;
- davrani olib boruvchini tayinlash;
- texnik vositalar bilan ta'minlash (ekran, proyektor, video-audio magnitofon, mikrofon).

Mavzuviy uchrashuvlarni tashkil etish davomida qo'llanilishi tavsiya etiladigan samarali usullar:

- brifing;
- og'zaki davra suhbatlari;
- an'anaviy ma'ruza;
- ilgariangan ma'ruza;
- taqdimot.



Mavzuviiy uchrashuvlarni tashkil etishning namunaviy mavzulari:

“Davlat va fan arboblari, fahriylar, ustozlar, turli yutuqlarga erishgan shaxslar bilan uchrashuvlar”;

“San’at, madaniyat, sport va boshqa sohalarning yetuk namoyondalari bilan uchrashuvlar”;

“Davlat hokimiyati, mudofaa, huquq-tartibot idoralari, tibbiyot muassasalari va ma’uriyat vakillari bilan ijtimoiy hodisalarga bag‘ishlangan uchrashuvlar” va hokazo.

Tadbirlarni tayyorlash jarayonida quyidagi amaliy ishlarni bajarish, masalan, sahna ko‘rinishlari tashkil etishning namunaviy mavzulari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- tegishli mavzularga oid ijobiy va salbiy obrazlarni yoritish;
- muammoli, ziddiyatli vaziyatlarning mazmun – mohiyatini ochib berish;
- tarbiyaviy mavzularni yoritish;
- ko‘ngilochar, qiziqarli hajviyalar, hangomalar;
- so‘z ustalari;
- musiqali, teatrlashtirilgan namoyishlar.

Bayramlar – xalq hayoti va turmushiga singib ketgan, avloddan-avlodga meros bo‘lib kelayotgan, muayyan sana, ma’lum vaqt ichida muntazam uyushtirilib turiladigan madaniy-ommaviy tadbirlardir. Bayramlar ijtimoiy, madaniy va ma’naviy sohalardagi yutuqlarni namoyish etuvchi, erishilgan yutuqlar asosida yoshlarni tarbiyalovchi muhim vositadir.

Bayram turlari:

- Umumxalq bayramlari;
- Davlat va milliy bayramlar;
- Diniy bayramlar.

Bayramlarni tashkil etish tartibi:

- ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar uyushtirish;
- ko‘ngilochar, estetik zavq-shavq olishga bag‘ishlangan tomoshali oyin-kulgi tadbirlarini tashkil etish;
- bayramni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish;
- sahnani mavzuga mos qilib, did bilan bezatish;
- Davlat ramzlarini to‘g‘ri joylashtirish;
- ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy yo‘nalishdagi lavhalar, shiorlar bilan yoritish;
- katta zalni bayramona bezatish, o‘rindiqlarni hozirlash;
- bayramga mahalla oqsoqollari, xayriya jamg‘armalari, homiy tashkilotlar va matbuot vakillari, yozuvchilar, san’atkorlarni taklif etish;
- bayramni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan texnik va musiqiy asbob-uskunalar, boshlovchi, badiiy jamoa bilan ta’minlash.

Bayram tadbirlarini o‘tkazish usullari:

- qisqa ma’ruza (10-20 daqiqa);
- tabriklar, tilaklar, istaklar bildirish;
- she’rxonlik va mushoiralarni o‘tkazish;
- badiiy jamoalarning chiqishlari;
- turli xil tanlovlar uyushtirish.

Madaniy-ommaviy tadbirlarning yana bir ommalashgan turlaridan biri ko‘rik-tanlovlardir. Ko‘rik-tanlovlar - ma’lum bir sohadagi bilim, mutaxassislik va kasbxunarga yoshlarning qiziqishlarini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan tanlovdur.

Ko‘rik-tanlov turlari:

- ijod namunalarining ko‘rgazmasini tashkil etish asosida;
- qobiliyat va ko‘nikmalarni namoyish etish asosida;
- bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishga qaratilgan.

Ko‘rik-tanlovni tashkil etish tartibi:

- tanlov senariysini ishlab chiqish;
- qatnashuvchilar royxatini tuzish;
- ijod namunalari ko‘rgazmasini tashkil etish;
- savollar va javoblar royxatini tuzish;
- boshlovchini tayyorlash;
- hay’at a’zolarini belgilash;
- texnik vositalar va zaruriy jihozlarni bilan to‘liq ta’minlash;
- g‘oliblarni rag‘batlantirish maqsadida homiy tashkilotlarni jalb qilish.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etuvchilar tadbirlarni tashkil etishning nazariy asoslari bilan bir qatorda amaliy jihatdan tashkil etish qonuniyatlarini ham bilishi muhimdir.

## **2- amaliy mashg‘ulot. Madaniy-ommaviy tadbirlar – insonlar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan faoliyat**

*1. Bayramlar- ommaviy madaniy tadbirlarning oliy shakli*

*2. Madaniy-ommaviy tadbirlar –insonlarning bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazishga qaratilgan faoliyatdir*

O‘rta Osiyoning boshqa xalqlari qatori vodiy o‘zbeklari an’anaviy dehqonchiligi ham sharq xalqlari taqvimida asosida olib borilgan. Bahorgi dala ishlari, mahalliy taqvimga ko‘ra, yangi yil - quyoshning baliq (xut) burjidan qo‘y (xamal) yulduzlar turkumiga o‘tgan vaqtdan boshlangan. Hozirgi amaldagi oy kalendari bo‘yicha bu 21 martdan boshlanib 21 aprelgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Boshqachasiga, dastlabki dehqonchilik yumushlari Navro‘z tantanalari bilan bir paytda boshlangan.

Navro‘z bayrami, uning vujudga kelishi va tarixi haqida ko‘plab qadimiy sarchashmalarda, jumladan, Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Umar Xayyomning «Navro‘znoma», Firdavsiyning «Shoxnoma», Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» va boshqa olimlarning qator asarlarida, zardushtiylik (mazdaparastlik) diniga oid manbalarda qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Ularning ko‘pchiligi mifologik, afsonaviy mohiyatda bo‘lsa-da, ma‘lum darajada haqiqatni aks ettiruvchi, ma‘naviy merosimiz xazinasiga mansub durdonalardir.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko‘ra, Navro‘zning shakllanish davri -eng qadimgi zamonlardan „zardushtiylik“ning paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga oladi.

XVII-XVIII asrlar tarixiy va adabiy manbalarida Navro‘z to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kam uchrasa-da, XIX asrga kelib xalq orasida bayramlar, tomosha-yu sayillar o‘tkazish ko‘proq ko‘zga tashlana boshladi. Abdulaxadxon, Said Olimxon xukmronligi yillarida Buxoroda Navro‘z bayramida san‘atkorlar, xonanda, raqqos va masxarabozlar xalq sayillariga fayz bag‘ishlaganlar. Turli bayram taomlari pishirilgan, sumalak, xalim, ko‘k somsa, yalpiz chuchvara kabilar dasturxonlarni bezagan. Yurtimizning turli hududlarida "lola sayli", "sumbula sayli" va "qizil gul" sayli kabi marosimlar utkazilgan.

Mashxur mutafakkir olim Abu Rayxon Beruniy Navro‘z tarixi haqida shunday yozadi: "Eron olimlarining ba‘zisi shu kunni "Navro‘z " deb atashining boisi shundaki, Jamshid (qadimgi Eron shoxlaridan biri) podshox bo‘lgach, majusiylar dinini yangiladi. Ushandan buyon shu yangilanish e‘lon kilingan kun "Navro‘z - Yangi kun" deb ataladi.

Biroq, bahor bayrami Jamshidshoxdan ham oldin nishonlanganligi haqida Umar Xayyomning "Navro‘znoma" asarida qayd etilgan.

Navro‘z sobiq sovetlar davrida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa qismlarida ochiq nishonlanmagan. Bir necha ming yillik tarixga ega bu bayram O‘zbekistonda ayniqsa 1980-yillarga kelib rasman taqiqlangani haqida ma‘lumotlar bor. Bu davrga kelib, deydi yakin tarixni sharxlayotgan ayrim mutaxassislar, O‘zbekistonda milliylik tuyg‘usi kuchaya boshlagan. Mustaqillikdan keyin esa Navro‘z davlat miqyosida keng nishonlanadigan bayramga aylandi. Dastlab madaniy ayyom sifatida qurilib, xalq sayli sifatida tantana kilingan Navro‘z bugunga kelib ancha siyosiy-rasmiy tus olgan. Sobiq sovetlar davrida Navro‘zning taqiqlanishi ikki bosqichda kuzatilgan. "Avval 1920-yillarda „xudosizlar jamiyati“ni tuzish davrida, odamlarni dindan voz kechasan, deb majburlash paytida, Navro‘z

ham taqiqlangan bayramlar qatoriga kirgan", — deydi tarixchi olim Fayzulla Isxoqov.

«Ikkinchi jaxon urushi»dan keyingi yillarda Navro'zni «qozon to'ldi» deb ham atashgan. O'troq turkiylar bu bayramda yetti xil ovqat qilishgan. Uni yangi yil sifatida kutishgan. Keyingi yilgacha qozonimiz to'lib tursin degan ma'noda. Ayrim joylarda lola bayrami sifatida nishonlangan", — deydi Xayitboy Abdullaev.

Xullas, xalqimiz bu bayramda bayramona yasanib, saylga chiqishlari, xilm-xil taomlar tayyorlashi, qushiqlar aytishi, turli xil o'yin-kulgilar va bellashuvlar, musobaqalar o'tkazishi Navro'z bayramining udumlaridan xisoblanadi.

**Xo'sh, dunyoning boshqa mamlakatlarida bu ayyom qanday nishonlanadi? Turkiyada.** 21 mart Yangi yil bayrami sifatida keng nishonlanadi. Turkiyada, umuman, Navro'z bayrami nishonlanadigan xalqlarda bomdod namozidan so'ng odamlar qabristonlarni ziyorat qilishadi, qabrlarning atrofini tozalaydilar, o'tganlarning ruhiga duo o'qiladi.

**Boshqirdistonda.** Mahalla oqsoqollari tomonidan saylab qo'yilgan bayram tashkilotchisi bir guruh yosh yigitlar bilan qishloqdagi barcha xovlilarni aylanib chiqadi. Ular xar bir xonadon sohiblarini tadbirkorligi va sahiyligi uchun maktab, ezgu-tilaklar bildirishadi. Uy egalari esa yigitlarga turli noz-ne'mat va kiyim-kechaklar sovg'a qiladilar. Yangi yil bayrami kuni bu yurtda yugurish, raqs va qo'shiq aytish bo'yicha bir - biridan qiziq musobaqalar o'tkaziladi.

**Afg'onistonda.** Navro'z qadimdan bayram sifatida nishonlanadi. Afg'onistonda xukumat almashganidan keyin nishonlanayotgan birinchi rasmiy bayram ham Navro'zdir. Mamlakatda Navro'z bayrami mahalliy xalq orasida "Dehqon kuni" deb ham ataladi.

Navro'z bayrami bilan bog'liq eng qiziq udum va irimlar **Qurdiston, Eron va Shimoliy Hindistonda** istiqomat qiluvchi ayrim qavmlarda saqlanib qolgan. Bu o'lkalarda bayram dasturxoniga albatta ko'zgu qo'yiladi (Kuzgu o'tmishni aks ettirib, kelajakni ko'rsatadi, degan ma'noda). Dasturxonga sham (yorug'lik ramzi) va baliq solingan idish (baxtli hayot timsoli) qo'yiladi.

**Xitoyda.** Xitoy Xalq Respublikasining G'arbiy hududlarida Navro'z nafaqat turkiyzabon qavmlar, balki xitoyliklar tomonidan ham keng nishonlanadi. 21 mart kuni odamlar yorqin liboslarga burkanishib, qo'llarida guldasta va loydan yasalgan ho'kizlarning haykalchalari bilan ibodatxonaga yo'l olishadi. Bayramning eng ulkan - bosh ho'kizi esa bambuk va qog'ozlardan yasaladi. Jonivor olov, suv, temir, daraxt va yer ramzlarini anglatuvchi – qora, oq, qizil, yashil va sariq ranglarga boyaladi. Bayram qizigan bir pallada barcha haykalchalar mayda-mayda qilib sindirilib, bambukdan yasalgan ulkan ho'kiz olovda yondiriladi.

**Buxoroda** bu - dehqonchilik bayrami «Navro'z i kishavarzon» — «dehqonlar bayrami» deb nomlangan. Zardushtiylarda yil fasllari bilan bog'liq bayramlar,

Navro‘z, oylar bayrami, ajdodlar e’tikodi, turli duolar aytish, poklanish marosimlari, o‘smirlarni zardushtiylikka qabul qilish (sidrapushlik oq libos kiyib, belbog‘ bog‘lash) va boshqa tantanalar muhim ro‘l oynagan.

Har bir mamlakatning bayram va shodiyonalari o‘zida mana shu xalqning tarix mobaynida erishgan yutuqlari va bosib o‘tgan yo‘lini mujassam ettiradi. Bugungi kunda O‘zbekistondagi bayramlar xilma-xil bo‘lib, ular davlat, diniy, kasbiy va xalqaro kabi turlarga bo‘linadi. Mazkur bayramlar hukumat tomonidan dam olish kuni sifatida e‘lon qilingan.

1 Yanvar – Yangi yil. Yangi yil bayrami Yuliy kalendariga asosan 1-yanvar kuni nishonlanadi.

14 Yanvar – Vatan himoyachilari kuni. O‘zbekiston qurolli kuchlar bayrami g‘urur va iftixor bilan o‘tadigan va keng nishonlanadigan bayram.

8 Mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni. Nazokat, nafosat, go‘zallik, sevgi bayrami hisoblangan Xalqaro xotin-qizlar kuni ham O‘zbekistonda ommaviy tarzda nishonlanadigan bayram hisoblanadi.

21 Mart – Navro‘z bayrami. Mazkur bayram mintaqada uch ming yildan buyon sharq yilnomasiga muvofiq yangi yilning kirib kelishi sifatida nishonlanib kelinmoqda.

9 may – Xotira va qadrlash kuni. Shu kuni qariyalar holidan xabar olinadi, qabristonga borilib, u yerlar obod qilinadi, o‘tganlarning yorqin xotirasi esga olinadi.

1 sentabr – O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni. O‘zbekistonning rasmiy milliy bayrami. O‘zbekiston Respublikasining Mutaqillik kuni 1991 yilning 31 avgustida e‘lon qilingan va har yili 1 sentabr kuni nishonlanadi.

1 oktabr – Ustoz va murabbiylar kuni. O‘quvchilar o‘zlarining ustoz va murabbiylarini bayram bilan tabriklaydilar va bu bayram ta‘lim muassasalarida mamlakat miqyosida nishonlanadi.

8 dekabr – O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi qabul qilingan kun. Shak-shubhasizki, mazkur kun O‘zbekistonni suveren va demokratik davlat bo‘lib shakllanishi, rivojlanishida muhim o‘rin tutgan kun hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. Shuning uchun ham har yili ushbu kun alohida bayram sifatida nishonlanadi.

Shuningdek, “Iyd al- Fitr” va “Qurbon Hayit” kabi diniy bayramlar ham bo‘lib, ularning sanalari har yili har xil vaqtga to‘g‘ri keladi. Mazkur bayramlar butun islom olamida ommaviy tarzda nishonlanadi. Bu bayramlar Islom olamida keng nishonlanadi.

#### **Amaliy mashg‘ulot:**

Yuqorida berilgan bayram kunlari bo‘yicha aniq bir bayramni tanlab, uning kelib chiqish tarixini aniqlash lozim bo‘ladi. YA’ni, nima uchun, masalan, 8-Mart -

Xalqaro-xotin qizlar kuni aynan 8-mart kuni nishonlanadi yoki nima uchun aynan 21-noyabr –Xalqaro talabalar kuni deb e’lon qilingan, mazmunidagi savollarga javob topish kerak bo’ladi.

## **2. Madaniy-ommaviy tadbirlar –insonlarning bo’sh vaqtlarini samarali o’tkazishga qaratilgan faoliyatdir**

Madaniy-ommaviy tadbirlar - insonlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishga, ularning ma’naviy olamini kengaytirishga, ma’naviy va estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkiliy va ijodiy ishlar uyg’unligida vujudga keladigan faoliyatdir. Madaniy-ommaviy tadbirlarning eng yaqqol ko’rinishlaridan bo’lmish bayramlar boy tarixga ega bo’lib, uning ildizi qadimgi xalqlarning urf-odatlariga, marosimlariga taqaladi. Ommaviy bayram va tomoshalar paydo bo’lish jarayonlarini, turli yo’nalishlarining shakllanishini bilish bunday murakkab sintetik janrni o’rganayotgan bo’lajak rejissyorlarga juda ham zarur. Shuning uchun ham ommaviy bayram va tomoshalar asosini amaliy o’rganishda bu janrning rivojlanish yo’lini, uning xilma-xilligini va asosiy bosqichlarini o’z ichiga olgan nazariy ma’ruzalar ham o’qiladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish –ularning turlari xususiyati jihatidan yondoshishni talab etadi.

### **Madaniy tadbirlar turlari**

Davra suhbatlari

Mavzuli kechalar

Ko’rik-tanlovlari

Viktorinalari

Bayramlari

Konsertlari

Debat

Spektakl (sahna ko’rinishlari)

Kinofilmlar namoyishi

Yubiley, tug’ilgan kunlari

Uchrashuvlari

Teatrlashtirilgan (badiiy) sport tomoshalari

Ko’rgazmalarni tashkil etish

Tarbiyaviy soatlar

Madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar

Muzeylar, madaniyat va san’at maskanlariga, teatr, konsertlar, tomoshagohlarga, ziyoratgohlarga, dam olish maqsadida, ekologiya masalalari bo’yicha tabiat qo’yniga ekskursiyalar-tashriflar

### **Tadbirlar o‘tkazish bo‘yicha taxminiy mavzular nomlari**

Masalan: **Giyohvandlikka qarshi kurash mavzulari:**

Biz giyohvandlikka qarshimiz!

Giyohvandlik asr vabosi

Giyohvandlikdan saqlaning!

Sog‘lom turmush tarzi

Giyohvandlik – yomon illat!

Yoshlar –giyohvandlikka qarshi!

**Vatanni ulug‘lash, mustaqillikning qadriga yetish, jamiyatga foydali inson bo‘lib yetishish kabi mavzular:**

“Mustaqillik - oliy ne‘mat!

“Hurlik timsolisan, ona Vatanim!”,

“Vatan yagona, Vatan muqaddas!”,

do‘stligi – yurt boyligi”,

“Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo‘lamiz”,

“Milliy an‘ana va urf-odatlar –millatimiz timsoli”,

“Ma‘naviy tarbiya va milliy musiqa”

“Millatlararo birodarlik – azaliy odat”,

“Yagona oila farzandlarimiz”

– umumiy uyimiz!”

“Konstitutsiya va o‘zbek milliy davlatchiligi an‘analari”,

“O‘zbekiston – suveren demokratik Respublika”,

“Davlat – bu xalq hokimiyati”,

“Davlat hududi mustaqillik nishonasi”,

“Til – davlat belgisi”,

“O‘zbekistonning davlat ramzlari - yurtimiz shuuri”,

“Xalq hokimiyatchiligining asosiy shakllari”,

“Demokratiya va inson huquqlari”,

“Ijtimoiy adolat va qonunchilik”,

“Konstitutsiya va qonun ustuvorligi”,

“Konstitutsiya – huquqning asosiy manbai”

Sport, ekologiya, sog‘lom turmush tarzi mavzulariga oid tadbirlar

“Biz sog‘lom avlodlarmiz”,

“Sog‘lom hayot – sog‘lom kelajak”,

“Asrimiz pahlavonlari”,

“Hamisha sog‘lom bo‘l bolajon”,

“Tabiat – ijodkor”,

“O‘zbekiston tabiati”,

“Qushlar bizning do‘stimiz”,  
 “Antiqqa o‘simliklar dunyosi”  
 “Bog‘ning yashil tabiati”,  
 “Bog‘ning jonli burchagi”  
 “Kelajak ovozi”

Tematik kechalar, davra suhbatlari, debatlar

“Reproduktiv salomatlik - jamiyat sog‘lomligi”  
 “Qizlar ibosi bilan go‘zal”  
 “Jinoyatchilik, giyohvandlik va diniy eksterimizmga qarshi kurashish – barchamizning vazifamiz!”

Yubiley tantanalari:

“She‘riyat mulkingning sultoni”  
 “She‘riyat bo‘stoni” kabilar madaniy-ommaviy tadbirlar turlariga kiradi.

“Davra suhbatlari”

Hozirgi kunda eng ko‘p va eng tez tashkil qilinadigan tadbir turlaridan biri – bu davra suhbatidir. Davra suhbatlari – nomlanishidan ma‘lum bo‘lib turibdiki, ma‘lum davra doirasida, aniq mavzular atrofida suhbat tariqasida tashkil etiladi. Tadbirning bu turini tashkil etishda juda katta tayyorgarlik olib borilmasligi ham mumkin. Bitta dolzarb mavzu atrofida suhbat boradigan bo‘lsa, bitta yoki ikkita shu mavzu bo‘yicha ma‘lumot beruvchi, qolganlar esa tinlovchi sifatida ishtirok etishi mumkin. Bu davra suhbatining eng sodda shakllaridan hisoblanib, juda tez tashkil etilishi bilan e‘tiborga molik. Masalan, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida o‘tkazilgan “ISHID fitnasi” mavzusida o‘tkazilgan tadbirda Mirzo Ulug‘bek tumani ichki ishlar xodimlaridan 2ta vakil kelib, qisqa, lo‘nda qilib, ma‘ruzani o‘qidilar. Institutdan esa bu tadbirni o‘tkazish bo‘yicha ma‘sullar hamda talabalardan bir nechtasi chiqib o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Savol –javoblardan so‘ng tadbir o‘z yakunini topdi. Bunday tadbirlarda ma‘sullar kerakli jihozlarni tayyorlash bilan chegaralanadilar. Masalan, mikrofonlar, proyektorlar va boshqalarni tayyorlab beradilar. Bunda aktyorlar bilan ishlash, repititsiyalar o‘tkazish kabi ishlar amalga oshirilmaydi. Bu tadbirni o‘tkazish uchun ssenariy yozish yoki maxsus rejissyor taklif etish ham shart emas.

Davra suhbatlarining bunday oddiy shaklidan juda ko‘p marta foydalanamiz. Lekin, har qanday holatda ham tadbirni tashkil etishda ssenariy rejasi, taklifnoma yoki dasturlar ishlab chiqilishi shart.

Davra suhbatining murakkab shaklda tashkil etilganlik formalari ham bor. Mavzuga oid ma‘lumotlarni yetkazish shakli ustida bosh qotirish, turli sahna ko‘rinishlari, konsert dasturlari ishtirokida o‘tadigan davra suhbatlarini tashkil etishda albatta tashkil qiluvchi, sahnalashtiruvchi ijodkorning ishtiroki talab etiladi.



Juda ko‘p holatlarda o‘tkazilayotgan davra suhbatlari –ma’lumotlarni yetkazish bilan chegaralanib qoladi. Bunda ma’lumotlarning insonlar ongiga ta’sir qilish darajasi past bo‘lishi mumkin. Aslida esa, ma’lumotlarni yetkazish bilan bir vaqtda ularga ta’sir qilish, ularning ongini ezulik tomonga yo‘naltirish, eng asosiysi g‘oyaviy talqin masalalariga katta e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Misol uchun, giyohvandlik bo‘yicha tadbir tashkil etish lozim, degan topshiriqni oldingiz. Bu davra suhbatini faqat ma’ruza qilish orqali o‘tkazsak, uning ta’sir ahamiyati juda past bo‘lishi mumkin. Bu tadbirni tashkil etish uchun maxsus, badiiy jihatdan mukammal ssenariy yozish hamda uni o‘tkazish yoki sahnalashtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi ma’sul xodim ham tayinlanishi kerak bo‘ladi. Rejissyor yoki ssenarist shu tadbirni o‘tkazishning rejasini to‘liq ishlab chiqadi va repititsiyalarni tashkil etadi. Giyohvandlikka qarshi kurash bo‘yicha turli foto-ko‘rik-tanlovlar, ko‘rgazmalar, turli xil slaydlar, sahna ko‘rinishlari, kuy-qo‘shiqalar va boshqa san’at turlaridan unumli foydalanish lozim bo‘ladi. Giyohvandlikning zararli oqibatlarini turli vositalar orqali insonlar ongiga yetkazish va ularga ta’sir qilish, bu illatdan qutulishga yordam berish, uning zararli oqibatlarini ishonarli dalillar bilan tushuntirish yo‘lidan borish tadbirning salmog‘ini oshiradi.

Shu tadbirda spektakllardan parchalarni berish mumkin. Ammo, spektaklni to‘liq qo‘yish shart emas. Masalan, N.Qobilning “To‘da” asaridan parcha olib kichik sahna ko‘rinishini tayyorlash mumkin.

Odatda, davra suhbatlari ko‘pincha og‘zaki shaklda, suhbat tariqasida o‘tadi. Ikki tomonning, ya’ni tinglovchi va ma’lumot beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarga badiiylik nuqtai nazardan yondoshish hamda ijod namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirlarni tashkil etishda yana shuni e’tiborga olish kerakki, tadbir –tadbir uchun, kimdir shuni o‘tkazgin, deb aytgani uchun emas –aniq tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o‘tkazilishi lozim.

Davra suhbatlarining yana bir jihati shundaki, bu juda tez, favqulotda bajarish lozim bo‘lgan masalalarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

#### Badiiy sport tomoshalari

Sport va san’at sohalari mamlakatimizni dunyoga tarannum qiluvchi o‘ta katta qudratli vositalardan biri ekanligi hammamizga ma’lum.

Badiiy sport tadbirlarini tashkil etishdan maqsad –sog‘lom turmush tarzi, insonlar salomatligi, ularning ham ma’nan ham jismonan yetuk bo‘lishlari, bir so‘z bilan aytganda – insonlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularga ma’nan hamda jismonan madad berish,

Yurtimiz mustaqillikka erishgach sport tomoshalarining badiiy jihatlariga katta e’tibor berila boshlandi. Shu jihatdan olib qaralganda yurtimizda sport

ishlarini yanada takomillashtirish borasida ko‘plab hayrli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston televideniya-sida “Sport” kanalining faoliyati bunga misol bo‘la oladi.

Sport va san‘at – bu mamlakatni boshqa yurtlarga tanishtiruvchi vosita, elchi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatida sport va san‘atni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlar, farmoyishlariga guvoh bo‘lamiz. «Sog‘ tanda sog‘lom aql» deganlaridek, jamiyat uchun ham sog‘lom insonlar zarurdir.

San‘at noziklikni, mayinlikni, jozibadorlikni, sport esa qat‘iyatni, jismoniy baquvvatlilikni, qattiqqo‘llikni talab qiladi. Tashqaridan qaraganda bu ikki hodisani bir-biriga bog‘lash mumkin emasday tuyuladi. Bunday muvaffaqiyatli uyg‘unlikka faqat teatrlashtirish usullari orqali erishish mumkin.

Teatrlashtirilgan sport tomoshalariga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Afinada bo‘lib o‘tgan Olimpiada oyinlarining ochilish va yopilish qismlaridagi teatrlashtirish usullarining yuksak mahorat bilan qo‘llanganligi bunga misol bo‘la olishi mumkin.

Har bir tadbir tomoshasini sahnalashtirish jarayonida rejissyor o‘z oldiga oliy maqsadni qoyadi. YA’ni, bunday tadbirlar tomoshalarning bir-biriga beg‘araz, nafrat ko‘zi bilan qarashiga yo‘l quymasliklari, bir-birlariga nisbatan dushmanga aylanib qolmasliklari, bir-birlarini raqib sifatida emas, do‘st, aka-uka sifatida qabo‘l qilishga, mag‘lubiyatni tan olib, yanada ko‘proq mehnat qilishlarini tushunib olishlari va eng asosiysi bir-birlariga hurmat nuqtai nazarida munosabatda bo‘lishlariga erishish lozim.

Badiiy sport tomoshalarining yaqqol namunalarini turli sport musobaqalari, Olimpiada o‘yinlarining ochilish yoki yopilish marosimlarida kuzatish mumkin.

Sport va san‘at alohida soha bo‘lsalar ham ularning asl maqsadlari bir xildir.

Badiiy sport tomoshalarini tashkil etish asosan musobaqa, bellashuvlar asnosida tashkil etiladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- sport maydonini, ya’ni tadbir o‘tadigan joyni o‘rganish;
- sportchilar va san‘atkorlar chiqishlarini ketma-ketligini ishlab chiqish;
- sport va san‘at uyg‘unligiga erishish;
- sport sohasini badiiylashtirishga oid usullarni ishlab chiqish;
- replititsiyalarni tashkil etish va boshqa ish jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil qilish va ishlarni rejalashtirish;

Badiiy sport tomoshalarini o‘tkazishda tadbir tashkilotchilari sport va ijod sohaslarining uyg‘unligiga erishishla

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlari, bir so‘z bilan aytganda ma’naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Bu borada

Prezidentimiz va hukumatimizning ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, madaniyat, san'at va g'oyaviy yo'nalish borasida olib borilayotgan hayotiy va odilona siyosati muhim omil bo'lib xizmat etmoqda. Zero, gap ma'naviyat, mafkura, g'oya, san'at, madaniyat va ma'rifat haqida borar ekan, unda madaniy tadbirlarning jamiyat taraqqiyotidagi muhim ahamiyati beqiyosligini hech kim inkor etolmaydi. Ommaviy san'at asarlari hisoblangan teatr, kino yoki ommaviy tadbirlarni mazmunli, maqsadli niyatga erishishda san'atning barcha turlaridan foydalaniladi va tomoshabinlarga taqdim etiladi. Ammo, deyarli tashkil etiladigan barcha tadbirlarning asosida ma'naviy, tarbiyaviy va ahloqiy, ma'rifiy jarayonlarning yotganligiga shubha yo'q.

nom bilan madaniy-tadbirlar deb aytsak to'g'ri bo'ladi.

Madaniy tadbirlar turlari to'g'risida gap borganda, ma'lum ssenariy asosida o'tkaziladigan barcha tadbirlar majmuini - madaniy tadbirlar deyish mumkin. Turli janrlarda tashkil etilgan konsertlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, mavzuli kechalar, viktorina, ya'ni ko'rik-tanlovlar, debat, badiiy-sport tomoshalari, bayramlar va boshqalar madaniy tadbirlar turlaridir. Madaniy tadbirlarni tashkil etish - ularning turlaridan kelib chiqqan holda yondoshilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, davra suhbatini olaylik. Davra suhbatini, rasmiy bo'lmagan holatda, kichik auditoriyalarda, ma'lum bir mavzu atrofida suhbat tariqasida tashkil etiladi. Shunga ko'ra madaniy tadbirning bu turida katta tayyorgarlik ko'rishga unchalik ham hojat bo'lmasa kerak. Sababi, bunda bir yoki ikki kishi asosan, o'sha mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi (yoki ma'ruza qilishi ham mumkin) va undan keyin savol-javob tariqasida fikrlar almashinib, birgalikda xulosalar chiqariladi. Masalan, "Reproduktiv salomatlik" bo'yicha o'tkaziladigan davra suhbatiga o'sha soha bo'yicha mutaxassislar taklif etiladi va yosh oilalar yoki qizlar ishtirokida tashkil etiladi. Bunda tashkiliy yoki ijodiy ishlarga katta mehnat sarf qilinmasligi ham mumkin. YA'ni rassom chaqirib sahna bezagi, rejissyor taklif qilib dastur ketma-ketligini va boshqa ishlarni amalga oshirish shart emas. Buni har qanday sharoitda, hattoki oddiy sharoitda (kichik auditoriyalarda) ham o'tkazib yuborish mumkin. Lekin tadbirga badiiy va ijodiy jihatdan yondoshish tadbirning salmog'ini oshiradi. Masalan, o'sha xududga tegishli bo'lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan havaskorlik kollektivlari ishtirokida shu mavzuga mos repertuarlardan kiritilsa, tadbir yanada ta'sirchan bo'lishi mumkin.

Madaniy tadbirlarning juda ko'p qo'llaniladigan turlaridan biri –*konsertlarni tashkil etishdir*. "Konsert" tushunchasi lotinchadan "o'zishaman" degan ma'noni anglatadi. Konsertlar o'z tuzilishiga qarab turlicha bo'ladi. Yakkaxon (solo) konsert, guruhlar, gala konsert va h.k. U.Qoraboev o'zining "Badiiy ommaviy tadbirlar" kitobida konsertlarni 3 turini, ya'ni oddiy (filarmonik) konsert, teatrlashtirilgan

konsert hamda ma'lum bir mavzu asosida o'tkaziladigan konsert turlarini ko'rsatib o'tadi.

Oddiy filarmonik konsertda boshlovchi tomonidan konsert dasturi e'lon qilib boriladi. Kuy-qo'shiqlar bir-biriga mavzu jihatidan turlicha, bir-biriga bog'lanmagan bo'lishi mumkin. Konsertning bu turi insonlarni dam olish, xordig'ini chiqarish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda ko'p qo'llaniladi.

Teatrlashtirilgan konsertlar esa murakkab ijodiy va tashkiliy jarayonlarni talab qiladigan turlaridan hisoblanadi. Bunda konsert ma'lum bir g'oya, mazmun va voqeaning qizil chizig'iga joylashtiriladi. Hamma kuy-qo'shiqlar ham ham bunda tadbirga mos kelavermaydi. Masalan, "Navro'z" bayramida gruzincha "Lezginka", ruscha "Katyusha" yoki "G'alaba kuni"(Den Pobedi) kabi kuy-qo'shiqlar mos kelmaydi. Teatrlashtirilgan konsertlarning o'ziga xosligi shundaki, bunda dastur teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etilishi lozim bo'ladi.

Madaniy tadbirlar orasida eng ko'p ko'llaniladigan shakllardan biri *mavzuli kechalardir*.

Mavzuli kechalarda ijrochilar va boshqa qatnashchilar bir butunlikni tashkil qilganligi uchun o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy bayramlarga yaqin turadi. Mavzuli kechalar jamiyat jamoa uchun ijtimoiy jixatdan muxim hisoblangan voqealarga, sanalarga bag'ishlab o'tkaziladi.

Masalan, "IShiD fitnasi", "Qullikka rozi bo'lmang", "Milliy qadriyatlar - bizning qadriyatlar"; "Ommaviy madaniyat tahdidi va unga qarshi kurash zaruriyati", "Giyohvandlik umr zavoli" kabi mavzularidagi kechalarning o'ta muhimligini ta'kidlash mumkin.

Madaniyat va san'at maskanlarida o'tkaziladigan mavzuli kechalarni o'tkazishda belgilangan chora - tadbirlarni amalga oshirishga ijrochilardan tashqari boshqa qatnashchi-tomoshabinlar ham jalb qilinadi. Bunda tadbirning samaradorligiga erishishda tadbir ishtirokchilarini passiv kuzatuvchi emas, balki tadbirlarning faol qatnashchilariga aylanishiga erishish tadbirning saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Tadbirni tashkil etishdan asosiy maqsad, sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, barkamol insonni voyaga yetkazish kabi vazifalar qo'yiladi.

Kino –bu alohida san'at turi hisoblanadi. Ammo bugungi kunga kelib kino san'atidan aynan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish an'anaga aylanishi quvonchli holdir. Gap alohida masalan, Alisher Navoiy nomidagi san'at saroyiga borib kino ko'rish kabi maqsad nazarda tutilmayapti. Ma'lum mavzuga bag'ishlangan filmlar orqali madaniy tadbirlarni tashkil etilishi – bu insonlarni, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan mavzular uyg'unligidagi samarali ishlardandir. Masalan, tadbir boshlanishidan oldin, film namoyish etiladi va shundan so'ng film bo'yicha suhbat-munozara o'tkaziladi. Hozirda O'zbekiston ham kino yaratish bo'yicha

dunyoda nufuzli o‘rinni egallab bormoqda. Bunday san’at asarlarini yaratishda ssenarist, rejissyorlar, rassom, operator va boshqa ijodiy guruhlar samarali mehnat qilmoqdalar.

Milliy mumtoz badiiy filmlardan “Tohir va Zuhra” (rej. N.G‘aniev), “O‘tkan kunlar” (A.Qodiriy asari), “Sen yetim emassan”, “Mahallada duv-duv gap” (rej. SH.Abbosov), diniy ekstremizm, aqidaparastlik va terrorizmga qarshi kurash hamda ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish mavzuidagi badiiy filmlar “Tuzoq” (rej.B.Aynazarov), “Arosat” (rej. M.Abduxoliqov), “Sotqin”, “Aldangan ayol” (rej.H.Nasimov), xarbiy-vatanparvarlik va terrorizm, odam savdosiga qarshi kurash mavzuidagi badiiy filmlardan “Sardor -1, 2 (rej. SH.Mahbubov), “Qasamyod” (rej.M.Boymuxamedov), “Haqiqiy erkaklar ovi” (rej.J.Isoqov) kabi filmlar madaniy tadbirlardan oldin qo‘yilib, anashu filmlardagi voqealarni tahlil qilish asnosida turli tadbirlarni samarasini yanada oshirish mumkin. Undan tashqari, mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar hamda ulkan bunyodkorlik ishlari haqidagi hujjatli filmlar, o‘zbek adiblarining hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan hujjatli filmlar, buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodiga bag‘ishlangan hujjatli filmlar, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va terrorizmga qarshi kurash hamda ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish mavzuidagi hujjatli filmlar, harbiy vatanparvarlik mavzuidagi hujjatli filmlar, giyohvandlik va OITS muammolari haqidagi hujjatli filmlar, reproduktiv salomatlik haqidagi badiiy filmlar, sport va yoshlarni sog‘lomlashtirish mavzusiga oid va boshqa turli mavzularni qamrab olgan badiiy va xujjatli filmlar - tadbirlarning samaradorligini oshirishdagi eng zo‘r vositalardandir. Ulardan unumli foydalanish tadbirning saviyasini, uning ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Muzeylar, madaniyat va san’at maskanlariga, teatr, konsertlar, tomoshagohlarga, ziyoratgohlarga, dam olish maqsadida, ekologiya masalalari bo‘yicha tabiat qo‘yniga ekskursiyalar-tashriflar tashkil etish ham madaniy tadbirlar turlaridan hisoblanadi.

Debatlar ham biron-bir tadbirni o‘tkazishning sinalgan turlaridan bo‘lib, ko‘proq savol-javob shaklida tashkil etiladi. Madaniy tadbirlarning bu ko‘rinishi ko‘proq televideniya kuzatish mumkin. Boshlovchi bir mavzu bo‘yicha o‘rtaga fikrni tashlaydi. Ishtirokchilar esa mavzu bo‘yicha o‘z-fikr mulohazalarini bildiradilar. Shuni unutmaslik kerakki, barcha tadbirlar nihoyasida xulosa chiqarish lozim bo‘ladi. Debatlarda ham mavzu bo‘yicha oxirgi so‘zni xulosa sifatida berish kerak bo‘ladi. Rossiya TVlarida bu ko‘proq siyosiy tus olganligi bilan ajralib turadi. Unda hukumat nomidan ishtirok etayotgan shaxsga turli savollar beriladi.

Aslida, debatlar ko‘proq ilmiy mazmun olsagina ko‘proq samara beradi, ta’siri katta bo‘ladi. Chunki, debatlarda aniq savollar va unga aniq javob kerak bo‘ladi. Undan tashqari, debatlarini o‘tkazish uchun maxsus joy tanlanmaydi. Uni

har qanday sharoitda ham tashkil etish mumkin (ba'zi tadbirlarni o'tkazish uchun aniq auditoriya va joy kerak bo'ladi, masalan, konsert uchun sahna, sport tadbirlari uchun sport zal kabi).

Ko'rik tanlovlar ham madaniy tadbirlarning eng qiziqarli turlaridan hisoblanadi. Ko'rik-tanlovlar asosan musobaqa shaklida tashkil etiladi. Bunday tadbirlarda tomonlarning bir-biri bilan turli mavzular bo'yicha tortishuvlar, bahs-munozaralar, bellashuvlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, "O'zbekiston – vatanim manim" qo'shiqchilar ko'rik tanlovi ham eng yaxshi ijrochilarni tanlash asnosida uyushtiriladi. Bunda ijrochi o'zini-o'zi tarbiyalaydi, o'z ustida ishlaydi, g'alaba qilish uchun turli vositalarni qo'llay boshlaydi. Bu esa uning yangicha yo'nalishlarni kashf etishiga, yangilik yaratishga undaydi. Eng asosiysi Vatan, ona yurt, ota-ona, mehr –oqibat, yurt sog'inchi kabi mavzular asosida yaratilgan kuy-qo'shiqlar uning repertuaridan asta-sekinlik bilan joy egallay boshlaydi. Avvalari yengil-elpi, bachkana, qo'shiqlarni aytib yurgan bo'lsa, endi u o'zgara boshlaydi. Kuy-qo'shiqlarning ma'no-mazmunini tushuna boshlaydi, uni tomoshabinga, tinglovchiga yetkazish usullari haqida o'ylay boshlaydi, bir so'z bilan ta'sir qilish usullarini ishlab chiqa boshlaydi. Bu esa madaniy-tadbir tashkilotchisining bosh maqsadlaridan biri bo'lmog'i lozim.

Ko'rik-tanlovlar nafaqat san'at yo'nalishida, balki, faoliyatlarning barcha ko'rinishlarida tashkil etish mumkin.

Ko'rik tanlovlarning eng ko'p qo'llaniladigan shakli sport tomoshalarini tashkil etishda namoyon bo'ladi. Teatrlashtirilgan futbol, yugurish bo'yicha marafonlar, tosh ko'tarish, akrobatika, gimnastika, suzish va boshqalar shular jumlasidandir.

Ko'rik –tanlovlar xalq o'yinlarida ham namoyon bo'ladi. Ko'pkari, xo'roz, it, qo'chqor urishtirish, kurash, tosh ko'tarish, sirk tomoshalari va boshqalar xalqimizning avlodan-avlodga, nasldan-naslga o'tib kelayotgan tadbirlaridandir. Bunday tadbirlar asnosida milliy g'urur, Vatanga foydasi tegadigan ham jismonan, ham aqlan kuchlilar timsoli yotadi.

Bunday ko'rik-tanlovlarni tashkil etishda maqsadni aniq belgilash muhimdir.

Mustaqillik sharoitida madaniy tadbirlarni bevosita ta'lim va tarbiya jarayonida hamda bo'sh vaqt sharoitida o'tkazishning mohiyatini ifodalaydigan, uning yo'nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan hayotiylik, ommaviylik, ixtiyoriylik va ilmiylik tamoyillariga asoslanishini qayd etish mumkin.

Konsert va spektakllar tadbirlar ichidagi eng ta'sirchan shakllaridan hisoblandi.

Bu faoliyatlarning barchasi insonlarni bo'sh vaqtlarini o'tkazishga, ularning ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirishga, ularni yangilik, kelajak sari intilishlariga, jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishda uning turlari xususiyatidan yondoshish katta samara beradi.

*Amaliy mashg'ulot:*

*O'zbekistonda o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar turlarini aniqlash va shu tadbirga mos ssenariy dasturini tayyorlash kerak bo'ladi.*

**3- amaliy mashg'ulot: Madaniy-ommaviy tadbirlar - tarbiya vositasi sifatida.  
Madaniy-ommaviy tadbirlarda pedagogik jarayonlar  
(amaliy, 2 soat)**

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yuksaltirish masalalariga davlat darajasida katta e'tibor berila boshlandi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning natijaviyligiga erishish, iqtisodiy jarayonlarni yanada jadallashtirish, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni dunyo arenasiga olib chiqish kabi vazifalarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni rivojlantirmasdan amalga oshirish mumkin emas. Zero, inson manfaatlari, aholining moddiy, ma'naviy va estetik ehtiyojlarini qondirish, barkamol avlod tarbiyasi va boshqa shu kabi ahamiyati buyuk ishlar ham bunday ulug' maqsadlarga erishishning asosi hisoblanadi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat'iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish barcha pedagoglar va madaniy-ma'rifiy ishlar mutassadilarining asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan ham barkamol avlod tarbiyasida madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni bevosita pedagogik jarayonlar uyg'unligida tashkil etishga e'tibor qaratish muhimdir.

O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan juda katta qimmatga ega bo'lgan meyoriy-xuquqiy xujjatlar ishlab chiqilmoqdaki, bu jarayonlar samarali natijalar berishiga shubha yo'q.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat nafaqat ta'lim muassasalarida, balki, turli tashkilotlar, uyushmalar, mahallalarda, nodavlat, notijorat maskanlarida ham o'tkazilishi bu faoliyatning yosh avlod tarbiyasidagi muhim ahamiyatini belgilaydi.

Shiddat bilan o'tayotgan bu o'zgarishlar jarayonida mamlakatni taraqqiy ettirish, aholining barcha qatlamlarida hamma sohalar bo'yicha ehtiyojlarini qondirish, xalqning manfaatlariga xizmat qilish, bir so'z bilan aytganda, xalqning turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ichida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat alohida o'rin tutadi. Bu borada davlatimiz rahbarining ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, san'at va madaniyat, ijtimoiy sohalar, iqtisodiyot va boshqalarga oid

chiqarilayotgan barcha xujjatlar olib borilayotgan hayotiy va odilona siyosati mamlakatimiz taraqqiyotida muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat orqali talaba yoshlarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning tafakkurida shu jamiyatning “bir bo‘lagi” ekanligini, yurt taqdiri, kelajagi, istiqboli ularning fidokorona mehnatlari natijalariga bog‘liqligi, uning uchun ilmi, bilimli, ma‘rifatli bo‘lish, bir so‘z bilan aytganda, tarbiya masalasi muhimdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, islohotlar targ‘iboti u yoki bu shakldagi ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni amalga oshirish orqali tashkil etiladi. Bunda tadbirlar tashkilotchilari madaniy tadbirlarni tashkil etish asoslarini yaxshi bilishlari, tadbirlarni aniq maqsad va vazifalar asnosida o‘tkazishni to‘g‘ri rejalashtirishlari, undagi tarbiyaviy jarayonlar, pedagogik nuqtai nazardan yondoshuv, inson tarbiyasiga qaratilgan mavzular, g‘oyaviy yo‘naltirish masalalariga jiddiy e‘tibor qaratish - ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning natijaviyligiga olib keladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar, yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, insonlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularning ma‘naviy va estetik ehtiyojlarini qondirish, bilim berish, dam olish kabi maqsadlarni oldiga qo‘ygan holda tashkil etiladi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida bu faoliyatning o‘rni muhimdir. Shu jihatdan ham ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishda tadbirlar dramaturgiyasini yaratish, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarni qo‘llay olish, unda odob, ahloq, ma‘naviyat, ma‘rifat, jamiyat taraqqiyoti, insonlarni bilimli, ilmi qilish, erkin ijodiy fikrlash, komil insonni tarbiyalash kabi vazifalar tadbir tashkilotchisining diqqat markazida bo‘lishi mumkin.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar sifatini oshirish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mavzularda oliy ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni samarali tashkil etish, talaba yoshlarda ijodkorlik qobiliyati, tafakkurini rivojlantirishda mutolaa madaniyatini shakllantirish, madaniy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish usullari haqida so‘z boradi. Shuningdek, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar sifatini oshirish, talaba yoshlarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni to‘g‘ri va maqsadli tashkil etish, tadbirlarni tashkil etishda pedagogik jarayonlar, tarbiyaviy jihatdan yondoshish, tarbiyada yangicha usullarni qo‘llash, tashkil etilayotgan madaniy tadbirlarning inson tafakkuriga ta‘siri va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdagi ahamiyati kattadir.

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni samarali tashkil etishda to‘siq bo‘layotgan jarayonlar, ularni bartaraf qilish usullari, tadbirlarni tashkil etishning pedagogik aspektlari, tadbirlarni tashkil etish asoslarini o‘rganish, yoshlarda turli mavzulardagi tadbirlarni o‘tkazish orqali kreativlik qobiliyatini shakllantirish, kitobxonlik



madaniyatini rivojlantirish, bu jarayonlardagi muammo va to‘siqlarni yengib o‘tishga qaratilgan masalalarni o‘rganish, pedagogik hamda kreativ usullardan foydalanish, ta’sirchan vositalar, tadbirlarda qo‘llaniladigan usul va vositalarni tahlil etish jarayonlaridagi muammalarni hal qilish mazkur mavzuda to‘laqonli yoritishga harakat qilingan.

Milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘z o‘ziga kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma’naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Zotan, xalqlarning o‘ziga hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san’at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an’ana va urf-odatlarining o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning ahamiyatini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ushbu faoliyatda shaxs o‘z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o‘stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o‘ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni maqsadli tashkil etish, u orqali yoshlarda kreativlik fazilatlarini shakllantirish, ularni tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish va bunga pedagogik nuqtai nazardan yondoshish – hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Mazkur mavzu doirasida davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev hamda Vazirlar Mahkamasining shu sohaga doir Qaror, farmon va boshqa meyoriy xujjatlari o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Udan tashqari, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishga oid B.Sayfullayev va V.Rustamovlar hammuallifligida yaratilgan “Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati” o‘quv qo‘llanmasi (Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti, 2016), professor U.Qoraboyevning “Madaniy tadbirlar” (Toshkent, 2000) hamda “Badiiy-ommaviy tadbirlar” (Toshkent, 1989), professorlar M.Bekmurodov, A.Umarov hamda U.Qoraboyev tomonidan yaratilgan “Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslubiyoti” nomli darslik (Toshkent, 2016), professor A.Haydarovning mazkur mavzularga oid manbalar yaratilgan bo‘lib, ulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### ***Amaliy mashg‘ulot:***

- 1. Shu davrdan keyingi ushbu faoliyatga doir xujjatlar ro‘yxatini tuzing;***
- 2. Yuqorida berilgan qaysi xujjatlar o‘z kuchini yo‘qotgan.***

Ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishning samaradorligiga erishish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning sifatini oshirish orqali talabalarda kreativlik fazilatlarini rivojlantirishga erishish maqsadga muvofiqdir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirish orqali kreativlik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan mazkur mavzu o'ziga xos bir yangilikdir. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli va to'g'ri tashkil etish orqali yoshlarni tarbiyalash, ularning ma'naviy va estetik ehtiyojlarini qondirish, kreativ, ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, to'g'ri yo'llanma berish, har bir tadbirni tashkil etilishida uning pedagogik, ya'ni tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalar, ta'sir qiladigan usullaridan unumli foydalanish, tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri tashkil etishning o'ziga xosligi hamda bu sohadagi xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali o'rganamiz.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, juda ko'p hollarda tadbirlar xo'jako'rsinga, hisobot uchun tashkil etilganligi ma'lum bo'ldi. Talabalarni tadbirlarga jalb qilishda ularni darslardan olib chiqib, mashg'ulotlar hisobiga tashkil etilishi, tashkiliy va ijodiy ishlarda uyg'unlikning yo'qligi, "g'oyaviy talqin" masalalarida kamchiliklarning mavjudligi, o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar saviyasining pastligi, tadbir tashkilotchilari tomonidan tinglovchi (yoki tomoshabinlar)ni boshqarish usullarini bilmasliklari, ssenariylarning badiiy jihatdan mukammal emasligi va boshqa bir qancha sabablar va muammolar aniqlash, tahlil qilish va bartaraf qilish yo'l-yo'riqlarini o'rganishimiz lozim.

### *Amaliy mashg'ulot*

***1.O'zingiz istiqomat qilayotgan viloyat, tuman, shahar madaniyat muassasalarida o'tkaziladigan madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishdagi muammolar, kamchiliklarni aniqlang va ularni bartaraf qilish yo'llari haqida fikringizni ayting.***

**4-amaliy mashg'ulot. Tadbirlarda sahna ko'rinishlarini tayyorlash usullari. Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi, rejissurasi va tashkiliy jarayoni. Maydonlarda tadbirlarni o'tkazish metodikasi.**

**(amaliy, 2 soat)**

Madaniy tadbirlar dramaturgiyasi dramaturgiyaning asosiy janrlaridan biri bo'lib, ijtimoiy-madaniy faoliyatda ko'p foydalaniladi. Bu o'z o'zidan madaniy tadbirlar uchun ssenariy yozish demakdir. Talabalarga madaniy tadbirlar uchun ssenariylar yozishni o'rgatishning eng samarali usuli ularga mavzular berib, hikoyalar tuzishni o'rgatishdir. Ayniqsa o'ziga tanish bo'lgan mavzular ustida yozish talaba uchun unchalik katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Masalan, "Mening oilam",

"Mening baxtli kunim", "Men qilgan xato" va boshqa shunga o'xshash mavzular ularga yaqin bo'lganligi uchun ular yozishdan cho'chimaydilar. Bunday hikoyalarni yozish ssenariy yozishga kirishdir, deb aytsak to'g'ri bo'ladi. Hikoya ham yuqorida aytib o'tganimizdek, ma'lum maqsadga qaratilgan kompozitsion qurilish talablariga itoat etuvchi janr hisoblanadi. Unda voqelikni tahlil qilish, mantiqiy yondashish, tahlil qilish asnosida ketma-ketliklarni to'g'ri belgilashni o'rgatadi.

Ssenarist juda ko'p kitob o'qishi, katta ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishi haqida yuqorida aytib o'tgan edik. U ko'p kitob o'qish orqali ma'lumotlarga ega bo'lish bilan bir qatorda ssenariyda stilistik va orfografik jihatlarni ham o'zlashtirib boradi. So'zlarni bir-biriga ulab gap tuzish, ko'z oldiga kelgan narsani ifodalashni qog'ozga tushirishda kuzatish usuli katta samara beradi. Masalan, o'qituvchi topshiriq beradi: "Tashqariga qarang. Yomg'ir yogyapti. Anashu holatda so'z o'z ko'zlariningiz bilan ko'rayotgan holatlarni tasvirlab yozing". Bu topshiriq talabani atrofni sinchkovlik bilan kuzatishga va atrofda bo'layotgan voqeliklarni qanday so'zlar bilan ifodalashga urinib ko'rishga undaydi.

Yana bitta amaliy mashg'ulotni o'tkazish uchun o'qituvchi talabalarga topshiriq bermoqda. Vazifa shundan iborat: "Hamma o'zi tanlagan biron bir predmetga ta'rif bersin" o'qituvchi "Masalan, rejissor" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, "boshqaraman" degan ma'noni anglatadi" deb misol keltiradi. Yoki, "svetofor"ga ta'rif berib ko'raylik. Talaba svetofor haqidagi tasavvurlarini ishga solib, unga ta'rif berishga harakat qiladi. "Svetofor bu 3ta rangdan iborat bo'lgan chiroqli moslama bo'lib, transport va yo'lovchilarning yo'l harakatlarini muvofiqlashtirib turadi". Boshqasi, yana boshqacha ta'rif berishi mumkin. O'qituvchi misollarni berib bo'lganidan so'ng, ularning har biriga jonivorlar, turli predmetlar, umuman olganda xohlagan so'zga ta'rif berishga majbur qiladigan topshiriqlardan beradi. Buni oyin sifatida o'tkazish ham mumkin. Masalan, stol, ruchka, kostyum, printer, telyefon va h.k.

Amaliy mashg'ulotalarda yana bitta shunga o'xshash mashqlardan foydalanish katta samara beradi. Bu biron bir predmet nomidan monolog tayyorlash (yozish)ga undashdir. O'qituvchi, misol tariqasida, xohlagan bir predmet yoki jonzot uchun taxminan monolog yaratishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beradi, masalan: "Eshak" monologi. "Nimaga men dunyoga eshak bo'lib keldim-a? Otmi, qushmi, juda bo'lmaganda chuvalchang bo'lsam ham mayli edi Yoshligimdan mehnatdan bo'shamayman. Xo'jayin u yoqqa borsayam, bu yoqqa borsayam meni minib oladi. O'zi minsa mayli-ya, arava qo'shganiga nima deysiz? Aravaga to'ldirib yukini ortib, "yur" deydi. "Qayoqqa yuraman, men axir senlarga yuk mashinasi emasman-ku, axir sen ortgan yukni mashinayam zo'rg'a tortadi-ku... YO'q, men harakat qilaman, rosa kuchanib amallab qo'zg'alib olaman. Endi zo'rg'a qo'zg'olib olganimda, meni to'xtatib, o'zi bola-chaqasi bilan minib oladi-ya, nomard. Ana endi

qamchi, tayoq bilan urushlar boshlanadi-da. Bunaqa tayoq, qamchilar zarbini hatto Afrikalik qullar ham tatib ko'rmagan bo'lsa kerak. Shuning uchun men qochish rejasini tuzib yuribman. Bu yerdan qochib, dala-yu dashtlarga borib, mazza qilib ovqatlanib, xohlagan joyga borib yurmoqchiman. Ha mayli, sizni-ham boshingizni qotirvordim... Kun juda isib ketdi, miyam aynib boryapti shekilli... Tavba, atrof to'la daraxt, soyaga boylab qoysa bo'lmasmikan-a? Nima bular atayin shundoq qilishadimi... hamma odamlar shunaqami... Quyoshning eng zo'r issig'i tushadigan qoq yerga bog'lab ketganiga nima deysiz...".

Yoki, "Vaqt" monologi. "Meni "vaqt" deydilar. Insonlarga biron zarur ish topshirishsa, meni pesh qilib, "yo'q" deyishadi. Axir men borman-ku, bekorgayam o'tiribsan-ku, gap sotib. Insonlar meni qadrimga yetishmayaptida, men-ku to'xtamayman, ammo umr o'tib, poyoniga yetay deb qolganida ortga boqib, "hech narsaga ulgurmayapman" deyishadi. Imkoniyatlar juda ko'p bo'lgan" va h.z. shunga o'xshash topshiriqlarni amaliy mashg'ulotlarda berib borish lozim. Bu ssenariyni yaratish mobaynida uning tasavvuri va fantaziyasini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Bu ikkala mashq ham talabalarni "fikrlarini bayon qilish qobiliyatini rivojlantirishga" qaratilgan bo'lib, ularning tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Undan tashqari, ssenariy yozmoqchi bo'lgan ijodkor juda ko'p dramatik asarlarni o'qib, mutolaa qilishlari lozim bo'ladi. Chunki, ssenariylarda ham deyarli shakl-shamoyili bilan pyesalarga xos bo'lgan jihatlar ko'p. Agar ssenariylar ham pyesalar shaklida yozilgan bo'lsa, sahnalashtiruvchi ham qiynalmay ishlaydi.

Hozirgi zamon hujjatli kinolarida kinomatografik obrazlilikning to'rtta komponenti mavjud:

1. Remarka-murakkab kinomatografik harakat va kino ssenariyning hamma tomonlarini obrazli xarakterlash. Peyzaj, harakat vaziyati, voqealar tuzilishi, qahramonning holati, musiqa va shovqin va boshqalar remerkami hosil etadi.

2. Tasviriy qism, dialog va monologlar-ssenariyning asosidir. Bunda voqealarning qatori va xarakterlar qirralari ochiladi. Kinomatografik dialogining o'ziga xosligi, harakatning davomiyligida, aktyor xarakteri yoritishga imkoniyat mo'lligi.

3. Kinossenariyda personajlar nutqi, ichki ruhiy olami, kayfiyatini tasvirlash uchun muhit, shart sharoit yaratish. Bu muallifga murakkab xarakterlarni keng yoritishga yordam beradi.

4. Kinossenariyda muallif nutqi muhim rol oynaydi. Muallif matni faqat film kompozitsiyasini emas, balki uning ichki dinamikasini ham belgilab beradi. Hujjatli kinodramaturgiyaning muhim xususiyati, undagi voqea-hodisalar badiiy publitsistik obrazlar va muallif nutqi orqali tomoshabingga havola etilishidadir.

Radio-eshittirishlar ssenariysi haqida soʻz borganda, uni vizual emas, balki faqat eshitishga moʻljallanganligini hisobga olish muhimdir. Masalan, televideniye suxandoni har tomonlama, yaʼni oʻzi, ovozi chiroyli boʻlgan boʻlsa, radioda esa ovoz tembri, uning nafisliligi muhimdir. Radiodramaturgiya - bu janrning oʻziga xosligi tinglash, eshitishga moʻljallanganligidir.

Adabiy ijod sohasini teatr, kino, radiodramaturgiya qonun-qoidalarini oʻz mohiyatiga singdirgan teledramaturgiya tarkib topdi. Teledramaturgiya-televizion asarning birinchi asosi boʻlib, adabiyot va publitsistikaning alohida, mustaqil turidir. Teledramaturgiyaning kompozitsion qurilishi bir tomondan dramaturgiya va kino qonun-qoidalariga, ikkinchi tomondan televizion sanʼat spetsifikasiga boʻysunadi. Teledramaturgiyada ekran obrazi tomoshabin koʻz oʻngida konkret shaxs sifatida namoyon boʻladi. Lekin, ssenariy tomoshabin ishtirokisiz yoziladi. Telepublitsistika keng ommaga moʻljallanadi. Telessenaristdan boʻlgʻusi koʻrsatuv mavzusini tanlash uchun obrazli yechimini izlab topish va qahramonlar bilan suhbatlashish jarayonida oʻzini keng auditoriyaning ilgʻor vakili sifatida his qilishi, uning oldida katta maʼsuliyat sezishi talab etiladi. Ssenarist dramaturg tomoshabin eʼtiborini qanday zabt etish yoʻllarini izlaydi. Shu tariqa real obrazlar orqali hayajonli daqiqalar yaratadi. Muallif har bir qahramonning ruhiy holatini izlab topadi. Hatto improvizatsion chiqishlarning ham har tomonlama izchil oylangan boʻlishi kerak. Agar telessenariyda muallif asarni mantiqan puxta va faktlar mohiyatan mahorat bilan ochib bera olgan boʻlsa, tomoshabin teleekran orqali katta sanʼat asari yaratilganining guvohi boʻladi.

Kino, radio, teledramaturgiya hayotiy voqea-hodisalarni, aniq qahramonlar taqdirilarini hujjatlar asosida umumlashtirish yoʻlidan boradi. Aniqroq qilib aytganda, tarixiy va hayotiy materialni badiiy-publitsistik qayta ishlash kino, radio, telepublitsistikaning asosini tashkil etadi.

Adabiy asarlarni qayta ishlash, yaʼni insseniroyvka haqida yuqorida aytib oʻtgan edik. Insseniroyvkani ham ikki maʼnoda qoʻllash mumkin:

2. Mustaqillik sharoitida madaniyat va sanʼat dargohlarida ish yuritishni mukammal biladigan, mustahkam bilim va eʼtiqodli mutaxassislarga muhtojlik sezilarli darajada oshib bormoqda. Zero, ssenariy bu oʻrinda drama, dramaturgiya vazifasini oʻtaydi. Drama nima? Dramaturgiya-chi? Dramaturgiya asoslari deganda nimani anglaymiz? Ularning maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Tarbiyaviy — maʼrifiy ahamiyati-chi?

Avvalo, dramaturgiyaning tuzilishi jihatdan 3 ta janrini bilamiz, bular, drama, komediya va tragediya. Drama deganda avvalo biz badiiy adabiyotdagi uchta yetakchi janr turlaridan biri, dramatik janr turini anglaymiz. Drama janri esa teatr sahnasida qoyish uchun, kino ekranga koʻchirish uchun yozilgan adabiy asarlar sirasiga kiradi. Demak, u badiiy adabiyot sohasidan sanʼat sohasiga, sanʼatga

ko'chadi. Tom ma'noda sarfat asari mahsuliga aylanadi, teatr sahnasi manbaiga ko'tariladi. Dramaturgiya esa u yoki bu xalq yaratgan ma'lum davrdagi dramalar majmuasi, drama asarlari yig'indisi asosida yuzaga kelgan mazkur turni "tarix" ham desa ham bo'ladi. Uning asoslari esa, endi bu ham nazariy, ham amaliy yechimga, o'rganish va o'rgatishga qaratilgan kursni tashkil etadi. Dramaturgiya asoslari degan kurs, predmet ancha katta, dolzarb va o'ta murakkab dars va mavzularni o'z ichiga qamraydi.

Dramaturgiyaning eng muhim shartlaridan biri hayotiylik, haqqoniylik bilan badiiy barkamollikning omixta, sintez tarzda, mahorat darajasida namoyon bo'lishidir. Bu talab dramaturgga ham, uni sahnalashtirayotgan rejissorga ham barobar taalluqlidir. Hatto bu ikki talabni sahnada to'la va mahorat darajasida royobga chiqarish uchun nafaqat dramaturg, yoki rejissor mas'ul, balki ana shu asarni tayyorlab, tomoshabinga yetkazishda ishtirok etuvchi barcha ijodiy gurux a'zolari javobgardir, ma'suldir.

Ikkinchi asosi: Dramada mavjud bo'lgan konfliktning haqqoniyligi, hayotiyli drammatizmni tashkil eta bilish masalasini o'z ichiga oladi.

Uchinchi asosi: drama harakat yaratish mahorati, uni tashkil ettirish, boysindirish masalasi. Dramatik harakat (deystvie) sahna asarining, dramaning o'ziga xosligi va estetik xususiyati bo'lib, spektaklni qon tomiri hamdir.

Asarning muvaffaqiyatida bu omilning o'rni, ahamiyati kattadir. Harakat faqat jismoniy intilish, yurish-turish, yugurish emas, balki ruhiy holat majmuasi bo'lib, u o'z ichiga monolog, dialogdan tortib, imo-ishora, so'zsiz holatlar, mimika, intonatsiya, remarka, pantomimalargacha qamrab oladi. Zero, dramada uzviy yaxlitlikni saqlash va to'la namoyon etishda dramatik harakat spektaklning qon tomiri vazifasini o'taydi. Remarka so'z orasida kelganda qavs bilan beriladi. Alohida kelganda esa o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun unga tushuntiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Ssenarist qahramonlar, boshlovchilar so'zlarini yozish bilan birga remarkada ijrochilarning vazifalarini ham belgilab berishi mumkin. Remarkada berilgan izoh sahnalashtiruvchilar, tadbir tashkilotchilariga shpargalka vazifasini o'tashi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ssenarist drama asoslarini, uning qonuniyatlarini yaxshi bilishi shart. Chunki ssenariy ham aniq sahna uchun mo'ljallangan bo'lib, hujjatlar, faktlar, so'z va xatti-harakat uyg'unligi, turli san'atvositalaridan to'g'ri foydalanish, tadbirni yaxlit kompozitsiyaga yo'naltirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonlarida ham bu xususiyatlar inobatga olinishi zarur.

### *Amaliy mashg'ulot*

**1. Erkin mavzuda yoki pedagog tomonidan biron-bir adabiy asarni tanlab, sahnaga ko'chirishga harakat qiling.**

### **Dramaturgiya janrlari**

Dramatik turning asosiy janrlari sifatida tragediya, komediya va drama ("drama" atamasi ham adabiy tur ma'nosida, ham o'sha turning bir janri ma'nosida qo'llaniladi) ko'rsatiladi. Dramatik asarlarni janrlarga ajratishda ularning asosiy estetik belgilariga tayaniladi. Tragediyaning asosiy estetik belgisi - tragiklik, komediyaning asosiy estetik belgisi - komiklik, dramaning asosiy estetik belgisi dramatiklik sanaladi. Aytish kerakki, adabiyotshunoslikka oid ishlarda biz "asosiy estetik belgi" deb atagan narsa ko'proq pafos deb yuritiladi. Pafos deganda tasvirlanayotgan xarakterlarni milliy va umuminsoniy ahamiyatini e'tiborda tutgan holda g'oyaviy-hissiy idrok etish hamda baholash natijasi o'laroq yuzaga kelgan, asarning butun to'qimasiga singdirib yuborilgan ruh tushuniladi. Bu jihatdan qaralsa, tragediya tragik pafos bilan, komediya satirik yoki yumoristik pafos bilan, drama dramatik pafos bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Pafos atamasini qo'llashdagi ma'no turlichaligini e'tiborga olib, biz "asosiy estetik belgi" tushunchasini qo'llashni ma'qul ko'ramiz.

Tragediya (gr.-"echki qo'shig'i") qadimdayoq shakllangan dramatik janr bo'lib, genetik jihatdan u ma'bud Dionisning o'limi va qayta tirilishi munosabati bilan ijro etilgan marosim qo'shiqlari asosida yuzaga kelgan. Tragediyaning janr xususiyatlari tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon tushunchalari bilan belgilanadi. Tragik konflikt deganda mohiyatan yechimi yo'q, mavjud sharoitda hal qilib bo'lmaydigan ziddiyat tushuniladiki, u har vaqt qahramon ongida kechadi. Qadimgi tragediyalarda konflikt shaxs va taqdiri azal o'rtasida (mas., "Shoh Edip") kechgan bo'lsa, keyinroq bu konflikt tomonlarining ikkinchisi o'zgardi: taqdiri azal o'rmini endi shaxsdan yuqori turuvchi oliy ma'naviy kuchlar (bunda yozilmagan, biroq inson hayotini muayyan tartibga soluvchi ma'naviy qonun-qoidalar, masalan, burch hissi kabilar nazarda tutiladi) egallaydi.

Komediya (gr. "komos" - ommaviy qo'shiq nomi) dramatik turning komiklikka asoslangan janridir. Komediyaning markazida komik xarakter turadi. Odatda komik xarakter deganda o'zida idealga tamoman zid illatlarni jam etuvchi yoki ulardan ayrimlarini namoyon etuvchi personajlar nazarga olinadi. Bu o'rinda asosiy shartlardan biri shuki, komik personaj o'zining mavjud holatini idrok etmaydi, o'ziga real baho berishdan o'zib. Aksincha, u o'zini bor holiga nisbatan tamoman teskari baholashga moyil: g'irt tentak bo'lgani holda o'zini aqlli sanaydi, ma'nan tuban bo'lgani holda o'zini pokdomon biladi - o'zini o'zgalarga shunday sifatlarda taqdim etishga chiranadi. Masalan, "Parvona"dagi O'tkuriy: u o'zining ma'nan tubanligini, axloqan buzuqligini, plagiatiqligini, oddiy mahmadanaligi yu fribgarligini tan oladimi? Yo'q, aksincha, u o'zini aqlli, so'zamol, uddaburo, yashashni biladigan va h. fazilatlar egasi deb biladi, shunday ko'rinishga urinadi.

Natijada xarakterning mohiyati bilan mavjudligi orasidagi nomutanosiblik, ziddiyat komiklikni yuzaga chiqadi. Komediya xarakter komikligi bilan holat komikligi ko‘pincha uyg‘unlashib keladi, bir-birini to‘ldiradi. Komediya satirik yoki yumoristik ruhda bo‘lishi mumkin.

Birinchi chiqish guruhiga so‘z (nutq) chiqishini qo‘yamiz. Undan keyin musiqali — xoreografik-plastik, aralash, «original» chiqishlar qo‘yiladi. Guruh balki ko‘p bo‘lishi mumkin. Nomi aniqroq bo‘lishi mumkin. Bu bilan hech narsa o‘zgarmaydi. Lekin tomoshaviylik alomatsiz turning o‘ziga xosligini aniqlab bo‘lmaydi.

Shunday qilib, birinchi guruhda ko‘proq qaysi chiqishlar teatrlashtirilgan tomoshalarda uchrab turadi?

Teatrlashtirilgan tomoshalar ssenariysida keng tarqalgan dramaturgik jihat yaxshi ishlangan. Chiqishlardan biri kichik sahna (ssenka) hisoblanadi. Bu fransuz tilida «etud», «kroki»ga to‘g‘ri keladi. Inglizcha «sketch» deb ataladi. O‘tgan asrtda «ssenka» dramatik va baletistik asar hisoblanardi. Unda harakatdan ko‘ra ko‘proq gap material bo‘lard. Sahnada harakatli «ssenkani» intermediya deb atashgan. Hozirham «intermediyani» inglizcha sketch («ssenka») deb atashlari uchraydi. Mashhur rus satirigi V.Ardov intermediya voqelik davomlilik jihatdan «sketch» va «ssenka»dan qisqa. Lekin tuzilishi jihatdan sketch murakkabroq. Dramatik voqelik jihatidan va qurilish strukturasi jihatdan voqelikning rivojlanishi va yakunlanishidan Ardovning ssenkasiga qo‘shilishi mumkin. Ssenka bilan «kichkina pyesa» besh-yigirma daqiqa davom etishi mumkin, masalan, ikki qatnashchi bilan. Drama nazariyasiga qaraganda ssenka (intermediya), dramatik melodramma komik, tragik va farslun bo‘lishi mumkin. Lekin satirik-yumoristik shakli ko‘proq qo‘llaniladi.

Intermediya shakli teatrlashtirilgan tomoshalarda serharakat, yoqimli qilib ssenariyga kiritiladi. Ba’zan u teatrlashtirilgan felyeton, musiqali va nasriy shaklda ijro etiladi. Ba’zan qator parodiyalar va boshqa ko‘rinishlarda ham ijro etiladi.

Ma’lumki, intermediyani yaratish uchun alohida diqqat-e’tibor qaratiladi. Ssenariyda teatrlashtirilgan tomoshaning voqelik harakatini to‘ldiradi. Boshqacha qilib aytganda, intermediya eng kutilmagan xulosalar bilan zalni hayratga soladi. Kuldiradi va katta ma’naviy ozuqa beradi. Intermediya dramaturgiya qonuniyati asosida rivojlanadi.

### *Ssenariy yaratish bosqichlari. Ssenariy yozishgacha bo‘lgan qadam*

Ssenariy – hozirgi zamon sharoitida madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatini yaxshilashning ham asosiy mezonidir. Binobarin, madaniy-ma’rifiy muassasalari ishini yanada takomillashtirishning muhim vazifasi – tomoshabinga g‘oyaviy ta’sir qilishni kuchaytirishdan iboratdir.

Madaniy-ma’rifiy muassasalari ssenariysi – bo‘lg‘usi tomoshaning so‘zlar, dalillar orqali tizimlashtirilgan mantiqidir. Ommaviy-badiiy tadbirlarning ba’zilari, masalan, mavzuviy konsertlar, savol-javob uchrashuv, raqs kechalari, «Askiya»,



«Bellashuv»lar o‘z lirik tabiatiga ko‘ra detallashtirilgan senariyni talab qilmaydi. Ular uchun senariy rejasi tuziladi. Bunday tadbirlarda kechada so‘zga chiquvchilarning nomlari, chiqishlar, nima haqida so‘z borishi qisqacha yoziladi. Senariy rejasi – turli chiqishlarning qisqacha bayoni, aniq dramatik holatlarning qisqa qaydlaridir.

Ssenariy rejasida imrovizatsiya muhim o‘rin tutadi. Madaniyat muassasalariga tayyorgarlikka ega bo‘lgan kishilargina qatnaydi. Masalan, savol-javob, dam olish kechalarini olaylik. Ularda olib boruvchi – boshlovchi tadbir mazmunini, sahnada yoki auditoriyada zuhur etilayotgan voqealarni boshqarib boradi, kishilar diqqatini bir erizoddan ikkinchi erizodga jalb etadi, oldindan belgilangan munozara qiluvchilarga fikr almashishga imkon beradi, tomoshabinlarga badiiy-rublitsistik so‘z vositasida ta’sir ko‘rsatadi, so‘zga chiquvchilarning sahnaga yoki minbarga chiqishlarini uyushtiradi. Shunday qilib, olib boruvchi tadbir mazmuni, voqealari, erizodlari bilan oldindan tanish bo‘lishi va shu asosda imrovizatsiya qilishi mumkin. Senariyda muassasa tadbirning yo‘nalishi belgilanadi. Olib boruvchi tadbir jarayonida vaziyat taqozosi bilan senariyni to‘ldirishi, boyitishi, jonlantirishi lozim. Ammo imrovizatsiya senariyni inkor etmaydi. Ko‘pchilik madaniy-ma’rifiy muassasa tadbirlari, masalan, madaniy-ommaviy tadbirlar, badiiylashgan publitsistik kechalar, muallif tafakkuri asosida o‘tkaziladigan tadbirlar uchun mukammal ssenariy yozish shart. Bu tadbirlarda ham tomoshada rejissura, tasviriy san’at musiqa, nur, shovqin va boshqa vositalardan keng foydalaniladi.

Har bir yangi, mustaqil ssenariy – ijodiy mehnat mahsulidir. U shu turdagi oldingi ssenariylarning nusxasi bo‘lmasligi kerak. Albatta, senariy muallifi butunlay yangi betakror ssenariy yaratsa bebaho ish bo‘ladi, Lekin oldin yaratilgan ssenariylarni yangi mavzu va hujjatlar talabiga binoan o‘zgartirish, boyitish, tahrir etish, xullas, mumkin qadar yangilash kerak. Ssenariyda obraz yaratish uchun asos bo‘lgan real hayotdagi shaxs prototip deyiladi.

Hozirgi san’at turlari bo‘yicha ssenariylar quyidagicha xarakterlanadi:

1. Kino san’ati tasviriy vositalari yordamida ekranda ko‘rsatishga mo‘ljallangan adabiy asar;
2. Imrovizatsiya teatrida spektaklning syujet qurilmasi (bunda resa mazmuni dialog va monologlarsiz qisqacha bayon etilib, voqeaning muhim tomonlari, rersonajlarning sahnaga chiqishlari ko‘rsatilgan qo‘shimcha ko‘rinishlari aniq belgilangan bo‘ladi);
3. Balet syujetining batafsil bayoni;
4. Orerada liberettoning dramaturgik rejasi.

Madaniy-ma’rifiy muassasa hamisha konkret auditoriyaga ega. Biror muassasada o‘tkazilgan tadbirni ikkinchisiga aynan ko‘chirib bo‘lmaydi.

An'anaga ko'ra, kechalar ko'rincha ushbu tartibda tuziladi: boshqaruvchi qisqacha kirish qiladi (gohida u musiqa bilan mustaxkamlanadi), so'ngra bir necha kishi so'zga chiqadi. Orada musiqiy chiqishlar joylashtiriladi. Bunday tadbirlar shakl jihatdan ikki qismga bo'linadi:

- 1) ma'ruza, qatnashuvchilar nutqi, tabrik (tantanali qism);
- 2) konsert, tabriklar (badiiy qism).

Ba'zan senariy muallifi yoki rejisserlar kechada badiiy vositalardan – she'rlar, qo'shiqlar, kinotasmalar, jonli so'z, nur, shovqin, musiqa, texnik vositalar va boshqalardan keragidan ortiqcha foydalanadilar. Bu holda ham tomoshabin kechaning mavzu va g'oyasini, hatto gar nima haqida ketayotganligini ham yaxshi anglashga qiynaladi.

Shuningdek, mukammal mushtarak harakterdagi senariylar ham mavjud. Ulardan ishlatilaverib siyqasi chiqqan erizodlar, matnlar, yaxshi holda har xil montaj qilinib, «yangi» senariy tayyorlanadi. Ko'r hollarda esa yangi joyga to'g'ri kelish kelmasligiga qaramay shu turishicha foydalaniladi. Mushtarak ssenariy, standartlik, san'atga yot bunday senariylarning badiiy saviyasi rast, ta'sir qilish quvvati sust bo'ladi, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotadi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar senariysida ijtimoiy hayotning voqea-xodisalari tasvirlanadi.

Ssenariy dramaturgiyasi mualliflar, targ'ibotchilar, jurnalistlar va gazeta tahririyati hay'ati va mahalliy radiokanali hamkorligi muhitida yuzaga keladi. Uyushmalarga, shuningdek, to'garaklar va maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib boruvchilarni ham taklif qilish mumkin.

Adabiy ssenariy yozishga qiziquvchi, qobiliyatli kishilarni madaniy-ma'rifiy muassasaga jalb qilish lozim. Ularni bir jamoaga uyushtirib, madaniy-ma'rifiy ishning vositalari, shakllari va metodlari bilan tanishtirish, torshiriq berish, madaniy va ma'naviy rag'batlantirish kerak.

Hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy muassasa dramaturgiyasi janrida ijod etadigan mualliflar doirasi ancha kengayib bormoqda.

Muallif ssenariy ustida ishlash davomida zarur hujjatli va adabiy materiallarni tanlaydi va ularni tahlil qiladi, turli xil so'rovnomalar va rerertuar to'rlamlaridan foydalanadi, she'r, qo'shiq, kinofilmlardan lavhalar oladi, rang-barang tarixiy materiallarni ijodiy montaj qiladi, ularni muayyan mavzu, syujet tizimi va g'oya asosida umumlashtirib tomoshabinga yetkazadi.

Badiiy-ommaviy tadbirlar senariysi muallifi mafkuraviy hayotni chuqur bilishi kerak. U o'z ssenariysini shu kunning dolzarb masalalariga bag'ishlab turli suhbat-intervyularni matnga singdiradi, respublika miqyosiga ega bo'lgan ko'rgazmali materiallar, raqamlar, illyustrativ vositalardan foydalanadi.

Ijod murakkab jarayon bo‘lib, u izlanishlar natijasidir. Dramaturg uning voqealari, erizodlari ustida ko‘r oylaydi. Ssenariy qogozga tushgunga qadar dramaturg ongida rishiriladi. Har qanday san‘at asari singari madaniy-ma‘rifiy muassasa ssenariysi ham o‘z vaqtida dunyoga keladi.

Tadbirlar ssenariysini tuzish va yozish bir necha xaftalar, oylarga cho‘ziladigan ijodiy jarayondir. Shuning uchun reja tuzishga mualliflarni jalb etish zarur.

Xullas, ssenariy yozilishi quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

1. Ssenariy hayotdagi muhim masalani ifodalashi;
2. hayot haqiqatini ko‘rsatishi;
3. yangilikni, ilg‘or tajribani kashf etishi va uni xalqchil talqin etishi;
4. mustaqilligimiz qaxramonlarining yorqin obrazini badiiy-rublitsistik gavdalanitirishi lozim.

Adabiy ssenariy ustida ishlash bir necha bosqichlarda olib boriladi. Bu ijodiy jarayon quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin:

- 1) Ssenariy yozishdan maqsad (masalaning qoyilishi).
- 2) Ssenariy to‘qimasi ustida ishlash (mavzu, g‘oya, material, shakl, manzil).
- 3) Ssenariy yuzasidan ish rejasini tuzish.
- 4) Hujjatli materiallarni to‘rlash.
- 5) Badiiy materiallarni to‘rlash.
- 6) Ta‘sirchan vositalarni tanlash.
- 7) Ssenariy janrini aniqlash.
- 8) Ssenariy syujeti ustida ishlash.
- 9) Ssenariy yo‘li (rang-barang hujjatli materiallarni yagona «o‘q» atrofiga uyushtirish) ustida izlanish.
- 10) Turli xil sahnaviy usullardan foydalanish (illyustrlash, teatrlashtirish).
- 11) Ssenariyning to‘liq adabiy matnini qog‘ozga tushirish.

Respublikamiz hukumati tomonidan bunday hujjatlarning amaliy ijrosi tadbirlar tashkilotchilari tomonidan so‘zsiz bajarilib kelmoqda.

Dramaturgiyaning barcha qonun-qoidalariga rioya qilingan holda yaratilgan asarlar to‘laqonli asarlardan hisoblanadi. Pyesa tanlangach, ijodiy guruh bilan tahlil qilinadi va sahnalashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Madaniy tadbirlarda esa asosiy manba ssenariy hisoblanib, u tadbirni tashkil qilishdagi ilk jarayondir.

### ***Amaliy mashg‘ulot***

- 1. Berilgan mavzu asosida ssenariy yarating**
- 2. Ssenariyni tahlil qiling**

### Maydon tomoshalarini o‘tkazish usullari

Ommaviy teatrlashtirilgan tadbirni sahnalashtirayotgan rejissyorning vazifasi, sahnaviy obrazli yechimni, bulgusi tadbirning "yo‘li" - rivojlanishini, ya‘ni tadbirning say xatti-harakatini (yetakchi xatti-harakatini), shakli, muhitini va uslubini belgilovchi rejissyorlik ishi rejadan boshlanadi.

Modomiki, bo‘lajak tadbirning birlamchi elementa pyesa va musiqali partitura emas, balki rejissyorlik reja deyilsa, demak, rejissyor bu yerda dramaturg vazifasini ham ado etadi.

Rejissyorning bunday, majburan, ikkinchi vazifani bajarishini mantiqan oqlash mumkin. Chunki hali ommaviy teatrlashtirilgan tadbir ssenariysining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadigan, professional (mutaxassislashgan) maxsus dramaturglar juda kam. Shunday qilib, rejissyorlik burchining asosiy uch qirrasidan (V. I. Nemirovich-Danchenko ta‘limoti), ya‘ni sahnalashtiruvchi, tarbiyachi va tashkilotchilikdan tashqari, rejissyor dramaturgga (to‘rtinchi qirra), ya‘ni tadbir yaratuvchisiga, "spektakl muallifi"ga aylanadi.

Bulg‘usi tadbir uslubi va shaklini, say xatti-xarakatini (yetakchi xatti-xarakatini) aniq, belgilovchi rejissyorcha rejalarga misollar keltiramiz :

"Toshkent oqshomi" gazetasining sahnaviy nusxasi sifatida istirohat bog‘ida "Toshkent oqshomi" nomli katta teatrlashtirilgan tadbir sahnalashtirilgan. Chipta sotuvchilar gazeta sotuvchilariga o‘xshab kiyintirilgan, boshqarib boruvchilar kioskachilar (do‘konchadagi gazeta sotuvchilar) nomidan so‘zlashyaptilar. Kordebalet (opera va balet teatrida ommaviy raqslarni ijro etuvchi rakurs va raqqosalar guruhi) "Jonli harflar"ni tasvirlayapti va ular raqslar orqali epizodlar sarlavxasini yozishadi va xokazolar.

Rejissyorcha rejaning paydo bo‘lishida asosiy turtki, bu berilgan voqea va joyga (o‘tkazilmoqchi bo‘lingan) bog‘liq bo‘lgan tadbirning mavzusi, g‘oya va oliy maqsadi, o‘tkaziladigan joy, mavjud ijodiy kuch va materialli vositalar, xujjat va rivoyatlar, an‘ana va urf-odatlarni o‘z ichiga olgan tadbirning aniq berilgan shart-sharoitlaridir.

"San‘at muassasalarida dramaturgik asar (pyesa) qachon yozilganidan qat‘i nazar, lozim topilganida, zamonaviy talablarga javob beradigan bo‘lsa, uni sahnalashtirish mumkin. Ommaviy tadbir ssenariysi esa belgilangan sanaga asosan yozilib bo‘lingandan keyin darxol namoyish qilish uchun yoziladi".

Demak, "ssenariy yozish bilan kim shug‘ullanmasin (albatta ommaviy tadbir rejissyori kuproq ssenariy ustida ishlaydi), u quyidagi layoqatlarga ega bo‘lmog‘i lozim:

a) Ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to‘g‘ri tahlil qila oladigan shaxs bo‘lmog‘i;

b)adabiyot, ayniqsa dramaturgiya sohasida puxta (fundamental) bilimga ega bo'lgan, ulardan samarali foydalana oladigan kishi bo'lishi;

v) hayotiy materiallar (ma'lumotlar) va xujjatli dalillarni yig'a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo'lmog'i lozim".

Reja rejissyorga nomerlarni saralab, ularni ko'rib chiqish va yangilarini tayyorlash vazifasini yuklaydi. Mahalliy materiallarni batafsil bilish va tayyorlash, nomerlar bilan birgalikda niyatga asoslanib, bo'lajak tadbirning rejissyorcha rejasini tuzishda yordam beradi. Va undan so'ng mufassal, rejissyorcha adabiy ssenariyni yaratish bosqichi boshlanadi.

Ommaviy tadbir harakatli, tomoshaviy, his-tuyg'uli va ifodali (obrazli) bo'lishi kerak. "Gapiruvchi" epizod sahnalardan iborat harakatsiz — ifodali o'qish (deklamatsiya) unda qat'iy man etiladi. Tadbir ramziy (simvolik) va majoziy (metaforalar), obrazli mizanssenalar, bir-birini eslatadigan uzaro bog'liq tovushlar va hokazolardan iborat bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, tadbir dialog va monologlarning o'rini bosuvchi, audio (eshitadigan) — ko'z bilan ko'radigan (vizual) obrazlar sistemasidan iborat bo'lmog'i kerak. Bu, ayniqsa, an'anaviy spektakllar namoyishiga moslashtirilmagan binolarda yoki ochiq maydonlarda tadbir sahnalashtirilganda ko'zga yaqqol tashlanadi, chunki bunday joylarda matn umuman eshitilmaydi. Bunday vaqtlarda tomoshabinlarga faqatgina namoyish qilish emas, rejissyor nimadir "aytishi" zarur bo'lsa, u jarangdor so'zni yozuvga almashtiradi. Lekin yozilishi zarur bo'lgan so'zlar ba'zi hollarda butun jumlar, faqat shu san'at turiga taalluqli bo'lgan, o'ziga xos vositalar orqali yoziladi, ya'ni uyingoh maydonidagi ishtirokchilarning muayyan holatlari yoki harakatlari, rekvizitlarning bir bo'lagi bilan, badiiy o'ynovchi tribunalar rangli bayroqchalar bilan, elektrotablo (biror ma'lumotni yorug'lik yoki elektromagnit vositasida ko'rsatadigan lavhadagi yonib turadigan lampochkalar bilan, katta ekranlarda namoyish etiladigan maxsus titr (so'zlar) bilan va xokazolar.

Epizod (lavha)larning obrazli yechimini izlayotgan rejissyorlar yana bitta xatoga yo'l qo'yishadi, ya'ni adabiy matnlarni "jonli ko'rinishlar" (rasm) bilan almashtirishadi. Afsuski, xarakatdan tashqaridagi obraz kutilgan effekt (ta'sir)ni bermaydi, qarama-qarshiliksiz, kurashsiz, faol xatti-harakat chizig'isiz ommaviy tadbir yaxshi tanlangan illyustratsiya (rasm, surat)lar to'plamiga aylanib qoladi yoki sodda qilib aytganda, zerikarli tomoshaga aylanadi. Bu esa tomoshaviy san'atning barcha turining halokatidir. Ayniqsa, ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar uchun, ko'pincha, bunday yanglishishlarni teatrlashtirilgan yurishlarni (tantanali yoki karnaval, ya'ni katta xalq, sayili-buning farqi yo'qsa, ko'rish mumkin. Xatti-harakat oddiy xarakat bilan almashtiriladi, ya'ni libosli guruh va bezatilgan mashinalarning o'tishi amalga oshiriladi. Balki bunday narsalar zerikarli bo'lmas, chunki ko'rinishlar, taassurotlar tez-tez almashib turadi. Lekin baribir bular sust va

xarakatsizdir. Har bir guruhning unchalik qiyin bo‘lmagan o‘zining syujeti yoki konsert nomeri, xatti- harakati, jo‘r bo‘layotgan musiqasi bo‘lishi zarur. Har bitta mashina kichik teatrga yoki g‘ildirakli minbarga aylanishi kerak. Qarama-qarshilik nomer ichida yoki nomerlar orasida bo‘lishi mumkin. Lekin, albatta, bo‘lishi zarur.

*Amaliy mashg‘ulot*

*1. Siz istiqomat qilayotgan viloyat, tuman, shaharda o‘tkazilgan maydon tomoshalaridan birini tahlil qiling.*

**V. KEYSLAR BANKI**

## V. KEYSLAR BANKI

### “Aqliy hujum” metodi

**Aqliy hujum** (breynstroming - aqlar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

#### Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

### “SWOT-таҳлил” методи.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

**S – (strength)**

• Kuchli tomonlari

**W – (weakness)**

• Zaif, kuchsiz tomonlari

**O – (opportunity)**

• Imkoniyatlari

**T – (threat)**

• To'siqlar

**Namuna:** Boshkaruvchilar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.



<b>S</b>	Boshqaruvchi rahbar kim	Intellectual va jismonan komil bo'lgan doimiy ravishda boshqaruv lavozimini egallab turuvchi va faoliyat yurituvchi tashkilot faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qaror qabul qilish vakolati berilgan shaxs.
<b>W</b>	Boshqaruvchi rahbar zaif tomonlari	Boshqaruvda xodimlar ishonchining yo'qotishi
<b>O</b>	Boshqaruvchi rahbar imkoniyatlari	ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya, boshqaruv faoliyatining natijaviyligi, moddiy, moliyaviy, mehnat va odam resurslaridan foydalanishning muvofiqlik darajasi. Boshqaruv natijalari va ularga erishishga sarflangan resurslarni solishtirish vositasida aniqlanadi. Boshqaruv samaradorligining vazifaviy roli-uning rivojlanishi darajasi va dinamikasini, ushbu jarayonning sifati va miqdoriy tomonlarini aks ettirishdir.
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	Har xil ijtimoiy siyosiy to'siqlar, byurokratiya, korrupsiya, ichki tartib muvozanatining bshzilishi

### “Insert” metodi.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- Boshqaruv bo'yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo'yicha o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar professor - o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.



“Brifing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo'yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press - konferensiya.

#### O'tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.

2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o'tkaziladi.

#### “Portfolio” metodi.

“Portfolio” – (ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta'limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o'quv - metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig'indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o'zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta'limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o'zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

## VI. GLOSSARIY

## VI. GLOSSARIY

<b>Atama</b>	<b>O'zbek tilidagi izohi</b>	<b>Ingliz tilidagi izoi</b>
<b>Aloqa</b>	bu boshqaruv tizimi elementlarining o'zaro hamkorligi uchun muhim elementlardan biri bo'lib, uning vositasida ushbu tuzilma uchun ma'lum munosabatlar shakllanadi. Boshqaruv tizimlaridagi aloqani loyihalashtirish axborot nazariyasi usullari, hamda axborotlarning texnik manbalarini tanlash va aloqa kanallarini loyihalashtirish usullariga asoslanadi. Boshqaruv shakllariga ega boshqaruv tizimlarining tarkibiy tizimlaridan to'g'ridan to'g'ri va teskari aloqalar zanjirlari ajratiladi. Ular axborotlarni harakatlanish yo'nalishlari bo'yicha farqlanadi.	This is one of the most important elements for the interaction of the elements of the control system, through which a certain relationship is formed for this structure. Communication design in management systems is based on methods of information theory, as well as methods of selecting technical sources of information and designing communication channels. Direct and inverse communication chains are distinguished from the structural systems of control systems that have control forms. They differ in the direction of information flow.
<b>Axborot</b>	bu ma'lumot va xabarlar to'plami bo'lib, mazmunan, yangilik unsurlariga ega bo'ladi va boshqaruv vazifalarini hal etish uchun o'ta zarurdir.	it is a collection of information and messages, with content, elements of novelty, and is essential for solving management tasks.
<b>Boshqaruv (umumiy ko'rinishda)</b>	bu ikkita obyektlar o'zaro hamkorligining ma'lum turi – bunda ulardan biri boshqaruv subyektini holatida, boshqasi esa – boshqaruv obyekti holatida bo'ladi.	these two objects are a known form of interaction - one of them is in the state of control and the other is in the state of control.
<b>Boshqaruv vazifalari</b>	bu boshqaruv faoliyatining nisbatan mustaqil, ixtisoslashtirilgan va ajratilgan turlari.	these are relatively independent, specialized, and segregated types of management.
<b>Boshqaruv jarayoni</b>	tashkilot resurslarini u tomonidan o'zining maqsadlariga yetishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuasi.	a set of continuous interrelated efforts to shape and use the organization's resources to achieve its goals.
<b>Boshqaruv iyerarxiyasi</b>	murakkab turli-tuman va o'zaro bog'langan jarayonlarni boshqarishning asosiy tamoyillaridan biri. U boshqaruvning darajalari bilan ta'riflanadi, ularning soni qanchalik ko'p bo'lsa, tizim shunchalik yirikdir. Iyerarxiya bo'yicha, masalan, korxonalar, sexlar, uchastkalar va h.k. boshqaruvni ajratiladi. Har bir darajaning boshqaruv tizimi yuqoriroq daraja uchun boshqaruv obyekti bo'ladi. Umumiy holda boshqaruv iyerarxiyasi har bir darajadagi boshqaruvni avtonom holda belgilanishini ko'zda tutadi. Ko'pincha bu boshqaruv maqsadlarini amalga oshirishning vositalari va usullarini tanlashga tegishli bo'ladi. Iyerarxiya boshqaruvning murakkab tizimidagi	One of the main principles of the management of complex and interconnected processes. It is defined by levels of government, and the larger their number, the larger the system. By hierarchy, for example, an enterprise, workshop, site, and so on. control is disconnected. The control system of each level is the object of control for the higher level. In general, the management hierarchy assumes that each level of management is autonomous. Often it is a matter of choosing the means and methods of achieving management objectives.

	boshqaruv tizimchalarining birgalikda bo'ysunishidan iborat bo'ladi.	Hierarchy consists of the joint subordination of control systems in a complex system of management.
<b>Boshqaruv obyekti</b>	bu boshqaruv subyekti tomonidan boshqaruvchi ta'sirlarni qabul qiluvchi idora. U impulslar (boshqaruv buyruqlari) ni oladi ularga muvofiq harakat qiladi. Xodim, mehnat jamoasi, tovarlar, resurslar, hujjatlar va h.k. boshqaruv obyekti sifatida bo'ladi.	it is the management that receives the managerial influences from the management entity. It receives impulses (control commands) and acts accordingly. Employee, labor community, goods, resources, documents, etc. as an object of management.
<b>Boshqaruv subyekti</b>	boshqaruv tizimining boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish manbai bo'lgan bo'g'ini yoki qismi. Boshqaruv suyekti sifatida firmaning bo'limlari va xizmatlari majmuasini yoki alohida bo'linma, yakka shaxs va boshqalarni ko'rib chiqish mumkin. Boshqaruv subyektini ajratish boshqariladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ko'lamlri va undagi boshqaruv tizimini ta'riflovchi aloqalar bilan cheklangandir.	the link or part of the control system that is the source of influence on the control object. As a governing body can be considered a set of departments and services of the firm, or a separate division, individual and others. The separation of the governing entity is limited to the scope of the socio-economic system under management and the relationships that define the governing system.
<b>Boshqaruv tizimi</b>	1. Odamlarni birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish uchun zarur harakatlar yig'indisi. 2. Boshqaruvni amalga oshiruvchi bo'g'inlar va ular o'rtasidagi aloqalarning yig'indisi.	1. A set of actions necessary to coordinate the activities of people together. 2. A set of links between the governing bodies and between them.
<b>Boshqaruv usuli</b>	bu rahbar tomonidan foydalanadigan vazifalarni hal qilishning eng xarakterli va barqaror usullarining yig'indisi, uning qo'li ostidagilarga nisbatan odati. Tashkilotlarni strategik boshqarish – inson salohiyatiga suyanuvchi, ishlab chiqarish faoliyatini iste'molchilar so'rovlariga qaratuvchi, tashkilotda atrofdegilar tomonidan qarshiliklarga javob qaytaruvchi va raqobot afzalliklariga erishishga imkon beruvchi epchillik bilan tartibga solishlar va o'z vaqtidagi o'zgarishlarni amalga oshiruvchi boshqaruv bo'lib, u tashkilotni omon qolishi va istiqbolda maqsadlariga erishishga imkon beradi.	it is a collection of the most characteristic and sustained methods of solving the tasks used by the leader, his habit in relation to his subordinates. The strategic management of organizations is based on human resources, the ability to organize production in a way that responds to consumer demand, the ability to respond to pressure from others in the organization, and the ability to achieve competitive advantages. .
<b>Boshqaruv qarori</b>	bu harakatlarning ma'lum variantini topish, faoliyat jarayonining o'zi, uning yakuniy natijasi.	finding a known variant of these actions, the process of action itself, its end result.
<b>Boshqaruvning maqsadi</b>	ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatidagi erishilishi kerak bo'lgan istalgan, ehtimol bo'lgan va zarur holati. Boshqaruv maqsadini belgilash – boshqaruv jarayonining boshlang'ich bosqichidir.	the desired, probable and necessary condition of production to be achieved as a socio-economic system. Defining a management goal is the initial stage of the

	Boshqaruv maqsadi rahbar faoliyatini yo'naltiruvchi omil bo'ladi. Boshqaruv maqsadi talablar, qonunlarga mos kelishi va tizim rivojlanishining haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olish bilan belgilanishi kerak. Boshqaruv maqsadi istiqbolli va bevosita umumiy va xususiy, oraliq va yakuniy sifatida tavsiflanadi.	management process. The purpose of management is to guide the activities of the leader. The purpose of management should be determined by the requirements, compliance with the law and taking into account the real possibilities of system development. Management is characterized as a prospective and direct public and private, intermediate and final goal.
<b>Korporatsiya</b>	bu rivojlangan yirik aksionerlar jamiyati va trestlar birlashmasidir.	it is a union of prosperous large shareholders and trusts.
<b>Kommunikatsiya</b>	bu kishilar o'rtasidagi o'zaro axborot almashuvidir.	it is the exchange of information between these people.
<b>Monitoring</b>	tizim yoki obyekt holatini kuzatish, baholash, bashorat qilish, uning faoliyatini nazorat va tahlil qilish.	monitoring, evaluating, forecasting, monitoring and analyzing the state of the system or object.
<b>Motivatsiya</b>	insonni aniq maqsadlarga erishish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun harakatga undovchi amaldagi ichki va tashqi kuchlar majmui.	a set of internal and external forces in action that motivate a person to act in order to achieve specific goals and satisfy his needs.
<b>Motivlashtirish</b>	bu ruhiy omil bo'lib, shaxs faoliyatining manbai, sababi, dalili va har xil ehtimollaridir.U xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag'batlantiruvchi kuchli vositadir.	it is a spiritual factor, the source, the cause, the evidence, and the various probabilities of a person's activity. It is a powerful means of motivating employees to work.
<b>Rag'batlantirish</b>	tashkilot oldida turgan masalani yechishda kishining urinishi, harakati, matonati va halolligiga maqsadli yondashish.	purposeful approach to the person's efforts, actions, perseverance and honesty in solving the problems facing the organization.
<b>Tadbirkor</b>	tashkilotga foyda keltiradigan ish beruvchi.	an employer who benefits the organization.
<b>Tashabbuskorlik</b>	tadbirkorlik, yaratuvchanlik, tajribachilik.	entrepreneurship, creativity, experience.
<b>Obro'</b>	bu hamma tomonidan tan olingan hamda mehnat evaziga ortirilgan, rahbar uchun zarur ishonch va qalqondir.	it is a universally recognized and rewarding work, a necessary confidence and shield for the leader.
<b>Psixologiya</b>	insonning ruhiyatini o'rganuvchi fandır. Inson ruxiyatiga sezish, idrok etish, tasavvur, tafakkur, taassuf jarayonlari, xotira, diqqat, e'tibor, iroda, shuningdek, inson shaxsining ruhiy xususiyatlari, chunonchi, qiziqish, qobiliyat, fe'l-atvor va mijoz kiradi.	is a science that studies the human psyche. Human spirituality includes the processes of perception, perception, imagination, contemplation, regret, memory, attention, attention, will, as well as the spiritual qualities of the human person, such as curiosity, ability, behavior and clientele.

<b>Strategiya</b>	grekcha «strategos» iborasidan olingan bo‘lib, «general san‘ati» ma‘nosini bildiradi.	is derived from the Greek word "strategos", meaning "art of the general".
<b>Fazilat</b>	bu ijobiy xislat, yaxshi sifat yoki xususiyatdir.	it is a positive quality, a good quality, or a quality.
<b>Qaror</b>	bu bajarilishi mumkin bo‘lgan ishning aniq yo‘lini tanlab olishdir.	it is a matter of choosing the exact course of action that can be taken.
<b>Yetakchilik</b>	boshqaruvi o‘zaro hamkorlikning, hukmronlikning har xil manbalarini samaraliroq birlashishiga asoslangan va odamlarni umumiy maqsadlarga erishishga undashga qaratilgan o‘ziga xos odob.	governance is based on a more effective combination of different sources of cooperation and dominance, and is aimed at encouraging people to achieve common goals.
<b>Yetakchining kasbga egaligi</b>	menejer tomonidan ishlab chiqarish (tijorat)ni tashkil qilish va boshqaruv sohasidagi maxsus bilimlar va ko‘nikmalarni egallashi, har xil sohalardagi odamlar bilan ishlash mahorati.	the manager has specialized knowledge and skills in the field of organization and management of production (business), the ability to work with people in various fields.
<b>Iqtisodiy boshqaruv usullari</b>	boshqaruv subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabatlarni mamlakat va hududning soliq tizimi, moliya – kredit mexanizmi, bojxona tizim, firmani faoliyat yuritishining iqtisodiy normativlari, sifatli mehnat uchun motivatsiya tizimi, menejment maqsadlarini muvofiqlashtirish usullarini qo‘llash yordamida iqtisodiy tartibga solish usullaridir.	methods of harmonization of relations between the subject and object of management in the tax system of the country and the territory, financial and credit mechanism, customs system, economic standards of the firm, the system of motivation for quality work, methods of harmonization of management goals.
<b>Kommunikatsion tarmoqlar</b>	ma‘lum kommunikatsion jarayon ishtirokchilarini tegishli axborot oqimlari yordamida birlashtirish.	to unite the participants of a known communication process with the help of relevant information flows.
<b>Ma‘muriy boshqaruv usullari</b>	bu aniq maqsadlarga erishish uchun tashkiliy munosabatlarga ta‘sir ko‘rsatish usulidir. Bittagina ishni har xil tashkiliy sharoitlar, uni tashkil qilishning har xil turlari: qat‘iy tartibga solish, hozirjavoblik bilan javob qaytarish, umumiy vazifalarni qo‘yish, faoliyatning yo‘l qo‘yiladigan chegaralarini belgilash va h. k. Jamoaga tashkiliy ta‘sir ko‘rsatishning ishlari samarali va sifatli bajarilishini ta‘minlovchi ma‘lum sharoitlari uchun eng haqiqiy turlarini aniqlashda tashkiliy usullar o‘zlarini namoyon qiladi.	it is a way of influencing organizational relationships to achieve specific goals. Different organizational conditions of a single case, different types of its organization: strict discipline, prompt response, setting common goals, setting limits on activities, etc. k. Organizational methods manifest themselves in determining the most real types of organizational influence on the community for certain conditions that ensure the effective and high-quality performance of work.
<b>Ma‘naviy – ruhiy holat</b>	ijtimoiy guruhning qadriyatli mo‘ljallanishi va shaxslararo munosabatlarning xarakterini aks ettiruvchi barqaror ruhiy holat. U xodimlarning kayfiyati, ularni mehnatdan	a stable state of mind that reflects the value of the social group and the nature of interpersonal relationships. It directly affects the

	qanoatlangani darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va bu orqali pirovardida xodimlar qo'nimsizligi, mehnat unumdorligiga ta'sir qiladi. Qulay muhitning eng muhim alomatlari: guruh a'zolarining bir-birlariga ishonchi va yuqori talabchanligi; samimiy va ishga doir tanqid; fikrni erkin ifodalash; qo'l ostidagilarga bosimning yo'qligi; jamoa a'zolarining uning vazifalari va ishlarning holati haqida yetarlicha xabardorligi; jamoaga tegishli ekanlikdan qanoatlanish; jamoa a'zolarining o'zaro yordami; jamoaning har bir a'zosi tomonidan guruhdagi ishlarning holati uchun javobgarlikni o'ziga olishi.	mood of employees, their level of job satisfaction, and in the end affects the dissatisfaction of employees, productivity. The most important features of a comfortable environment are: team members' trust and high expectations of each other; sincerity and work criticism; free expression of thought; lack of pressure on subordinates; adequate awareness of community members about their responsibilities and status; community satisfaction; mutual assistance of community members; each member of the team assumes responsibility for the state of affairs in the group.
<b>Menejer</b>	doimiy ravishda boshqaruv lavozimini egallab turuvchi va bozor sharoitlarida faoliyat yurituvchi tashkilot faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qaror qabul qilish vakolati berilgan shaxs. Menejerlar tashkilotda har xil o'rinlarni egallaydi (direktor, guruh rahbari, ishlarning ma'lum turining tashkilotchisi, boshliq, mudir va h.k.), butunlay bir xilda bo'lmagan masalalarni hal qiladi, har xil vazifalarni bajaradi.	a person who is permanently in charge of management and is authorized to make decisions on certain types of activities of the organization operating in market conditions. Managers occupy different positions in the organization (director, team leader, organizer of a certain type of work, boss, manager, etc.), solve completely different problems, perform various tasks.
<b>Menejerni o'zini o'zi nazorat qilishi</b>	menejerni o'z faoliyati natijalari ustidan nazorat qilishi, shu tufayli mehnat jarayoni yaxshilanadi, qo'yilgan maqsadga erishildimi yoki yo'qligi tekshiriladi hamda kerakli tuzatishlar kiritiladi	The manager monitors the results of his work, which improves the work process, checks whether the goal is achieved and makes the necessary adjustments.
<b>Menejment</b>	bu ishlab chiqarish yoki tijoratni boshqarish; ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va foydani ko'paytirish maqsadida ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllarining majmuasidir.	it is the production or management of a business; is a set of management principles, methods, tools and forms developed and applied to increase production efficiency and profitability.
<b>Menejmentning samaradorligi</b>	ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya, boshqaruv faoliyatining natijaviyligi, moddiy, moliyaviy, mehnat va odam resurslaridan foydalanishning muvofiqlik darajasi. Boshqaruv natijalari va ularga erishishga sarflangan resurslarni solishtirish vositasida aniqlanadi. Menejment samaradorligining vazifaviy roli-uning rivojlanishi darajasi va dinamikasini, ushbu jarayonning sifati va miqdoriy tomonlarini aks ettirishdir.	socio-economic category, the effectiveness of management, the degree of adequacy of the use of material, financial, labor and human resources. It is determined by comparing the results of management and the resources expended to achieve them. The task of management effectiveness is to reflect the level and dynamics of its



		development, the qualitative and quantitative aspects of this process.
<b>Mehnat jamoasi</b>	xodimlarni birgalikda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi birlashmasi.	an association of employees working together.
<b>Motivatsiya</b>	<p>menejmentning, inson xulqining motivatsiyasidan uni faoliyatini boshqarish amaliyotida foydalanishni ko'zda tutuvchi vazifasi. Har bir kishining hulqi motivatsiya, ya'ni odamning ma'lum harakatlarni amalga oshirishga undovchi ichki kuchlar bilan belgilanadi. Motivatsiya uning ichki holatining omillari yoki atrof-muhit, tashqi holat, vaziyat, sharoitlar ta'siriga javobi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Har bir odam motivatsiyaning shaxsiy tuzilishiga ega, bu uning rivojlanishi, o'z qobiliyatlari, qandaydir natijalarga erishishini namoyon qilish va o'zicha baholashi jarayonida shakllanadi. Motivatsiya odamning ehtiyojlari, ularni qanoatlantirilishi darajasi va imkoniyatlarini his qilish bilan belgilanadi.</p>	<p>The task of management is to use the motivation of human behavior in the management of its activities. Everyone's behavior is determined by motivation, that is, the inner forces that motivate a person to perform certain actions. Motivation is manifested in the form of a response to the factors of his internal state or the influence of the environment, external conditions, situations, conditions. Each person has a personal structure of motivation, which is formed in the process of its development, the manifestation of their abilities, the achievement of certain results and self-assessment. Motivation is determined by a person's needs, the degree to which they are satisfied, and the sense of opportunity.</p>

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvarda qabul qilingan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-sonli Qonuni
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli [Farmoni](#).
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevral “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-6166-sonli Farmoni

### **SH. Maxsus adabiyotlar.**

17. A.Haydarov “Harakatlar strategiyasi va ma’naviy yuksalish”. “Donishmand ziyosi” nashryoti. 2020 yil

18. Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarishga doir meyoriy hujjatlar to‘plami. Tuzuvchi A.Haydarov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

19. Azamat Haydarov. Ijodiy faoliyatini rejalashtirish va boshqarish. – T.: “Kamalak” nashryoti, 2019.

20. Azamat Haydarov. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari. – T.: “Kamalak” nashryoti, 2019

21. Mahmudov I. “Boshqaruv psixologiyasi”. O‘quv qo‘llanma.T.: «Akademiya», 2010

22. F.Ravshanov “Rahbar va rahbarshunoslik”. O‘quv qo‘llanma T.: «Akademiya», 2009

23. D.Rahimova va boshqalar “Tashkilotda ish yuritish”. O‘quv qo‘llanma. T.: «Akademiya», 2008

24. U.Saidov “Boshqaruv va notiqlik san’ati”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Akademiya” 2010

### **Internet saytlar**

25.<http://www.lex.uz>

26.<http://www.ziyonet.uz>

27.<http://www.gov.uz>

28.<http://www.nopma.uz>

29.<http://ed.sjtu.edu.cn/ranking.htm>

30.<http://education.guardian.co.uk>

31.<http://www.aboutstudy.ru>

32.<http://www.reitor.ru>

33. <http://management.ru>